

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

ТАРИХ ВА ИЖТИМОИЙ ФАҢЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

Шодмонова Дилором

**ЎЗБЕКИСТОНДА САНОАТ СОҶАСИ МУТАХАССИСЛАРИ
ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ ТАРИХИ
(Мустақиллик даври мисолида)**

5А 120302 Тарих (Йўналишлар ва мамлакатлар бўйича)

Магистр

академик даражасини олиш учун ёзилган
диссертация

Илмий раҳбар : *т.ф.н Г. Муминова*

Қарши- 2017

**МАВЗУ: ЎЗБЕКИСТОНДА САНОАТ СОҲАСИ
МУТАХАССИСЛАРИ ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ ТАРИХИ
(Мустақиллик даври мисолида)**

КИРИШ

I.БОБ. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш тизими тарихи мавзуси тарихшунослиги

II.БОБ. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноат корхоналари учун ўрта махсус маълумотли кадрлар тайёрлаш муаммоси

2.1. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида таълим тизимидаги ислоҳатлар

2.2. Ўзбекистонда саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус кадрлар тайёрлаш жараёнининг бориши ва унинг натижалари

III.БОБ. Ўзбекистонда саноат соҳаси олий маълумотли мутахассисларини тайёрлаш тизимининг шакллантирилиши

3.1.Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассис кадрларини тайёрловчи олий ўқув юртлари ва уларнинг фаолияти

3.2. Таълим муассасаларида саноатнинг турли йўналишлари бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари ва унинг кадрлар тайёрлаш ишига таъсири

3.3. Саноат кадрлари тайёрловчи таълим муассасаларининг хорижий давлатлар билан ҳамкорлиги

Хулоса

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

**Қарши Давлат университети тарих йўналиши 1 курс магистранти
Шодмонова Дилоромнинг “Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассислари
тайёрлаш тизими тарихи(Мустақиллик даври мисолида)” мавзусидаги
магистрлик диссертацияси
АННОТАЦИЯСИ**

Мавзунинг долзарблиги: Мустақиллик даври тарих фани учун том маънода юксалишлар даври бўлди. Тарих фани турли йўналишларида олиб борилаётган тадқиқотлар сони ва сифати ҳам кундан кунга кўпайиб бормоқда. Хусусан, Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихини тадқиқ этишга катта эътибор берилмоқда. Қисқа муддат ичида Ўзбекистоннинг кадрлар тайёрлаш масаласига бағишланган қатор диссертация ишлари бажарилди. Аммо шу кунга қадар мустақиллик йилларида саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш иши тарихи махсус ўрганилмаган.

Мазкур мавзунинг ўрганиш борасида Д.Ийманова, Н.Қодирова, А.Маликов кабилар изланиш олиб борганлар. Уларнинг тадқиқотларида асосий эътибор совет даврида саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш тарихи таҳлил этилади. Муаллифлар соҳа фаолиятига бир томонлама баҳо беради.

Таянч сўзлар: Ўзбекистон, мустақиллик, саноат, кадр, ўрта махсус ўқув юртлиари, олий таълим, техника, енгил саноат.

Тадқиқот объекти: Ўзбекистонда мустақиллик йиллари саноат соҳаси мутахассислари тайёрлаш тизими тарихи.

Тадқиқот мақсади: Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассислари тайёрлаш тизими тарихини янги илмий адабиётлар, архив ҳужжатлари ва даврий матбуот материаллари асосида холисона ўрганиш ва таҳлил этиш.

Тадқиқот усуллари: мавзунинг ёритишда илмий билишнинг тарихийлик, холислик, қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилади.

Олинадиган натижалар ва унинг янгилиги: Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурининг қабул қилиниши ва унинг ҳаётга тадбиғи, Ўзбекистонда саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус кадрлар тайёрлаш жараёнининг бориши ва унинг натижалари, Ўзбекистонда саноат соҳаси олий маълумотли мутахассисларини тайёрлаш тизимининг шакллантирилиши янгича ёндашув ва қарашлар асосида таҳлил қилинади.

Амалий аҳамияти: магистрлик диссертациясида баён қилинадиган маълумотлардан Ўзбекистоннинг тегишли даври саҳифаларини ёритишда, семинар машғулотларини тайёрлашда фойдаланиш мумкин.

КИРИШ

Мавзунинг долзарблиги. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган вақтдан бери ўтган йиллар демократик давлат ва фуқоралик жамияти асосларини барпо этишда амалга оширилаётган ислохатлар жамият аъзоларини кучли тарбиялашни талаб этмоқда. Мустақиллик йилларида миллат, халқ тақдири билан боғлиқ жараёнлар сарҳисоб қилинса, улкан аҳамиятга молик ишлар амалга оширилганининг гувоҳи бўлиш мумкин.

Демократия, фуқоралик жамияти қурилишидаги бундай одимлар ижтимоий ҳаётдаги муҳим вазифалардан келиб чиқиб, тарих фани олдига ҳам муҳим вазифаларни қўяди. Зеро, Ўзбекистон тарихи саҳифалари ҳам ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-маданий, маънавий воқеликлар нисбатини аниқлаш, уларнинг сабабларини англаш ва келажакда хулосалар чиқариб беришида муҳим ва долзарб масала ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов таъкидлаб айтганидек, “Тарих хотираси, жонажон ўлканинг, давлатимиз ҳудудининг холис ва ҳаққоний тарихини тиклаш, миллий ўзликни англашни, таъбир жоиз бўлса, миллий ифтихорни тиклаш ва ўстириш жараёнида ғоят муҳим ўрин тутди”¹, зеро, “Тарихни унутган халқ, жамият ўз йўлини йўқотади. Бундай халқ ва жамиятнинг келажаги йўқ.”²

Ўзбекистон тарихининг ўрганилиши муҳим бўлган муаммоларидан бири бу – кадрлар сиёсати ва унинг натижаларини тадқиқ этиш масаласидир.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб давлатимизда таълим-тарбия, илм-фан соҳаларини ислох қилишга катта эътибор қаратилди. “Таълим тўғрисида” ги Қонун, “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” нинг қабул қилиниши таълим сифатини ошириш, юқори малакали етук кадрлар тайёрлаш ишига ижобий таъсир кўрсатди. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов таъкидлаганидек : “Биз олдимизга қандай вазифа

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид. Барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент Ўзбекистон, 1997, - Б. 140.

² Каримов И.А. Она юртимиз бахт-у икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш-энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б. 109.

қўймайлик, қандай муаммони ечиш зарурати туғилмасин, гап охир-оқибат, барибир кадрларга ва яна кадрларга бориб тақалаверади. Муболағасиз айтиш мумкинки, бизнинг келажагимиз, мамлакатимизнинг келажаги ўрнимизга ким келишига ёки бошқачароқ айтганда қандай кадрлар тайёрлашимизга боғлиқ”³. Барча давлатларда, турли тарихий даврларда кадрлар масаласи долзарб муаммолардан бири бўлиб, шу боис бу мавзу ўзининг қизиқарлилиги билан тарих фани тадқиқотчилари эътиборини жалб этиб келган.

Мазкур муаммо Ўзбекистон тарихининг, долзарб масаласи сифатида кун тартибида турди. Бугунги кунда ҳам ижтимоий-сиёсий тараққиётдаги алоҳида масала эканлигини исботламоқда. Хусусан, саноат кадрларини тайёрлаш масаласи мустақиллик йилларида алоҳида аҳамият касб этмоқда. Чунки бу даврда Ўзбекистон саноати бутунлай янгидан ташкил этилиб, жаҳон талабларига мос маҳсулотлар ишлаб чиқармоқда. Қисқа муддат ичида Республикада саноат соҳасида мисли кўрилмаган ютуқларга эришилди. Бу эса ўз ўрнида соҳа кадрларини тайёрлаш ишини такомиллаштиришни талаб этди.

Юқоридаги мулоҳазалар мавзунинг долзарблигини белгилайди.

Тадқиқотнинг даврий чегараси: Ўзбекистонда саноат соҳаси кадрлар тайёрлаш ишининг мустақиллик йилларини қамраб олиб, бу давр соҳада улкан ишлар амалга оширилиши билан ажралиб туради. Мустақиллик йилларида таълим тизими тўла ислоҳ қилиниб, соҳа фаолияти янгидан йўлга қуйилди.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси: Тадқиқот даврий доираси географик чегарасига мувофиқ хронологик жиҳатдан 1991-2015 йилларни ўз ичига қамраб олгани, бу даврга тааллуқли турли мазмундаги ҳужжатлар, илмий-тадқиқотлар, манбалар кўп бўлгани сабабли муаммонинг ўрганилганлик даражаси диссертациянинг тарихшунослик масалалари билан боғлиқ биринчи бобида махсус тадқиқ этилган.

³Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999 й, - Б.18

Диссертация ишининг илмий-тадқиқот ишлари режалари билан боғлиқлиги. Диссертация Қарши Давлат университети илмий-тадқиқот ишлари режасидан ўрин олган.

Магистрлик диссертациясининг мақсад ва вазифалари. Мазкур тадқиқот ишининг мақсади – янгича ёндошуви асосида Ўзбекистонда саноат кадрларини тайёрлаш ишини таҳлил қилиш, мавжуд маълумотларни умумлаштириш, вужудга келган муаммоларга тизимли тарзда тавсиф беришдан иборатдир. Шунга кўра, қуйидаги асосий вазифалар белгиланди:

-мустақиллик йилларида саноат кадрлар сиёсатини амалга оширилишининг моҳияти, ғоявий назарий асослари ва стратегик мақсадларини очиқ бериш;

- Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассисларини тайёрлаш тизими тарихи мавзусининг тарихшунослигини ўрганиб чиқиш;

- Ўзбекистонда мустақиллик йилларида таълим тизимидаги ислохатларни асослаш;

-Ўзбекистонда саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус кадрлар тайёрлаш жараёнининг бориши ва унинг натижаларини очиқ бериш;

-Ўзбекистонда саноат соҳаси олий маълумотли мутахассисларини тайёрлаш тизимини шакллантирилиши билан боғлиқ воқеа ва ҳодисаларни асослаш;

-Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассис кадрларини тайёрловчи олий ўқув юртли ва уларнинг фаолиятини ёритиб бериш;

-таълим муассасаларида саноатнинг турли йўналишлари бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари ва унинг кадрлар тайёрлаш ишига таъсирини таҳлил этиш;

-саноат кадрлари тайёрловчи таълим муассасаларининг хорижий давлатлар билан ҳамкорлиги масаласини ўрганиш;

- тадқиқот якунида соҳа ривожига хизмат қиладиган хулоса ва таклифларни илгари суриш.

Магистрлик диссертацияси ишнинг назарий ва услубий асослари.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг тарих фани олдида турган долзарб муаммо ва вазифалар ҳақида билдирган фикрлари, асарлари ва нутқлари илмий хулосалар қилишда, таклиф ва тавсиялар беришда методологик асос бўлиб ҳизмат қилди.

Илмий-тадқиқот олиб бориш жараёнида қиёсий таҳлилга, ретроспектив (ўтмишга мурожат қилиш) ва комплекс статистик усулларига, умуминсоний, миллий кадриятларнинг шажарасига таянувчи тарихий тафаккур қоидаларига, инсонпарварлик ғояларига ва мустақиллик миллий тараққиёт мафқурасига асосланади. Ишда тарихийлик, холислик, илмийлик, мантиқий кетма-кетлик каби тамойилларга асосланилади.

Ишнинг илмий янгилиги ва амалий аҳамияти. Тадқиқотнинг илмий янгилиги шундан иборатки, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноат кадрларини тайёрлаш иши замон талаблари-миллий истиқлол ғояси руҳида илк бор алоҳида илмий-тадқиқот мавзуси сифатида холисона ёритилади. Ўрганилаётган мавзу бўйича воқеа-ҳодисаларни бир-бири билан таққослаш, мантиқий илмий хулосалар чиқариш, муаммоларни бир тарихий тараққиёт босқичида мавжудлиги ва ўзаро боғланганлиги эътиборга олган ҳолда баён қилишга амал қилинади. Диссертация ишини тайёрлаш жараёнида қўлга киритилган якуний хулосалардан Ўзбекистон тарихи мустақиллик даври бўйича ўқув қўлланмалар тайёрлашда ва семинар машғулотларида фойдаланиш мумкин.

Тадқиқот объекти. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноат кадрларини тайёрлаш иши тадқиқотнинг объекти ҳисобланади.

Тадқиқотнинг предмети. Мустақиллик йилларида саноат кадрлари тайёрлаш ишининг моҳияти, ғоявий назарий асослари ва стратегик мақсадлари, Ўзбекистонда кадрлар тайёрлаш ишининг ҳуқуқий асослари, кадрлар сиёсатини шакллантиришнинг асосий йўналишлари, саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус кадрлар тайёрлаш жараёнини бориши ва унинг натижалари, Ўзбекистонда саноат соҳасидаги олий ўқув

юртлари ва уларнинг фаолияти, саноат кадрларни тайёрлаш борасида хорижий давлатлар билан ҳамкорлик масалалари ишнинг предметини ташкил қилади.

Ishning aprobatsiyasi. Ushbu mavzu Qarshi Davlat universiteti tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti “Tarix” kafedrasida qoshidagi ilmiy seminarда muhokama qilingan.

Магистрлик диссертацияси ишининг тузилиши: Кириш, 3-боб, 5 та – параграф, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати ва иловалардан иборат.

I.БОБ. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш тизими тарихи мавзусининг тарихшунослиги

Мустақиллик йилларида тарих фанига ўтмишни теран англаш ва ҳозирги давр моҳиятини тўлақонли идрок этишга яқиндан ёрдам берадиган фан сифатида қаралиб, уни ривожлантириш юзасидан давлат томонидан катта эътибор қаратилди. Давр талабидан келиб чиқиб, тарих фани тадқиқотчилари зиммасига масъулиятли вазифалар юкланди. Жумладан, Ўзбекистон тарихи фанида ўз ечимини кутаётган мавзулар жуда кўп. Шундай мавзулардан бири саноат соҳаси ва унинг кадрларини тайёрлаш иши тарихидир. Тарихшунослик фанида шу кунга қадар бу мавзу етарли даражада ўз ечимини топмаган.

Ўзбекистонда ўтган даврида саноат ва соҳа кадрларини тайёрлаш масаласи коммунистик мафкура ҳукмронлиги шароитида ҳақиқий илмий талқинини топмади. Тарих фани узоқ йиллар давомида партия тарғиботчисига айланиб, асарларда тарихий воқеа ва ҳодисалар соҳталаштирилган тарзда баён этилди. Республикада амалга оширилган иқтисодий сиёсатнинг асл моҳияти буяб кўрсатилиб, саноатнинг бир томонлама ихтисослашуви, ишлаб чиқаришнинг сунъий равишда жадаллаштирилиши, саноат кадрлари соҳасидаги зиддиятлар тўла очиб берилмади.

Саноат соҳаси ва кадрлар масаласи тарихига бағишланган дастлабки илмий мақолаларнинг яратилиши XX асрнинг 20 йилларига тўғри келади.⁴ В.Дурмашкина, А. Иткин, И. Русак, М. Юровецкийнинг мақолаларида саноатнинг ипакчилик, пахта тозалаш заводлари, майда-кустар саноатига доир маълумотлари умумлаштирилди. М.Юровецкий мақоласида Ўрта Осиёда ипакчиликни ривожлантиришда ипак кўртини тайёрлаш саноатининг

⁴ Русак И., Промышленность Средней Азии в свете контрольных цифр на 1927-1928 год. //Народное хозяйство Средней Азии. 1927, №8, С.73-123; Дурмашкина В., Промышленность Средней Азии за 10 лет. //Народное хозяйство Средней Азии. 1927, №10-12, С.44-67;Иткин А., Кустарно-промысловая кооперация Средней Азии к концу 1926-1927гг. //Народное хозяйство Средней Азии. 1927, №10-12, С.105; Миронов А., Задачи текстильной промышленности в Средней Азии.//Народное хозяйство Средней Азии. 1929, №12, С.48-55;

ўрни, хусусан Фарғона, Наманган, Андижон, Тошкент, Самарқанд ипакчилик заводлари ҳақидаги маълумотлар умумлаштирилса, И. Русак ва А.Иткиннинг мақоласида Ўрта Осиё саноатига ажратилган капитал маблағ, Иттифоқ, Республика ва маҳаллий ҳокимият тасарруфидаги саноат корхоналари ва улар ишлаб чиқарган ялпи маҳсулот ҳажми, қисман кадрлар масаласи таҳлил қилинади. Юқорида номлари қайд этилган муаллифлардан айниқса, В. Дурмашкиннинг Ўрта Осиё саноати ривожланишининг ўн йиллигига бағишланган мақоласи мавзу тарихшунослигида муҳим аҳамиятга эга. Мақолада саноат корхоналари кадрларининг умумий сони, унда эркаклар ва аёллар салмоғига оид рақамлар таҳлил этилади. Мақолада совет давлатининг маҳаллий миллат ишчиларига муносабати масаласи ошкора танқид остига олинган.

Ўзбекистон саноат тарихи тарихшунослигида XX асрнинг 40-60 йилларида архив манбаларидан, илмий адабиётлардан кенг фойдаланиб яратилган рисола ва монографиялар вужудга келди.⁵ Ушбу асарларда саноат кадрлари масаласига ҳам тўхталади. Б.А. Десятчиков, Е.Т. Алексеев, К.Н.Бедринцев, С.Зиёдуллаев, В.Я.Непомнин, Ш.Н. Ўльмасбоев, Н.М.Мўминов кабиларнинг изланишлари шулар жумласидандир. Н.М. Мўминовнинг монографияси мавзу тарихшунослигида муҳим ўринни эгаллайди. Муаллиф Ўзбекистонда саноатлаштириш сиёсати масаласига эътибор қаратиб, соҳада амалга оширилган ишларни ҳақида фикр билдиради.

Ўзбекистон саноат кадрларининг шаклланиш муаммосини биринчилардан бўлиб Т.С. Мельников махсус тадқиқ қилди. Муаллиф саноат ишчилар синфининг сони, корхоналарни кадрлар билан таъминлашнинг

⁵ Десятчиков Б.А. Электрификация Узбекистана за 25 лет. Т., 1949; Алексеев Е.Т. Ташкентский текстильный комбинат – детище сталинских пятилеток. – Т., 1949. Зайдуллаев С., Манохин И., Совет Ўзбекистонининг социалистик саноати. Т., 1949; Бедринцев К.Н., Десятчиков Б.А., Промышленность Узбекистана за 30 лет. Т., 1955; Локшии Э.Ю., Очерк история промышленности СССР. (1917-1940) М., 1956. Бедринцев К.Н. Десятчиков Б.А. Промышленность Узбекистана за 40 лет. Т., 1957; Непомнин В.Я., Очерки истории социалистического строительства в Узбекистане (1917-1937 гг.) Т., 1957; Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие советского Узбекистана Т., Госиздат Уз ССР, 1958. Мўминов Н.М. Советларнинг Ўзбекистонни саноатлаштириш учун кураши. (1928-1932 йиллар) Т., Ульмасов А. Национальная промышленности в Советском Туркестане Т., 1960; Вахобов М. Формирование Узбекской социалистической нации. Т., 1961. Орипов Ф. Ўзбек ишчи кадрларининг ташкил топиш тарихидан (Қишлоқ хўжалик машинасозлик заводларининг тарихий ва этнографик материаллари асосида) Т., Фан, 1968 ва бошқалар.

асосий манбалари юзасидан фикр юритади. Саноат соҳаси учун кадрлар тайёрловчи ўқув муассасалар фаолияти ўша давр талабларидан келиб чиқиб ёритилган. Шунингдек, монографияда Ўзбекистонда 1913-1950 йилларда саноат ишчилари сонининг ўсиши суръати, уларда маҳаллий миллат ишчилари ҳамда аёллар салмоғи хусусида ҳам рақамлар келтирилади. Ўзбекистон саноат корхоналарида ишлаш учун юборилган Россия ва бошқа марказий ҳудудларнинг кадрлари “малакали мутахассис” сифатида мақталади.

Ўзбекистон тарихи тарихшунослигида олий таълим тизими тарихини тадқиқ этиш барча тарихий даврларда энг долзарб масалалардан бири бўлиб келган. Хусусан, Ўзбекистонда олий таълим тизими тарихига бағишланган катор рисола ва монографияларда саноат соҳаси учун олий маълумотли кадрлар тайёрлаш хусусида ҳам фикрлар берилади.

Ўзбекистонда олий таълим тизими фаолиятини йўлга қўйиш ташаббускорларидан бири академик С.Ф.Ольденбург бўлди. У XX аср бошларидаёқ Туркистонда олий таълим муассасасини очиш зарурлиги тўғрисидаги фикрни илгари сўрган эди. Аммо унинг фикрлари кўп йиллар эътиборсиз қолдирилди. Фақат 1918 йилда Тошкентда “Олий таълим дўстлари жамияти ” фаолият кўрсата бошлади.⁶ Жамият аъзоларининг ташаббуси билан 1918 йил апрелда Туркистон халқ университети ташкил этилди. Ўзбекистон олий таълим тарихида кечган бу жараёнлар кўплаб муаллифларнинг асарларида ўз аксини топди. Муаллифлардан Г.Н.Черданцев ва Г. Рашидовларнинг мақолаларида ушбу жараёнлар мукамал тасвирлади.⁷ Улар ўз изланишларида университет таркибидаги ижтимоий-иқтисодий, табиий-математика, тарих-филология, қишлоқ хўжалиги факультетлари билан бирга техника факультети фаолиятига ҳам эътибор қаратади. Аҳмад Файзий, Бурҳон Ҳабиб, Иброҳим Тоҳирий, Усмон

⁶ Луин Б.В. Из истории создания системы высшего образования в Средней Азии// Общественные науки в Узбекистане, 1971, № 9, С.27-38.

⁷ Черданцев Г.Н. К истории первых лет Ташкентского (народного) университета //Наука и просвещение, 1922, №2, С.97; Рашидов Г. Первый университет в Средней Азии. // ОНУ, 1963 № ; С 52-55.

Хўжаев ва бошқаларнинг факультетларда ўқув машғулотларини йўлга қуйиш учун олиб борган саъй-ҳаракатлари ҳақида гапирилади. Г.Н.Черданцев университетнинг дастлабки йиллардаги фаолияти ҳақида шундай ёзади: “...кун кечириш учун иш ҳақи етишмаган бир шароитда яшаган ўқитувчилар ва талабалар ўз мактабларини ўзлари қурдилар ва мустаҳкамладилар..., университет аҳил оила бўлиб яшади, улар университет ҳаётида рўй берадиган барча муаффақиятлар ва ғам ташвишларни биргаликда бошдан кечирди.”⁸ Ушбу мақолаларда олий таълим тизими тарихи объектив ёритишга ҳаракат қилинган.

Ўзбекистонда олий таълим тизими тарихини ўрганишда К.Е.Волкова, Р.Х.Каримов, Р.О. Шарипов, А.К.Валиев, Р.Х.Зухуров, Р.Агзамова, С.С.Содиқов, Н. Раҳманов, Т.Абдурахмонов, К.А.Оқилов, М.А. Гуломов кабиларнинг асарлари ҳам соҳа тарихшунослигида муҳим аҳамиятга эга.⁹ Улар орасида айниқса, А.К.Валиевнинг асари диққатга сазовор бўлиб, унда олий таълим тизими муассасаларида маҳаллий миллат вакиллари салмоғи масаласига эътибор қаратилади. Р.Х.Зухуровнинг рисоласида эса ўрта махсус кадрларини тайёрлаш муаммолари ёритиб берилади.

Ўзбекистон олий таълим тарихи энг қизиқарли мавзулардан бири сифатида доимий равишда тадқиқотчилар диққат марказидаги мавзулардан бири бўлиб, бу соҳада кўплаб диссертация ишлари ҳимоя қилинди. А.К.Валиев, С.Х. Каримова, Б.И. Пак, Н.Б.Кувватов, Ф.Насриддинов, А.С. Старикова, К.А. Оқилов, М.Р. Рахматуллаев кабиларнинг диссертациялар шулар жумласидандир. Муаллифлар Ўзбекистон олий таълим тизими,

⁸ Черданцев Г.Н. Кўрсатилган асар.

⁹ Волкова К.Е. К вопросу об истории высшего образования в Узбекской ССР. // Ученые записки ТГПИИЯ. – Ташкент, 1956. Вып.1 – С.3-20; Каримов Р.Х. Проблема кадровых специалистов и строительство высшей школы в Узбекистане в годы первой пятилетки // История СССР. – М., 1959. - №6. – С.19-29; Шарипов Р.О. Подготовка специалистов в высших учебных заведениях Узбекистана в 1929-1941 гг. // ОНУ. - Ташкент, 1963. - №3. - С. 27-32; Валиев А.К. Формирование и развитие советской национальной интеллигенции в Средней Азии. – Т., 1966. – 159 с.; Зухуров Р.Х. Развитие среднего специального образования в Узбекистане за годы советской власти. – Ташкент, 1968; Агзамова Р. Высшее образования в Узбекистане. – Ташкент, 1969; Садиков С.С. Очерки высшего образования в Узбекистане. – Ташкент, 1969; Садиков С.С. Высшая школа – кузница подготовки кадров. – Ташкент, 1974; Абдурахмонов Т. Высшая школа советского Узбекистана. – Ташкент.: 1977.; Акилов К.А., Гулямова М.А. Советская интеллигенция Узбекистана. Кн. 1. – Ташкент, 1978; Кн. 2 – Ташкент, 1979.

хусусан, техника соҳасидаги таълим муассасалари фаолиятининг у ёки бу жиҳатларига ўз эътиборларини қаратишга ҳаракат қилади.

XX асрнинг 70 – 80 йилларида саноат соҳаси фаолияти таҳлил этилган катор монографиялар пайдо бўлди.¹⁰ Уларда соҳа тарихи ёритилиши билан бирга кадрлар тайёрлаш жараёнларига ҳам тўхталиб ўтилади. Кадрлар масаласи Л.В. Геншке, Я.Шариповнинг монографияларида ўрганилади. Монографияларда 1926-1932 йилларда Ўзбекистонда ишчилар табақасин шаклланишида компартиянинг “роли” ни ўрганилиб, партиянинг саноат кадрлари масаласи юзасидан қабул қилинган турли мазмундаги ҳужжатлари, анжуманларда бу муаммонинг муҳокамаси тарихий далилларга таянган ҳолда умумлаштирилади.¹¹

Саноат соҳаси тарихи бўйича бир катор диссертация ишлари ҳам химоя қилинди. В.В. Германова, О. Жўракулов, Л.Т. Куракина, П.Д. Рассказов, Л.Т. Тентенева, И.П.Шодмонкулов, О. Ҳақимов, Ж. Уббиниязовларнинг тадқиқотлари шулар жумласидандир.¹²

Мустақиллик даври том маънода илм фан ривожини учун кенг имкониятлар эшигини очилган давр бўлиб, бу даврда тарихчилар учун кенг

¹⁰ Добринин Ю.А. Уровень развития пищевой промышленности Узбекистана. Т., 1932; Джураев Х., Промышленность Узбекистана. Темпы, структура, эффективность. Т., Узбекистана 1974; Маматкулов Х.М. Развитие промышленности Самаркандской области за годы советской власти. (1917-1941 гг.) Т., Фан, 1977; Қодиров Б., Семников И. Ўзбекистонда тўқимачилик саноати. Т., Узбекистан, 1984; Зиядуллаев С.К., Индустрия советского Узбекистана. Т., Узбекистан, 1984; Ливитин З.С., Ходжиматов А.А., История нефтяной промышленности Узбекистана. Т., Мехнат, 1985 ва бошқалар.

¹¹ Геншке Л.В., Компартия и рабочий класс Узбекистана в борьбе за социализм. (1926-1932 гг.) Т., Узбекистан, 1973; История рабочего класса Советского Узбекистана. Т., Фан, 1974; Шарипов Я. Формирование и развитие рабочего класса в республиках Средней Азии. Душанба. Дониш. 1974; Дехканов А.Т. Рабочие факультеты Узбекистана в период строительства социализма (1920-1938 гг) . Автореф...дис...канд...ист...наук. Т., 1974; Зухуров Р.Х. Развитие среднего специального образования в Узбекистане. (1917-1937 гг). Исмоилов А., Формирование квалифицированных рабочих кадров в Узбекистане. Т., Узбекистан, 1975; Аманов К.А. Производственно – техническая интеллигенция Узбекистана. Методологические и социологические проблемы. Т., Фан, 1975; Ахунова М.А. Рабочий класс – ведущая сила Советского общества Т., 1981; ва бошқалар.

¹² Тентенева Л.Т. Борьба рабочего класса Узбекистана за выполнение второго пятилетнего плана в промышленности (1933-1937 гг). Автореф...дис...канд...ист...наук. Т., 1959; Уббиниязов Ж. История развития промышленности Каракалпакской АССР. (1917-1947 гг). Автореф...дисс...канд...ист...наук. Нукус, 1964; Джуракулов О., История создания и развития газовой промышленности Узбекистана. М. Т., 1967; Ҳақимов О., История развития газовой и нефтяной промышленности Узбекистана в 1966-1970 гг.(на материалах Бухарской области) Автореф. дисс...канд...ист...наук. Ташкент, 1974; Джуракулов А. Деятельность КПСС по развитию газовой и нефтяной промышленности Средней Азии.(1946-1970гг.) Автореф. дисс.. докт... наук. Ташкент, 1983; Шадманкулов И.П., Деятельность Советов Узбекистана по развитию промышленности республики. (1933-1941 гг.). Автореф...дисс...канд...ист...наук. Т., 1985; Германова В.В. Историческая роль советской России в социалистической индустриализации Каракалпакии (1928-1937 гг). Автореф...дисс...канд...ист...наук. Т., 1987; ва бошқалар.

имкониятлар яратилиб, мураккаб вазифалар қуйилди. Берилган имкониятдан самарали фойдаланиб, тарихчилар тарих саҳифаларини ҳаққоний ва холис равишда ёзишга киришдилар. Хусусан, саноат ва соҳа кадрларини тайёрлаш масалаларини ҳам тадқиқи этишга киришилди. Бу даврда тарихчилар томонидан янгича методологик услубда ёзилган илмий монографиялар, дарсликлар, мақолалар пайдо бўлди.¹³

Мустақиллик даврида тарихчилар саноат ривожланишининг тарихий, назарий жиҳатларини илмий асосда ўрганишни зарурий ҳол сифатида қабул қилди. Қисқа фурсатда мустақиллик йилларида саноат соҳаси масалаларига умумий тарзда эътибор берилган қатор асарлар пайдо бўлди. Бундай асарларнинг айримларида биз танлаган давр бўйича маълумотлар берилмасада, умумий тарзда масалага янги, концептуал-методологик жиҳатдан миллий истиқлол ғояси ва миллий мафкура манфатлари асосида ёндошилганлиги билан характерланади. Улар орасида айниқса Ю.Эргашеванинг монографияси диққатга сазовор бўлиб, унда XX асрнинг 50-60 йилларида Ўзбекистонда маданий ҳаётнинг турли йўналишларида содир бўлган жараёнлар бугунги кун талабларига мувофиқ янги назарий методология асосида таҳлил этилганлиги билан қимматлидир. Муаллиф Ўзбекистон таълим тизимига тегишли кўплаб аниқ тарихий далилларни давлат архивлари ҳужжатларига асосланиб келтириши билан қимматлидир.

Алоҳида таъкидлаш лозимки, том маънода мустақиллик талабларига жавоб бера оладиган, юксак илмий-назарий асосда ёзилган тарихий ва Ўзбекистон тарихи билан боғлиқ асарлар XX асрнинг 90-йилларининг иккинчи ярмидан пайдо бўла бошлади.¹⁴

Мазкур асарлар моҳияти тўлиқ миллий истиқлол ғояси билан ҳамоҳанглигида яратилиб, уларда ижтимоий-гуманитар фанларда ҳалигача

¹³ Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 157 б; Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. (50-60-е годы). – Ташкент; Фан, 1997. – 210 с; ва бошқалар.

¹⁴ Йўлдашев Ж. Таълимимиз истиқлоли йўлида. Т. Шарқ. 1996; Независимость и история: новые подходы к изучению. –Т., 1997; Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. №2. –Т., 1999; Ўзбекистоннинг янги тарихи 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. 2000; ва бошқалар.

сақланиб келаётган тузум асоратлари, мафкуравий боқимандалик инкор этилган.

Мустақиллик йилларида таълим тизимини ислоҳ қилиш ва уни жаҳон андозалари даражасига чиқариш давлат аҳамиятига молик вазифалар каторидан жой олди. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, “...миллий ва умуминсоний кадриятлар руҳида тарбияланган, мамлакатимизни модернизация қилиш ва замонавий демократик жамият қуриш йўлидаги мураккаб ва кенг қўламли вазифаларни ҳал этишга қодир бўлган янги авлод кадрларни тайёрлаш масаласи муҳим принциплар ва ҳал қилувчи аҳамиятга эга”¹⁵. Ўзбекистонда таълим соҳасида миллий стратегия ишлаб чиқилиб, ислоҳатлар жадаллик билан олиб борилди. Бунда 1997 йил августда Олий Мажлис 1X сессиясида “Таълим тўғрисидаги” Қонун ва Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурининг ишлаб чиқилиши ва амалиётга татбиқ этилиши алоҳида аҳамият касб этди. Натижада таълимнинг узлуксизлиги, умумтаълим ва профессионал тайёргарликнинг муттасил чуқурлашиб бориши, таълим тизимининг тобора ижтимоийлашиб, демократлашиб бориши таъминланди. Шу маънода мустақиллик йилларида Ўзбекистон таълим тизимининг йўлга қўйилиш ҳолати ва унинг тарихини ўрганишга бўлган эътибор кучайтирилди. Таълим тизимига бағишланган илмий мақолалар, рисола ва монографиялар яратилди.¹⁶

Таълим тизимида олий таълим алоҳида ўрин эгаллайди. Чунки айнан олий таълим муассасаларида юқори малакали кадрларни тайёрланади. Мустақиллик йилларида олий таълим тизими тарихини ўрганишга бағишланган номзодлик ва докторлик ишлари ҳам ҳимоя қилинди.¹⁷ Уларда кадрлар тайёрлаш масалалари ҳам ўрганилди.

¹⁵ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тарақиёт йўли // Халқ сўзи. 2007, 31 август.

¹⁶ Йўлдошев таълимимиз истиқлол йўлида. Тошкент, Шарқ, 1996, 224 б. Ўша муаллиқф Таълим янгиланиш йўлида. Тошкент, Ўқитувчи, 2000, 208 б. Абдуллаева Ш., Педагог и его роль в учебном взаимодействии.// Узлуксиз таълим, 2010, № 6 ва бошқалар.

¹⁷ Халикова Р.Э. Развитие высшего исторического образования и науки в Узбекистане. (на примере исторического факультета ТашГУ 1935-1994 гг.). Автореф... дисс. канд. ист наук. –Ташкент.: 1995; Хасанова Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы. 1917 начало 50-х годов. Автореф. дисс. д-ра ист наук. –Т., 2000; Ҳамзаева М. Ўзбекистон миллий маданиятининг ривожланиш йўналишлари ва муаммолари (40-йилларнинг 2-ярми 50-йилларнинг 1-ярми. Фарғона водийси вилоятларининг

Мустақиллик йилларида тарихчилар томонидан ёзилган илмий адабиётлар ва олиб борилган тадқиқотларда ушбу масаланинг айрим томонлари ҳолис, ҳаққоний ёритиб берилган. Э.Қобулов, Н. Нурматованинг¹⁸ тадқиқотлари шулар жумласидандир. Масалан, Э.Қобуловнинг тадқиқотида Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноатининг аҳволи, мутахассис ишчи кадрлар тайёрлаш, уларнинг техник савиясини ошириш масалалари, саноат корхоналари моддий аҳволдаги ўзгаришлар билан бирга бевосита кадрлар сиёсатига оид маълумотлар ҳам учрайди.

Кейинги йилларда вақтли матбуотда олий таълим соҳаси фаолиятининг у ёки бу жиҳатларини таҳлил этишга бағишланган мақолалар доимий эълон қилиниб борилди.¹⁹ Қайд этилган илмий мақола муаллифи мустақиллик йилларида олий таълим тармоғини ривожлантириш ва муаммоларни бартараф этишга доир ўз фикр – мулоҳазаларини баён қилди. Аммо ҳозиргача Ўзбекистонда саноат соҳаси учун кадрлар тайёрлайдиган таълим муассасалари тарихи мавзуси махсус тадқиқот объекти бўлмаган.

1 БОБ бўйича хулосалар

Хуллас, Ўзбекистонда саноат ва унинг кадрларини тайёрлаш мавзусини тарихшунослигини ўрганилиши натижасида қуйидаги умумий хулосаларга келинди:

-саноат соҳаси асосан иқтисодчилар томонидан ўрганилиб, яратилган асарларда саноатнинг турли тармоқлари учун кадрлар тайёрлаш жараёни етарли даражада ўз аксини топмаган. Ўзбекистонда амалга оширилган саноатлаштириш сиёсатининг адабиётлардаги таҳлили ҳукмрон коммунистик партия назорати ва тазйиқи остида олиб борилганлиги туфайли кадрлар сонининг ортиши, кадрлар тайёрлаш ишига бир томонлама ёндашилганлиги

материаллари асосида) тар. фан. ном. дисс. Автореф. Т., 2001; Васиева Д.И. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Университет таълимининг шаклланиши ва ривожланиши: тажриба ва муаммолар (1991-2001 йй): Тарих фан. номз. дисси. ...автореф. – Тошкент, 2008; ва бошқалар.

¹⁸Қобулов Э. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноатининг ривожланиш тарихи: тажриба ва муаммолари (1946-1960йй.):Автореф.дис..т.ф.н.- Самарқанд: 1994.-26 б. Нурматова Н. Подготовка по вышение квалификаций и изменения в составе рабочих и специалистов пищевой и легкой промышленности Узбекистана в 80-с годы: опыт, уроки, проблемы: Автореф...дис.... канд...истую.наук.- Самарқанд .1995. – 144 с. ва бошқалар.

¹⁹ Ғуломов С. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Уч йиллик натижалар ва вазифалар, Маърифат газетаси 2000 йил, 9 декабр.

тўғри асосланмаган. Хусусан, совет даврида саноат корхоналари кадрлари орасида маҳаллий миллат вакиллари салмоғининг пастлиги, ўзбек ва тожик ишчилари асосан қора ишларга қўйилиб, уларни малакасини ошириш юзасидан давлат томонидан етарли эътибор қаратилмаганлиги, муҳандис – техник ходимларнинг деярли барчаси иттифокнинг марказий шаҳарлари аҳолиси вакилларидан ташкил топганлиги ўша даври адабиётларида ўз аксини топмади. Бу каби омилларнинг барчаси мустақиллик шароитида саноат соҳаси ва унинг кадрларини тайёрлаш иши тарихини янги назарий-методология асосида ўрганишни кун тартибига долзарб қилиб қуяди;

-мустақиллик йилларида турли соҳалар тарихини янги тамойилларга асосланган ҳолда ўрганишга киришилиши муносабати билан кадрлар тайёрлаш иши тарихи масаласи ҳам қимсан ўрганилди. Бу мавзуда яратилган асарларда саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш масаласи ҳам қисман таҳлил этилади.

II.БОБ. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноат корхоналари учун ўрта махсус маълумотли кадрлар тайёрлаш муаммоси

2.1. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида таълим тизимидаги ислоҳатлар

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида бозор иқтисодиётига ўтилиши муносабати билан янги ижтимоий-иқтисодий шароитга мос бўлган кадрлар тайёрлаш давр талабига айланди. Ҳар бир давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий тараққиётида турли соҳаларда фаолият олиб бораётган кадрлар ва уларнинг тайёргарлик даражаси, билим ва куникмаси муҳим аҳамиятга эга. Қолаверса, кадрлар сиёсатининг тўғри йўлга қуйилиши муайян давлатда турли соҳалар тараққиётининг қай аҳволда эканлигини аниқлашга ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 41- моддасида фуқароларнинг таълим олиш ҳуқуқи қуйидагича қафолатланди: “Ҳар бир фуқаро билим олиш ҳуқуқига эга”²⁰. Шунингдек, таълимга мамлакат ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳаётнинг муҳим тармоғи сифатида катта эътибор қаратилиб, бу соҳа ҳуқуқий асосларининг таянчини барпо этиш мақсадида 1992 йил 2 июлда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашида “Таълим тўғрисида” ги Қонун қабул қилинди. Шунингдек, мазкур қонун ҳужжатида таълим соҳасида давлат сиёсатининг асосий тамойиллари, таълим тизими ва бошқарув тартиби, таълим – тарбия ходимларининг ҳақ-ҳуқуқлари, вазифалари, маъсулиятлари, мақсадлари белгилаб берилди.

1997 йил 29 августда “Таълим тўғрисида” ги Қонун янгидан қабул қилиниб, бу ҳужжат ўз мазмун моҳияти жиҳатдан аввалгисининг давоми бўлди. Қонуннинг I-моддасида “Фуқораларга таълим бериш, касб-ҳунар ўргатишнинг ҳуқуқий асосларини белгилайди ҳамда ҳар кимнинг билим

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., 555555555555555555555555555555551992 йил.

олишдан иборат конституциявий ҳуқуқини таъминлашга қаратилган, деб ёзиб қўйилади»²¹.

Таълимнинг ҳуқуқий асосини яратиб берувчи асосий ҳужжатлардан бири “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида” ги Қонундир. Ҳужжатда республикада кадрлар тайёрлаш ишини ислоҳ қилиш билан боғлиқ бўлган муаммо ва камчиликлар, шунингдек, малакали мутахассис кадрлар тайёрлашнинг миллий модели, унинг асосий йўналишлари ва уларга қўйилаётган талаблар ҳамда дастурни амалга ошириш учун зарур бўлган чора-тадбирлар асослаб берилади.

Ўзбекистонда олий таълим муассасалари вазирликлар, корхоналар, ўқув-илмий ва тижорат тизимини юқори малакали мутахассис кадрлар билан таъминламоқда. Хусусан, Ўзбекистонда қисқа давр мобайнида саноат соҳаси кадрлари тайёрлаш борасида ўзига хос анъана ва тажриба шаклланди.

Ўтган давр мобайнида бу соҳада ҳам жиддий ислоҳатлар амалга оширилиб, ўтмиш мафкурасидан қолган муаммо ва камчиликлар бартараф этишга ҳаракат қилинди. Шунингдек, истиқлол йилларида соҳанинг мустақкам ҳуқуқий асослари яратилиб, ҳаётга тадбиқ этиб борилди. Саноат соҳаси кадрларини тайёрлайдиган олий ўқув юртлири юқори малакали мутахассислар тайёрлаш борасида халқаро ташкилотлар ва хорижий ўқув муассасалари билан ўзоро ҳамкорликни йўлга қўйди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси IX-сессиясида (1997 йили 29 август) қабул қилинган “Таълим тўғрисида” ги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурда Ўзбекистонда олий таълим тизимининг ҳуқуқий асослари яратилиб, соҳадаги хато ва камчиликлар билан бирга уни келгусида ривожлантириш истиқболлари белгилаб берилди.²²

Юқорида таъкидланганидек, мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб давлатимизда таълим-тарбия соҳаларини ислоҳ қилишга катта эътибор қаратилди. Хусусан, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта

²¹ . Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., 1999 йил, 20 бет.

²².Таълим тўғрисидаги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. 1997 йил, август, IX-сессия материаллари. //Халқ сўзи, 1997, 29 август.

махсус таълим тизими иши янгидан йўлга қуйилди. Ўрта махсус таълим муассасаларининг аксарияти саноат соҳаси учун кадрлар тайёрлаб берди. Ҳунар-техника билим юртлири ўқувчилари ўқиш билан бирга, муайян маҳсулотни чиқаришда олган билим ва кўникмаларини ишга солиб, аҳолига турли хизмат кўрсатди. 1995 йилда, умуман халқ таълимининг ҳамма муассасаларида 71 млн. сўмлик саноат моллари ишлаб чиқарилди, 204 млн. сўмлик пулли хизмат кўрсатилди. Ҳунар-техника таълими тизимига илғор чет эл тажрибалари дадиллик билан жорий этила бошланди. 447, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлиги тизимида 439 хунар билим юртлири (218 минг ўқувчи) мавжуд бўлиб, уларда 17,5 мингга яқин мутахассис фаолият олиб борди. Бу билим юртлиридан ҳар йили 120 мингга яқин ишчи кадрлар чиқарилди. Айрим ихтисосликларга бўлган талабнинг камайганлиги сабабли ўрта махсус ўқув юртлирини битирувчилар сони кейинги йилларда тобора камайиб бораётганлиги кўзга ташланди (1994 йилда 1989 йилдагига нисбатан битирувчилар 89,1 % ни ташкил этди ва ўрта махсус ўқув юртлирига қабул ҳам 1994 йилда 1989 йилдагига нисбатан 26,3 % га камайди)²³.

Ҳунар-техника билим юртлиридан ташқари ёшлар ишчи касбига ўқув-ишлаб чиқариш, ўқув курс, марказ ва ўқув юртлирининг бошқа турларида, шунингдек бевосита ишлаб чиқаришда ўргатилди. Хўжаликнинг янги иқтисодий тараққиёти, хусусий тадбиркорлик соҳасининг шаклланиши ҳамда мажбурий 9 йиллик таянч таълимига ўтиш муносабати билан хунар-техника билим юртлири фаолиятида 3 асосий тамойил устиворлик қилди: Биринчидан, ўқув юртлирининг корхона, ташкилот ва хўжаликлар билан тузган шартномаларига кўра малакали ишчилар тайёрлаш. Бу ривожланаётган ва янгидан тузилган ишлаб чиқаришнинг ишчи кадрларга бўлган эҳтиёжига, меҳнат бозорини мунтазам ўрганиш талабларига жавоб беради. Иккинчидан, бандлик хизмати билан шартнома бўйича ишчилар тайёрлаш. Учинчидан, хунар-техника билим юртлига ўқишга кўпроқ 9-синф

²³ Ўзбекистон Республикаси Энциклопедияси. Тошкент. “Қомуслар Бош таҳририяти”. 1997.-Б.383.

маълумоти борларни қабул қилиниб, 1,5- 2 йил ичида уларга фақат касб-хунар маълумотини беришни кўзда тутилди. Ўқувчилар бу вақтда бири-бирига яқин 2—3 касбни ўрганди, бу эса меҳнат бозорида уларнинг янада ҳимоя қилинишини ва сафарбарлигини таъминлади. Бу йўналиш ҳунар-техника билим юртига ёшларни ҳар йили қабул қилишнинг кўпайишига имконият яратди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида техникум ва билим юртларида 198 ихтисослик буйича 81 минг мутахассис тайёрланди. Ўзбекистонда ўрта малакали мутахассислар тайёрлаш 23 вазирлик ва идораларга қарашли 252 ўрта махсус ўқув юртларида амалга оширилди. Уларда 194,8 минг ўқувчи таҳсил олди. 1995 йили Республика ўрта махсус мактабларида 20 мингга яқин ўқитувчи ва муҳандис- педагогик ходимлар фаолият кўрсатди.

Республикада таълимнинг янги йўналишига ва кўп босқичли тизимига ўтилиши муносабати билан умуман таълим тизимида, жумладан ўрта махсус таълим тизимида ҳам ислоҳот ишлари олиб борилиб, таълимнинг сифати ва самарадорлигини ошириш, халқ хўжалигига зарур мутахассисларни режали равишда тайёрлаш масалалари кўрилди. 1994-1995 ўқув йилидан бошлаб республика техникумларида қабул ва ўқув жараёнлари тест ҳамда рейтинг тизимларига биноан амалга оширилди.

Ҳунар-техника билим юртларида ўқув жараёни умумтаълим, умумтехника ва махсус таълимга ажратилган ҳолда олиб борилди. Ихтисосликлар бўйича ўқув фанларининг ҳажми ва муддатлари Республика Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланган ўқув режаси ва дастури асосида белгилаб берилди.

1998 йил 24 февралда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги таркибида ўрта махсус, касб-хунар маркази ва унинг ҳудудий бошқармалари ташкил этилди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 13 майдаги қарори билан “Ўрта махсус, касб ҳунар таълими тўғрисида”ги низоми, 2000 йил 16 октябрда қарори билан ўрта махсус, касб-хунар

таълимнинг давлат таълим стандартлари тасдиқланди.²⁴ Натижада қабул қилинган қарорларга мувофиқ 2001-2002 ўқув йилидан бошаб ўрта махсус таълим тизимининг барча таълим муассасаларида янги ўқув режа ва фан дастурлари асосида кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилди. Шунингдек, 2001 йилда Республикадаги 194 техникум ва 313 ҳунар-техника билим юртларига касб-ҳунар коллежи мақоми берилди.

Таълим тизимидаги ислохатлар йилма йил изчил давом эттирилди. Масалан, 1998-1999 ўқув йилида 18 та касб-ҳунар коллежида 250 та ўқув дастурини ўз ичига олган 50 та давлат таълим стандарти синаб кўрилди. Бундан ташқари 104 йўналиш бўйича ўқув режалари тайёрланди ва экспертизадан ўтказилди, 1000 дан ортиқ фан бўйича ўқув дастурлари ишлаб чиқилиб, 1999-2000 ўқув йилида синаб кўрилди²⁵. Шунингдек, талабаларнинг билими сифатини баҳолашнинг рейтинг тизими тажриба қилиб кўрилди, бу тизим умумий ўрта ва олий таълим рейтинглари билан узвийликни таъминлади. Ўрта махсус таълим йўналишлари ва ихтисослари классификатори, шунингдек кичик мутахассисга нисбатан малака талаблари ишлаб чиқилди.

Коллежларини малакали педагог ва муҳандис-педагог кадрлар билан таъминлаш учун раҳбар ходимлар ва педагог кадрларни танлаш, аттестациядан ўтказиш, тайёрлаш, малакани ошириш ва қайта тайёрлашга доир мақсадли дастур амалга оширилди. 1999 ва 2000 йилларда педогогларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишга бўлган эҳтиёж 2,5 —3 минг кишини ташкил этди. Умуман Ўзбекистон таълим тизимидаги ислохот йилларида фақат ўрта махсус, ҳунар таълими муассасалари учунгина бакалавриатнинг 86 та янги муҳандислик-педагоглик йўналишлари бўйича 50 мингдан кўпроқ педагог кадр тайёрланиши режалаштирилди.²⁶

1999 йилда 117 ўрта махсус, ҳунар таълими муассасаси ишга туширилди, 2000 йилда 174 та ҳунар коллежи очилиши, бундан ташқари, 109

²⁴ Фуломов С. Куч-билим ва тафаккурда.Т."ЎАЖБНТ" .2002.-Б.230.

²⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.Т."Ўзбекистон".2000.-Б.263.

²⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.Т."Ўзбекистон".2000.-Б.263.

та ҳунар коллежи таъмирлангандан кейин очилиши мўлжалланди.²⁷ Шу тариқа республиканинг ҳар бир шаҳри ва туманида биттадан таълим муассасаси бўлиши таъминланди.

Ўрта махсус таълим тизимининг асосий мақсади ишлаб чиқаришнинг биринчи бўғинидаги ташкилотчи ва иш бошқарувчиларни, олий тоифали мутахассисларнинг ёрдамчиларини, юқори малака ва кўникмаларни талаб қилувчи маълум бир турдаги ишни мустақил бажара олувчи ўз ишининг усталарини бўлган – техник мутахассисларни тайёрлашдан иборат бўлди.

Ўрта махсус касб-ҳунар таълими 2009 йилдан бошлаб мажбурий ҳисобланиб, умумий ўрта таълим мактабининг битирувчилари хоҳишларига биноан ўқиш йўналишини танлади. Ўрта махсус касб-ҳунар таълими битирувчиларни меҳнат бозорида ўз ўринларини топишлари учун аниқ бир йўналишда ҳам умумтаълим фанлари бўйича билим бериб, ҳам касб-ҳунар таълими берилди.

Касб-ҳунар коллежлари – ўрта махсус ва касб таълимини берадиган ўқув даргоҳи бўлиб, унда уч йил мобайнида таълим олинishi белгиланди. Давлат таълим стандартларига мувофиқ коллежда умумий ўрта таълим ва чуқурлаштирилган ҳолда касб-ҳунар ўргатилиб, малака шакллантирилди. Коллеж битирувчилари йўналишлари асосида бир ёки бир нечта касбни эгаллашлари мумкин.

Касб-ҳунар коллежлари учун маҳаллий ҳокимият органлари томонидан корхона ёки муассасалардан васийлар тайинланиши белгиланди. Шунингдек, коллеж йўналишига мос йўналиши бўлган олий ўқув юрти томонидан васийлик қилинди. Коллежда таълим тизимининг индивидуал тизими асосида икки томонлама касб ва таълим дастурлари асосида билим берилди.

2004-2009 йиллар мобайнида ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари моддий-техник базасини мустаҳкамлаш мақсадида давлат бюджетидан 85 миллиард сўм миқдорида ўқув-лаборатория жихозлари харид қилинди. Чет эл инвестициялари ҳисобидан 137,1 миллион АҚШ доллари

²⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т. "Ўзбекистон". 2000. -Б.263.

миқдорида мебеллар; ўқув-лаборатория жиҳозлари, техник воситалар ҳамда кўргазмали куруллар харид қилинди ва ўрнатилди.

«Ўқув-лаборатория асбоб-анжомлари, таълимнинг техник воситалари ва ўқув-кўргазмали қўлланмалар ишлаб чиқаришни республика корхоналарида маҳаллийлаштириш» дастурини бажариш бўйича 2004 йилда 34 та корхона ва ташкилотлар билан 113 турдаги ўқув-лаборатория жиҳозларини ишлаб чиқариш учун 16,7 миллиард сўмлик шартномалар тузилиб, таълим муассасалари жиҳозланган бўлса, 2009 йилда ушбу мақсадлар учун 18,5 миллиард сўм молиялаштирилди.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати 2005 йилнинг 23 ноябрида “2006-2010 йилларда касб-ҳунар коллежлари ва академик лицейлар битирувчиларини сифатли тайёрлаш ва меҳнатидан фойдаланиш бўйича намунали ҳудудий дастур»и қабул қилинди. Мазкур дастур асосида ҳар бир маъмурий бўлиниш - вилоят ва туманларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олинган ҳолда ҳудудий дастурлар ишлаб чиқилди ҳамда ҳокимликлар ҳузурида ҳокимлар раҳбарлик қиладиган ва таркибига давлат ҳамда жамоат ташкилотлари вакиллари киритилган мувофиқлаштириш кенгашлари ташкил этилди.

2010 йилга келиб, республикадаги ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари сони 1536 тага етди. Шундан замонавий типдаги 1413 та, мослаштирилгани 123 та, касб-ҳунар коллежлар сони 1394 та бўлди. Шунингдек, уларда муҳандис-педагоглар умумий сони 111881 нафарни ташкил этиб, шундан 9 нафари фан доктори, 1105 нафари фан номзодлари, 101545 нафари олий маълумотли ўқитувчи эди.

Касб-ҳунар коллежлари янги турдаги ўқув юр்தларини ташкил этиш ва уларни самара билан шаклланишини таъминлаш мақсадида олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги таркибида Ўрта махсус ҳунар-таълим маркази ташкил этилди²⁸. Бундан ташқари ёшларга ўз қизиқишлари, қобилиятлари

²⁸ Ғуломов С. Убайдуллаева Р. Аҳмедов Э. Мустақил Ўзбекистон. Тошкент. “Ислон университети”. 2003, - Б.81.

ва имкониятларидан келиб чиққан ҳолда, касб танлашига ёрдам бериш мақсадида, касб-хунарга йўналтириш ва психологик-педагогик республика ташхис маркази тузилди. Ушбу марказ ўқувчиларнинг интилишлари, қобилияти ва имкониятларини ўрганган ҳолда, касбга йўналтириш масалаларини тадқиқ этди. 9-синф ўқувчиларига касб танлаш жараёнида ёрдам бериш мақсадида коллежларга экскурсиялар ташкил этиш, турли касбларнинг хусусиятлари билан танишиш имкони яратилди. Келажакда касб-хунар коллежларининг кўргазмасини ташкил этиш, мавжуд касбий ахборотлар банкини ҳар бир мактабга етказиш асосида касбга йўналтириш тизимини такомиллаштириш ишлари йўлга қуйилди.

2013 йилда касб-хунар коллежларининг 500 минг нафардан ортиқ битирувчиси иш билан таъминланди.²⁹

Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов таълим тизимидаги ислохатлар жараёнига баҳо бериб шундай дейди: "Биринчидан, кўзда тутилган тадбирлар мамлакатдаги ижтимоий-сиёсий иқлимга ижобий таъсир қилади, мавжуд муҳитни тубдан ўзгартиради, иккинчидан, янги таълим моделининг амал қилиши инсоннинг жамиятдаги ўз ўрнини аниқлаш жараёнини жадаллаштиради. Чунки ҳар бир киши ўспиринлик чоғида, камол топаётган даврда жамиятдаги ўз ўрнини топиши ва аниқлаб олиши керак. Учинчидан, таълимнинг янги модели жамиятда эркин фикрлайдиган шахсни шакллантиришга олиб боради. Биз ўз кадр-қимматини биладиган, ҳаётда аниқ мақсадни кўзловчи иродали кишиларни тарбиялаб вояга етказиш имкониятига эга бўламиз"³⁰.

Ўзбекистон миллий мустақилликни қўлга киритгач бошқа соҳаларда бўлгани каби олий таълим соҳасида ҳам туб ўзгаришлар юз берди. 1992 йил 28 февралда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг "Республикада янги олий ўқув юртларини ташкил этиш тўғрисида" Фармони эълон қилинди. Бу Фармонга мувофиқ Ўзбекистонда 1992 йил 15 мартдан

²⁹ Халқ сўзи.2014. 27 март.

³⁰ Гафарли М.С. Касаев А.Ч.. Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси. Т."Ўзбекистон",2001-Б.397.

Тошкент давлат аграр университетининг Нукус филиали, Андижон давлат университети, Андижон иқтисодиёт ва бошқарув институти, Андижон кишлоқ хўжалиги институти, Бухоро давлат университети, Тошкент давлат техника университетининг Бухоро филиали, Жиззах политехника институти, Қарши давлат университети, Қарши аграр-иқтисод институти, Тошкент давлат техника университетининг Қарши филиали, Навоий давлат педагогика институти, Тошкент давлат техника университетининг Навоий филиали (кон - металлургия ва энергетика йўналишида), Наманган давлат университети, Наманган муҳандислик-иқтисодиёт институти, Гулистон давлат университети, Термиз давлат университети, Тошкент автомобиллар институтининг Термиз филиали, Тошкент электротехника алоқа институтининг Термиз филиали, Фарғона политехника институтининг Қуқон филиали, Тошкент давлат техника университетининг Фарғона филиали, Урганч давлат университети, Тошкент давлат иқтисодиёт университетининг Урганч филиали, 1-Тошкент давлат тиббиёт институтининг Урганч филиали ташкил этилди³¹. “Юқори малакали замонавий билимларга эга бўлган, ҳозирги талаблари асосида фикрлай оладиган етук кадрларни тайёрлаш ҳам ижтимоий-сиёсий , ҳам иқтисодий муаммоларимизни ҳал этишнинг калити ҳисобланади”³² деган эди Ўзбекистон Республикаси Президент И.А.Каримов. Давр талабидан келиб чиқиб, Республика олий ўқув юртларига талабалар қабул қилишни такомиллаштириш мақсадида 1993-94 ўқув йилидан барча олий юртларида қабул имтиҳонлари тест асосида амалга оширилди. Талабаларнинг билимларини баҳолаш ва назорат қилиш рейтинг тизими асосида олиб борилди.

Олий таълим муассасалари Республика ижтимоий-иқтисодий ривожига ўз ўрнига эга бўлди. Ҳозирги олий таълим муассасалари академик ва профессионал таълим хизматларининг юксак халқаро стандартлари қоида-талабларига жавоб бера оладиган илмий-педогогик марказларига айланди.

³¹ Тюриков В. Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон Республикаси.Т.”Ўзбекистон”.1998.-Б.24.

³² Буюк ва Муқаддасан мустақил ватан.Т.”Ўқитувчи”.2011.-Б.147.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони билан республиканинг иқтисодий салоҳиятини мустаҳкамлаш, унинг авиация саноатини ривожлантириш, замонавий авиация техникаси ва технологиясини вужудга келтириш, парвоз қилувчи аппаратларнинг янги авлодларини ишлаб чиқариш ва уларни ишлатиш соҳасида юқори малакали мутахассислар тайёрлаш мақсадида 1995 йил 31 майда Тошкент Давлат авиация институти, Ўзбекистон кон-металлургия мажмуининг устивор ривожланишини ва фойдали қазилмаларни қазиб олиш ҳамда қайта ишлаш саноати учун юқори малакали мутахассислар тайёрлашни таъминлаш мақсадида 1995 йил 7 июлда Навоий Давлат кончилик институти ташкил этилди.

Олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари малакаларини ошириш бўйича Олий педагогика ва Олий муҳандислик педагогикаси институтлари, малака ошириш факультетлари ва бўлимлари ташкил қилинди.

Вилоятлар марказларида ташкил этилган олий ўқув юртларида мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш, уларнинг илмий-интеллектуал потенциалини ва моддий-техника базасини мустаҳкамлаш мақсадида 1995 йил 31 майда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси «Ўзбекистон Республикаси минтақавий олий ўқув юртларини янада ривожлантириш чоратadbирлари тўғрисида» махсус қарор қабул қилди. Қарорда, жумладан, олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги тасарруфида олий ўқув юртлари бўлган вазирликлар ва идоралар Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси ва қишлоқ хўжалиги Фанлар Академияси билан биргаликда вилоятларда ташкил этилган олий ўқув юртларига Тошкент шаҳар олий ўқув юртларининг ҳамда академия институтларнинг таниқли олимларини ҳамда юқори малакали ўқитувчиларини педагогик ва илмий фаолият олиб бориш учун доимий ишга беш йил мобайнида уларнинг лавозим маошларига 50 % гача миқдорда устамалар белгилашни назарда тутган ҳолда йўллаш, ўқув семестрлари даврида Тошкент шаҳардаги ўқув юртларининг тажрибали профессор ҳамда ўқитувчиларини лекциялар курсларини ўқиш ва фан, техника ҳамда технология янгиликлари билан таништириш мақсадида

минтақавий олий ўқув юртларига меҳнат сафарига йўллашни амалда қўллаш кераклиги қайд этилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 31 майдаги “1995-1996 ўқув йилида Ўзбекистон Республикаси олий ўқув юртларига қабул тўғрисида»ги қарорида бу борада муҳим тадбирлар белгиланди, жумладан 1995-1996 ўқув йилидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг кечки ўқитишга қабул қилишни мутахассислар тайёрлашнинг самарасиз шакли сифатида бекор қилди. Ўзбекистонда таълимнинг узлуксиз ва кўп босқичли тизимига ўтилиши муносабати билан олий таълимнинг янги йўналиши ишлаб чиқилди. Унга биноан олий таълим республикада кўп босқичли таълим тизимининг ажралмас бир қисми ҳисобланиб, мутахассисларнинг ихтисослик бўйича олган олий маълумоти таълимнинг халқаро амалиёти ва давлат стандартларига жавоб берадиган бўлди. Бу борада республика олий ўқув юртларида олий профессионал таълимни қуйидаги босқичларда амалга ошириш назарда тутилди: тўлиқсиз олий маълумот (муайян малака бўйича кичик мутахассис дипломи берилади), базавий олий маълумот (бакалавр даражаси ва бакалавр дипломи берилади), тўлиқ олий маълумот (муайян мутахассислик бўйича магистр даражаси ва тегишли диплом берилади).

Республика олий ўқув юртларининг моддий- техника базасини мустаҳкамлаш, ахборот билан таъминланиш йўллари ривожлантириш мақсадида улар таълимнинг замонавий техник воситалари, янги дастурлар, қўлланмалар, дарсликлар, кўргазмали ўқув қўлланмалари ва бошқа ўқув- методик ва адабиётлар билан таъминланди. Ўқув юртларининг мавжуд кутубхоналари янги ўқув адабиётлари, ахборотнома маълумотнома кўринишидаги адабиётлар билан бойитилди. Тошкент архитектура-қурилиш институти қошида турли фан тармоқларига оид чет тиллардаги ўқув адабиётларининг олий ўқув юртлариаро республика кутубхонаси очилди.

Олий ва ўрта таълим тизимини янада такомиллаштириш, кўп босқичли мутахассислар тайёрлаш, кадрлар тайёрлаш жаҳон тажрибаси ютуқларини

Ўзбекистон ўқув-таълим амалиётига жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 31 июлдаги қарори билан Олий ва ўрта махсус мактаб муаммолари институти ташкил этилди.

Президентимиз Ислам Каримов “...кадрларни пухтароқ қилиб тайёрламасдан, уларни кадрига етмасдан, уларга ишонмасдан ва қўллаб-қувватламасдан, ўйлайманки, бирон-бир соҳада аҳволни ҳеч қанақа тарзда ўзгартириб бўлмайди”³³ деган эди.

Олий таълимнинг асосий мақсади замон талабларига жавоб бера оладиган малакали, рақобатбардош, юксак билимли, олий таълим мутахассиси талабларига ўзи танлаган йўналиши юзасидан талабга жавоб бера оладиган республиканинг илм-фан, маданият, иқтисод, ижтимоий соҳаларини ривожлантиришда ўз ҳиссасини қўшадиган, мустақил фикрлайдиган, юксак маънавиятга бўлган юқори салоҳиятли мутахассисларни тайёрлашдир.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда олий таълим муассасаларининг сони муттасил равишда ошиб борди. 1990 йилда Ўзбекистон бўйича 44 та олий таълим муассасаси фаолият кўрсатган бўлса, мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ, уларнинг сонини ва сифатини оширишга ҳаракат қилинди. Олий таълим тизимида 58 та олий ўқув юрти, шу жумладан. 16 та университет ва 42 та институт фаолият кўрсатиб, уларда 164 минг талаба таълим олди. 16 та университетнинг 12 таси мустақиллик йилларида ташкил этилди. Олий ўқув юртларида ишлаётган 18,5 минг профессор-ўқитувчиларнинг 52 фоизини фан докторлари ва фан номзодлари ташкил этди.³⁴ Олий ўқув юртларнинг 14 таси техник, 3 таси иқтисодий, 15 таси гуманитар, 6 таси педагогик, 7 таси тиббий, 4 таси аграр, 12 таси тармоқ мутахассисликларини тайёрлашга ихтисослашгандир. 1995 йил республикада 60 га яқин олий ўқув юрти фаолият кўрсатиб. Уларнинг 350 дан ортиқ факультетида 262 мутахассислик бўйича талабалар таълим олди. 2006 йилга

³³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.Т.”Ўзбекистон”.2000.-Б.247.

³⁴ Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йили. - Тошкент: Шарқ, 1999. - Б.168.

келиб Республикада 62 та олий ўқув юрти фаолият олиб бориб, уларда 265438 нафар талаба тахсил олди. Уларга 21409 профессор-ўқитувчи, хусусан, 1662 фан доктори, 7360 фан номзоди ва доцент таълим тарбия берди.³⁵

Хуллас, мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиёти кадрлар масаласининг қай даражада ҳал этилиши билан чамбарчас боғлиқ. Малакали ва билимли кадрлар тайёрлаш ишини такомиллаштириш аввало таълим тизими ишини яхшилашни талаб этади. Ушбу талаб ҳисобга олиниб, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида таълимнинг турли бўғинларида туб ислохатлар амалга оширилиб, катта муваффақиятлар қўлга киритилди. Хусусан, мустақиллик йилларида ўрта махсус ва олий таълим тизими бутунлай янгидан ташкил этилди. Уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, таълим-тарбия ишларини жаҳон стандартлари даражасига чиқариш мақсадида изчил тадбирлар белгиланиб, ҳаётга тадбиқ этиб борилди.

2.2. Ўзбекистонда саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус кадрлар тайёрлаш жараёнининг бориши ва унинг натижалари

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноатнинг турли йўналишлари учун ўрта махсус маълумотли кадрлар тайёрлаш ишини яхшилаш мақсадида узлуксиз равишда тадбирлар олиб борилиб, муайян натижалар қўлга киритилди. Республика вилоятларининг ҳар бир туман ва шаҳарларида саноат касб-ҳунар коллежлари ташкил этилди. Масалан, Навоий вилоятида жами 47 та касб-ҳунар коллежлари бўлиб, шундан, 18 тасида саноат соҳаси учун кадрлар тайёрланади. Шунингдек, Бухоро вилоятида 80 та касб-ҳунар коллежлари бўлиб, шундан 24 тасида саноат кадрлари тайёрланади. Фарғона

³⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 жилд, Тошкент, 2006, Б.381.

вилоятида 143 та коллежнинг 35 тасида, Тошкент вилоятида 121 та коллеждан 28 тасида саноат кадрлари тайёрланади.³⁶

Республика вилоятларининг ҳудудий жойлашув хусусиятларидан келиб чиқиб, қолаверса муайян шаҳар ва туманда саноатнинг қайси тармоғи ривожланганлигига қараб ихтисослашган касб-ҳунар коллежлари ташкил этилди. Масалан, Тошкент вилояти туманларида кончилик ишларининг ривожланганлиги ҳисобга олиниб, Ангрен кимё саноат коллежи, Ангрен кўмир саноат коллежи, Олмалиқ кон-металлургия коллежи, Олмалиқ кончилик коллежи, Қибрай энергетика касб-ҳунар коллежи каби. Навоий вилоятида ҳам фойдали қазилма бойликларини излаб топиш ва қазиб олиш билан боғлиқ касбларга талаб юқорилиги ҳисобга олиниб, шу турдаги коллежлар фаолияти йўлга қўйилди. Фарғона, Қашқадарё ва Бухоро вилоятларида нефть ва газ саноатининг ривожланганлиги инобатга олиниб, уларда нефть ва газ саноат учун ўрта махсус кадрлар тайёрлайдиган касб-ҳунар коллежлари очишга эътибор қаратилди.

Сирдарё viloyatда жойлашган касб-ҳунар коллежлари фаолияти таҳлил этилганда қуйидаги ҳолат намоён бўлади: вилоятнинг о'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi tasarrufida jami 52 ta ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 4 tasini akademik litsey va 47 tasini kasb-hunar kollejlari va 1 tasini Baxt shahar o'g'il bolalar maxsus kolleji tashkil etadi. Шунингдек, 48 ta kasb-hunar kollejlari 80 ta yo'nalish bo'yicha 36575 nafar, jami 39941 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oldi.³⁷ Жумладан, sanoat kollejlari 6 ta va qurilish kollejlari 5 ta бўлиб, 2825 nafar o'qituvchi, muxandis-pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyat ko'rsatдиib kelmoqda. Shulardan, umumta'lim fan o'qituvchilari 1563 nafar, maxsus fan o'qituvchilari 905 nafar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari 357 nafarni tashkil qildi. Ulardan, oliy ma'lumotlilar 2608 nafar, o'рта maxsus ma'lumotlilar 217 nafardan iborat. Ularning lavozimlari bo'yicha bosh o'qituvchilar 55 nafar, yetakchi o'qituvchilar 152 nafar, katta o'qituvchilar 419

³⁶ Экзилда555555555555555555

³⁷

nafar, oliy ma'lumotli o'qituvchilar, 1982 nafar, o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar 217 nafarni tashkil etadi. Ilmiy daraja bo'yicha fan nomzodlari 14 nafar, o'rindosh o'qituvchilar 200 nafarni tashkil etadi.³⁸

Сирдарё вилоятида Оқ-олтин саноат касб-хунар, Оқ-олтин гидромелорация ва ХК касб-хунар, Сардоба қурилиш коммунал хизмат, Сардоба агросаноат, Боёвут саноат касб-хунар, 1-Боёвут енгил саноат касб-хунар, 2-Боёвут агросаноат касб-хунар, Ширин энергитика ва маиший касб-хунар, М.Улуғбек агросаноат касб-хунар, Сайхунобод саноат касб-хунар, Сайхунобод агросаноат касб-хунар, Бахт саноат касб-хунар, Сирдарё саноат касб-хунар, Малик агросаноат касб-хунар коллежларида саноат соҳаси бўйича мутахассислар тайёрланди.³⁹

Сирдарё саноат касб – хунар коллежи Сирдарё вилояти ўрта махсус касб-хунар таълими бошқармасининг 2004 йил 11-февралдаги 40-сонли «Сирдарё вилояти ўрта махсус касб-хунар таълими бошқармаси тизимидаги техникум ва касб-хунар билим юртлирининг номларини ўзгартириш» тўғрисидаги буйруғига асосан 5-сонли касб-хунар мактаби негизида ташкил этилди. Коллеж реконструкция қилинган янги биноси фойдаланиш учун қабул қилинди. 2006 йил 1 мартдан бошлаб Сирдарё саноат касб-хунар коллежи эски бинодан янги бинога тўлиқ кўчиб ўтди. Бино 600 ўқувчига мўлжалланган, бўлиб 2006 йили 11 йўналиш бўйича 1181 нафар ўқувчи таълим-тарбия олди.⁴⁰



³⁸ [интернитттттттттт](#)

³⁹ www.markaz.uz

⁴⁰ [тттттттттттттттттт](#)

Навоий вилояти Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 6 avgustdagi 1045-sonli Farmoyishiga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 10 avgustdagi 240-sonli, Navoiy kon metallurgiya kombinatining 18.08.1999 yildagi 340-sonli buyrug'i asosida tashkil topdi. Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji O'zbekiston Respublikasi Zarafshon shahar Yoshlik kichik tumani 1-uyda joylashgan bo'lib o'zining hisob raqamiga ega.⁴¹

Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 6 avgustdagi 1045-sonli Farmoyishiga, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 10 avgustdagi 240-sonli, Navoiy kon metallurgiya kombinatining 18.08.1999 yildagi 340-sonli buyrug'i asosida tashkil topdi. Zarafshon sanoat kasb-hunar kolleji O'zbekiston Respublikasi Zarafshon shahar Yoshlik kichik tumani 1-uyda joylashgan bo'lib o'zining hisob raqamiga ega.

Республика касб-хунар коллежларида саноатнинг турли ихтисосликлари бўйича кадрлар тайёрлашни кучайтириш мақсадида таълим муассасаларида йўналишлар сони кўпайтириб борилди. Масалан, Namangan sanoat kasb-hunar kollejiga 2006 -2007 o'quv yili uchun quyidagi yo'nalish va ixtisosliklar bo'yicha қабул эълон қилинган: Metal kesuvchi dastgohlar (Tokarlik, frezerlovchi va parmalovchi dastgohlarda metallarga ishlov berish bo'yicha keng profilli dastgohchi Raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar operatori Sovuq shtampovka shtampovkachisi), Sanoat korxonalarini va qurilmalari elektr jihozlari (Sanoat korxonalarini va qurilmalari elektr jihozlarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish elektromexanigi Sanoat korxonalarini va qurilmalari elektr jihozlarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish elektromontyori), Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va tahmirlash. (Avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish texnigi Avtotransport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish chilangari , "B" va "C" toifali haydovchi), Transportlarda tashish vaboshqarishni tashkil etish tashkil etish (Passajir va yuk

tashish avtotransportlar texnigi Dispatcher «B» va «C» toifali haydovchi), Kom'pyuter va kom'pyuter tarmoqlarini ishlatish vaularning dasturiy ta'minoti(Texnik-dasturchi Komp'yuter va komp'yuter tarmoqlariga xizmat ko'rsatish mutaxassisi), Buxgalterlik hisobi (Buxgalter-auditor, Buxgalter-iqtisodchi Kassa operatsiyalari mutaxassisi Ofis jihozlari mutaxassisi), coliq va coliqqa tortish. (Soliq va soliqqa tortish inspektori Huquqshunos (soliq huquqi) Buxgalter-iqtisodchi Soliq hujjatlarini elektron qayta ishlash mutaxassisi) кабилар.⁴²

Namangan sanoat kasb-hunar kolleji Namangan shahrining markazida joylashgan bo'lib, kollej Namangan Muxandislik Pedagogika instituti bilan, «NamanganMash» xissadorlik jamiyati, Viloyat elektr tarmoqlari korxonasi, O'zDEU avtotexxizmat korxonasi, 17 va 11 sonli avtosaroilar bilan shartnoma asosida hamkorlik qilib, ularga malakali va yetuk kadrlarni yetkazib berди. Kollej mahmuriyati Namangan shahar xalq tahlimi bo'limi bilan kasbiy yo'nalishlar bo'yicha maktablar o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini muntazam hamkorlikda olib borди. Shu maqsadda Namangan shahridagi 50 ta maktablar bilan hamkorlik shartnomasi tuzildi. Jumladan shahardagi barcha maktablarga kollej o'qituvchilarini grafik asosida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishga yo'naltirib, kolejda «Ochiq eshiklar kuni» jadval asosida tashkil etildi Tayyorlov yo'nalishi bo'yicha kollejda 2006-2007 o'quv yili qabuliga xujjatlar qabul qilish xonasi kerakli jixozlar bilan jihozlandi va barcha yo'nalishlar bo'yicha mutaxassisliklar tavsifnomalar stendi tashkil etildi.

Жанубий вилоятлардан бири ҳисобланган Қашқадарё вилоятида мустақиллик йиллари ёқилғи-энергетика соҳаси жуда тез суръатларда ривожланди. “Табиий газнинг 97 фоиздан ортиғи, нефтнинг 95, газ кондитсатининг 100 фоизи Қашқадарё ҳисобига тўғри келади”⁴³. Бу даврда Муборак газни қайта ишлаш заводи, “Шўртангаз кимё” мажмуаси,

⁴² www.markaz.uz

⁴³Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида : Т.:Маънавият .2007.612.

Кўкдумалоқ компрессор станцияси, Дехқонобод калий ўғитлари заводларида янги иш ўринлари яратилиб, мутахассисларга бўлган талаб кундан-кунга ортиб борди.

Эски тузум даврида Республикада бирор саноат корхонаси очилса “унинг технологияси маҳаллий аҳоли учун нотаниш, мутахассислар кам”, деган баҳонада четдан ишчи олиб келинган. Ҳозирги кунда янги корхоналарда деярли тўлиқ маҳаллий аҳоли муваффақият билан меҳнат қилаётгани, айниқса, уларнинг аксарият қисмини ёшлар ташкил этишининг гувоҳи бўламиз. Узлуксиз таълимнинг муҳим бўғини бўлган ўрта махсус касб-ҳунар коллежларида малакали кадрлар тайёрлашга жиддий эътибор берилмода ва бу борада қатор муваффақиятларга эришилди.

Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-ҳунар таълими бошқармаси тасарруфида 144 та таълим муассасалари мавжуд бўлиб, шулардан 30 га яқини айнан саноат соҳасига ихтисослашган мутахассислар тайёрлайди². Ушбу коллежларда малакали ва етук кичик мутахассислар тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга жиддий эътибор берилмоқда.

Жумладан, саноат соҳасига ихтисослашган Қарши саноат коллежи фаолиятида бу яққол кўзга ташланади. Саноат корхоналарида мутахассисларга талаб йилдан-йилга ўсиб бораётганлиги ҳисобга олиниб ушбу коллежнинг турли йўналишларида таҳсил олаётган талабалар сони ҳам ортиб борди. Масалан, коллежнинг “Нефть ва газга ишлов бериш ва қайта ишлаш техник ва технологияси” йўналиши бўйича 2000-2001 ўқув йилида 48 та, 2004-2005 ўқув йилида 85 та, 2010-2011 ўқув йилида 139 та, 2013-2014 йилларда 175 нафар талаба таҳсил олди. Шунингдек, “Нефть ва газ бурғулаш техниги” мутахассислиги бўйича 2001-2002 йилларда 63 та, 2013-2014 ўқув йилларида 87 нафар талаба таҳсил олди⁴⁴.

Коллеж ёшларининг кўпчилиги Марказий Осиёда ягона бўлган Шўртан газ-кимё мажмуаси жамоа аъзосига қабул қилинмоқда. Мажмуа ва

² Қашқадарё вилоят ўрта-махсус касб-ҳунар бошқармаси жорий архиви.

¹ Қарши саноат коллежи жорий архиви.

коллеж ўртасида 2011 йилнинг 22 мартида “2011-2015 йилларда мутахассислар тайёрлаб бериш ва ўзаро ҳамкорлик тўғрисида” шартномага асосан 2011 йил 113 нафар, 2012 йил 116 нафар, 2013, 2014, 2015 йилларда 120 нафардан талабалар назарий билимларини мажмуада амалиётга уйғун тарзда олиб бордилар.⁴⁵

Ушбу даргоҳда таҳсил олган ёшлар ўз мутахассисликлари бўйича иш ўринларига эга бўлиб бормоқда, 2011 йилда 481 нафар талабадан 231 нафари ўз соҳаси бўйича ишга жойлашди. Шундан 16 нафари “Қашқадарё пармалаш ишлари ” очик акциядорлик жамиятига ишга жойлашди. Рустам Сатторов, Илёс Саидов, Шамсиддин Маъмуров, Шерзод Камолов ва бошқалар шулар жумласидандир. Шунингдек 22 нафари “Нефть ва газ қудуқларини синаш” очик акциядорлик жамиятига ишга кирди. Коллежнинг собиқ талабаларидан Шоҳинур Собиров, Фахриддин Маҳманазаров, Нуриддин Ҳайдаров ва бошқалар⁴⁶ бугунги кунда ушбу ташкилотда фаолият олиб бормоқдалар.

Қашқадарё вилоятида саноат соҳаси бўйича кадрлар тайёрлашда Дехқонобод саноат касб-ҳунар коллежининг ҳам ўзига хос ўрни бор. Дехқонобод саноат касб-ҳунар коллежи 2008 йил ташкил этилган. Ушбу коллеж туманда очилган калий ўғитлар заводини мутахассис кадрлар билан таъминлаб келмоқда. Корхона ва коллеж ўртасида 2012 йил тузилган шартномага асосан 2012 йил 1 августдан битирувчи ёшларни кўпчилиги (Ҳайитмурод Бакиров, Юсуф Баратов, Зафар Бойқобилов, Миржалол Зулфиқоров ва бошқалар)⁴⁷ иш ўрганувчи шогирд этиб тайинланганининг ўзи ҳам саноат соҳасига тайёрланаётган кадрлар салоҳиятининг юқорилигидан далолат беради.

Қамаши туманидаги Тўқбой саноат касб-ҳунар коллежи жамоаси ҳам вилоят саноат корхоналари учун кадрлар тайёрлаш борасида сайъи ҳаракат олиб бормоқда. Ушбу коллежга “Ўзбекнефтгаз” миллий холдинг компаниясига қарашли “Ўзор-Ҳисор олди нефть ва қудуқларини бурғулаш”

⁴⁵ Қарши саноат коллежи жорий архиви.

⁴⁶ Бозоров Ф. Биз “Шуртан газ-кимё” мажмуасида ишлаймиз. // Баркамол авлод. 2011 й 21-ноябр.

⁴⁷ Бозоров Ф. Дехқонобод мўъжизаси // Баркамол авлод. 2012 йил 28-август.

очик акциядорлик жамияти васий ташкилот сифатида бириктирилган. 2012 йил коллеж талабаларидан 142 нафари Шўртан нефтгаз унитар шўъба корхонасида, 112 нафари “Ҳисор олди нефть ва газ қидирув экспедицияси” шўъба корхонасида амалиёт ўтадилар.

“Косон пахта тозалаш” очик акциядорлик жамияти қошида тикувчиликка ихтисослашган “Косон истиқлол текстиль ривож” маъсулияти чекланган жамияти фаолият кўрсатиб келмоқда. Жамиятнинг тикувчилик цехига 2014 йилда 25 нафар касб-хунар коллежларини битирган ёш қиз иш билан банд этилди.

Мутахассислар тайёрлаш тизими ҳақида Косон агро-бизнес касб-хунар коллежи директори Зафар Норқулов шундай дейди: “Хунарли ёшлар – юрт келажаги. Ўтган таҳлиллари шуни кўрсатмоқдаки, 2014 йилда коллежимизни битирган кўпчилик қизлар Қаршидаги “Санам” фабрикасига ишга жойлашди.”

Воҳамиз саноатини етук кадрлар билан таъминлашда ва шу орқали нафақат вилоятимиз балки республикаимизнинг тараққиётига, баркамол авлод тарбиясига ҳисса қўшаётган ўрта маҳсус касб-хунар коллежлари беҳисобдир.

Дехқонобод агросаноат касб-хунар коллежда 2005 -2015 йиллар давомида 2000 дан зиёд кичик мутахассислар тайёрланди.⁴⁸ Ушбу коллеж битирувчиларидан Абдурашид Чориев, Абдуҳамид Чориев, Обид Зиёдуллаев, Олтибой Ўралов, Жуманазар Йўлдошев, Камронбек Қиличев, Нодир Шоймардонов, Хуршида Панжиева кабилар “Дехқонобод калийли уғитлар заводи” унитар корхонасида фаолият олиб бормоқда.⁴⁹

Дехқонобод агросаноат коллежи мазкур завод буюртмасига биноан 4 та йўналиш бўйича кадрлар тайёрламоқда. Бу коллежда кимё технологияси ва ишлаб чиқариш техниги, фойдали қазилмалар бойитувчиси, ер ости конларда фойдали қазилмаларни қазиб олиш техниги, автоматика воситалари

⁴⁸ Бозоров Ф. Дехқонободдан Тошкент кўринади-ми? // Баркамол авлод. 2015 йил 24 февраль.

⁴⁹ Бозоров Ф. Дехқонободдан Тошкент кўринади-ми? // Баркамол авлод. 2015 йил 24 февраль

ва назорат ўлчов асбобларини монтаж қилиш ва техник хизмат кўрсатиш техниги каби йўналишлар бўйича малакали кадрлар тайёрланди.⁵⁰

Ўзгир нефть-газ саноати касб-ҳунар коллежида 1671 нафар ўқувчи 14 та йўналиш бўйича касб-ҳунар сирларини ўрганди.⁵¹ Уларни иш билан таъминлаш, амалиётларини ўташ учун “Шуртаннефтигаз” УШК, Ҳисоролди нефть-газ қидирув экспедицияси шўъба корхонаси, “Ўзгир 2532-автожамланмаси”, туман электр тармоқлари корхонаси, туман халқ таълим муассасалари фаолиятини методик таъминлаш ва ташкил этиш бўлими, туман марказий шифохонаси ҳамда бир қанча хусусий корхоналар шартномалари тузилди. Нефть ва газ ишлари, нефтни қайта ишлаш йўналиши бўйича битирувчи гуруҳ талабаларига ҳафтада бир кун корхоналарда фаолият олиб борадиган олий тоифали мутахассислар иштирокида дарс машғулоти ўтказиб келинди.⁵²

Коллеж битирувчиларини ишга жойлаштириш тадбирлари доимий равишда уюштириб келинди. 2014 йил Тошкент вилоятдаги 121 та касб-ҳунар коллежида 121365 нафар ўқувчи таҳсил олиб, вилоят кенгаши томонидан “Коллеждан – корхонага” лойиҳаси доирасида амалий семинар ўтказилди. Тадбир аввалида ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда ташкил этилган меҳнат ярмаркасида 460 та корхона-ташкилот бўш иш ўрни билан қатнашди. Ярмаркада 500 нафардан ортиқ коллеж битирувчиси ўз мутахассислиги бўйича ишга йўлланма олди.⁵³

Тошкент шаҳрида 2014 йил январда “Коллеждан – корхонага” лойиҳаси доирасидаги тадбирнинг иккинчи қисмида халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари депутатлари, корхона ва ташкилотлар вакиллари ҳамда коллеж битирувчилари иштирокида давра суҳбати ўтказилди. Унда депутатлар битирувчилар бандлигини таъминлаш бўйича мамлакатимизда

⁵⁰ Ўша жойда.

⁵¹ Саноатимиз учун малакали мутахассислар тайёрлашда ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этади. // Қашқадарё, 2013-йил 5-апрель

⁵² Саноатимиз учун малакали мутахассислар тайёрлашда ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этади. // Қашқадарё, 2013-йил 5-апрель

⁵³ Коллеждан – корхонага. // Ўзбекистон Овози, 2014-йил 18 январ

олиб борилаётган ислохатлар, меҳнат қонунчилигига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар ҳақида, мутахассислар эса корхона ва ташкилотларнинг ишлаб чиқариш салоҳияти, ишчиларга яратилган шароитлар хусусида батафсил маълумот берилади.⁵⁴

2013-2014 ўқув йилида коллежларни тамомлайдиган битирувчиларнинг амалиётини тизимли ташкил этиш, ёшларни эгаллаган мутахассислаиғига мувофиқ ишга жойлаштириш масаласига эътиборни кучайтириш, бу борада тегишли ташкилотларнинг маъсулиятини ошириш бўйича ҳам тадбирлар олиб борилди.

Хуллас, бугун замон талаби ўзгача, шиддатли. Бу кадрлар савиясига қўйиладиган талабларга ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмайди. Бугунги кунда саноат соҳаси мутахассислари тайёрлаш юзасидан қатъий тадбирлар белгиланган. Кўрилган чора-тадбирлар ўз ижобий натижаларини кўрсатди.

11 БОБ бўйича хулосалар

Хуллас, мустақиллик йилларида Ўзбекистонда мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлаш учун аввало кадрлар масаласига жиддий эътибор қаратилди. Малакали ва билимли кадрлар тайёрлаш ишини такомиллаштириш мақсадида таълимнинг турли бўғинларида туб ислохатлар амалга оширилиб, катта муваффақиятлар қўлга киритилди. Давр талабидан келиб чиқиб, Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта махсус ва олий таълим тизими бутунлай янгидан ташкил этилди ва уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, таълим-тарбия ишларини жаҳон стандартлари даражасига чиқариш мақсадида изчил тадбирлар белгиланиб, ҳаётга тадбиқ этиб борилди. Ўзбекистоннинг турли вилоятларининг географик жойлашувидан келиб чиқиб, қолаверса муайян шаҳар ва туманда саноатнинг қайси тармоғи ривожланганлигига қараб ихтисослашган касб-ҳунар коллежлари фаолияти йўлга қўйилди.

⁵⁴ Коллеждан – корхонага. //Ўзбекистон Овози, 2014-йил 18 январ

Ш.БОБ. Ўзбекистонда саноат соҳаси олий маълумотли мутахассисларини тайёрлаш тизимининг шакллантирилиши

3.1. Ўзбекистонда саноат соҳаси мутахассис кадрларини тайёрловчи олий ўқув юртлари ва уларнинг фаолияти

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида саноатнинг турли тармоқлари учун кадрларни асосан Тошкент техника университети, Тошкент иқтисодиёт институти, Тошкент тўқмачилик ва енгил саноат институти, Тошкент кимё-технология институти, Андижон муҳандислик-иқтисодиёти институти, Бухоро озиқ-овқат ва енгил саноат институти, Жиззах политехника институти, Қарши муҳандислик-иқтисодиёти институти, Наманган муҳандислик-иқтисодиёти институти, Фарғона политехника институти ва бошқа олий ўқув муассасалари тайёрлади.

Ўзбекистонда Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti саноат кадрлари тайёрлаш ишига етакчилик қилиб, шу соҳадаги бошқа олий таълим муассасаларига таянч муассасаси ҳисобланади. Тошкент давлат техника университетининг тарихи uzoq даврларига бориб тақалиб, унинг tashkil etilish sanasi 1918 yili 21 aprelga tўғри келади. Shu kuni Turkiston Xalq Universiteti tarkibida texnika fakulteti ham tashkil etilgan bo`lib, ayni shu fakultet negizida keyinchalik nafaqat O`zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda Oliy texnik bilim tizimi shakllandi. 1923 yili texnika fakulteti muhandislik-meliorativ fakultetga aylantirildi, 1929 yili esa uning asosida O`rta Osiyo paxtachilik-irrigatsiya instituti ochildi. 1933 yilda yagona Oliy texnika bilim yurti sifatida O`rta Osiyo industrial instituti tashkil etildi. 1949 yili bu institut O`rta Osiyo Politexnika instituti nomi bilan yuritila boshladi. 1961 yili esa Toshkent Politexnika institutiga aylantirildi. 1973 yilda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan institutga allomaning nomi berildi.⁵⁵

⁵⁵ O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti tarixi.// <http://www.tdtu.uz/>

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, davlatimiz rahbari I.A.Karimovning tashabbuslari bilan mazkur oliy texnika dargohining universitet maqomini olishi ulkan ahamiyatga ega bo`ldi. Mustaqillik davridan boshlab Toshkent davlat texnika universiteti Respublikamizning eng peshqadam va zamonaviy Oliy o`quv maskani sifatida nafaqat O`zbekiston, balki dunyoning ilmiy, texnik, madaniy va ma`rifiy hayotida katta iz qoldirdi.

1991 йили Политехника институти ва Машинасозлик институти негизда mazkur ўқув maskani tashkil etildi. Университетда энергитика, электроника-автоматика ва ҳисоблаш техникаси, механика-машинасозлик, кон-геология, иқтисод-муҳандислик, нефть ва газ, фундаментал фанлар, гуманитар таълим ва бизнес бошқарув факультетларида 93 та кафедралар фаолияти йўлга қуйилди. Университетда 33 та йўналиш бўйича бакалаврлар, 66 та йўналишда магистрлар тайёрланди. Биргина 2002-2003 ўқув йилида университетда 11 мингдан зиёд талаба таҳсил олди.⁵⁶

ToshDTU bitiruvchilari ichida o`nlab Akademiklar (X.M.Abdullaev, M.T.O`rozboev, M.Z.Xomudxonov, U.O.Orifov, K.S.Axmedov, X.G.Fozilov, V.Q.Qobulov, O.M.Akramxo`jaev, I.X.Xamrobobov, M.N.Nabiev, F.O.Mavlonov, X.N.Boymuxamedov, A.S.Uklonskiy, O.U.Salimov, T.M.Mirkomilov, Z.Salimov, V.R.Rahimov, N.R.Yusupbekov), davlat mukofotlari sovrindorlari, yuzlab ixtirochilar, professor va fan doktorlarini ko`rish mumkin. Mustaqil O`zbekistonning Prezidenti Islom Abdug`anievich Karimov ham shu oily o`quv yurtini tamomlagan.

O`zining kўp йиллик tarixi davomida Turkiston davlat universitetining texnika fakulteti zaminida dunyoga kelib, faoliyat boshlagan texnika universiteti 15 ta oliy texnika o'quv yurtining mustaqil hayot oqimiga kirib borishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Ular orasida Farg`ona politexnika instituti (1967 yil), Toshkent avtomobilsozlik va avtomobil yo`llari instituti (1972 yil), Samarqand me`morchilik-qurilish instituti (1980 yil), Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiyasi instituti (1977 yil), Namangan muhandislik-iqtisodiyoti

⁵⁶ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8 жилд, Тошкент, 2004, Б. 704.

instituti (1993 yil), Jizzax politexnika instituti (1995 yil), Namangan muhandislik–pedagogika instituti (1989 yil), Navoiy davlat konchilik instituti (1995 yil), Andijon muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv instituti (1995 yil), Toshkent me`morchilik–qurilish instituti (1991 yil), Toshkent mashinasozlik instituti (1989 yil), Toshkent kimyo–texnologiya instituti (1991 yil), Qarshi muhandislik–iqtisodiyot instituti (1995 yil), Toshkent davlat aviatsiya instituti (1995 yil), Nukus industrial–pedagogika instituti (1995 yil), Angren texnika kolleji (1995 yil), Olmaliq texnika kolleji (1995 yil), Chirchiq texnika kolleji (1995yil). Toshkent davlat texnika universiteti vujudga kelib, hayot yo`llanmasi bergan texnik o`quv yurtlaridir.⁵⁷

Мустақиллик йилларида университет моддий-техника базасини мустақкамлаш иши йилдан-йилга яхшиланиб борди. Таълим муассасаси талабалари учун 9 та talabalar turar joyi mavjud бўлиб, 2005 yilda hukumatimiz tomonidan 8 та talabalar turar joylari to`liq ta`mirlandi. Universitet talabalar turar joylari jami 1900 o`ringa mo`ljallangan. Bunda talaba-yoshlar yashashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.⁵⁸

Тошкент давлат техника университети кафедралари мустақиллик йилларида ўз иш фаолиятларини янги тартиб қоидалар асосида ташкил этиб, ўқув, илмий ва маданий-маърифий соҳаларда илғор ютуқларни қўлга киритди. Масалан, Университетнинг “Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш” kafedrasi kimyo texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish bo`yicha мухандис-технологлар тайyorлади.⁵⁹ 2008-2009 о`quv yilidan boshlab kafedra 5523800-"Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish" (tarmoqlar bo`yicha) yo`nalishi bo`yicha bakalavrlar hamda 5A523801-"Kimyo sanoati jarayonlarini avtomatlashtirish" (tarmoqlar bo`yicha) va 5A521802 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

⁵⁷ O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti tarixi.// <http://www.tdtu.uz/>

⁵⁸ Ўша жойда.

⁵⁹ Тошкент Давлат Техника университети жорий архиви.

mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlandi va 2014-2015 o'quv yilida kafedrada 550 ta talaba o'qidi. Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan «Kimyoviy texnologiyaning jarayonlari va apparatlari», «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish», «Asboblar. O'lchash va nazorat qilish usullari» kabi ustuvor ilmiy yo'nalishlar bo'yicha doktorlik ilmiy-tadqiqot ishlari muntazam ravishda bajarilib kelinadi. Shuningdek, kafedrada Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2012-2016 yillarga mo'ljallangan 2 ta fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi.

Университетнинг “Радиотехник қўрилмалар ва тизимлар” кафедраси 1983 yilda "Elektrotexnikaning nazariy asoslari" kafedراسи negizida tashkil topdi va shu yildan boshlab Radiotexnika mutaxassisligi bo'yicha muxandislar tayyorladi. Kafedra "Radiotexnika" yo'nalishi va "Integral radioelektron qurilmalar" mutaxassisligi bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorladi. 2011 yildan yangi davlat ta'lim standarti bo'yicha kafedrada Radioelektron qurilmalar va tizimlar, Kasb ta'limi (Radioelektron qurilmalar va tizimlar) yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlash йўлга қўйилди⁶⁰.

Kafedra o'quv laboratoriyalarida talabalarga ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'quv dasturlariga muvofiq radioelektronika asoslari, analog va raqamli radioelektron qurilmalar, radiotexnik zanjirlar va signallar, radiosignallarni yuzaga keltiruvchi va shakllantiruvchi hamda radiosignallarni qabul qiluvchi va qayta ishlovchi qurilmalar, televideniye asoslari, o'ta yuqori chastota va antenna qurilmalari, radiotexnik sistemalar kabi maxsus fanlardan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazildi.

Mutaxassislikni bitiruvchi talabalar zamonaviy radiotexnik va radioelektron apparaturalarni ishlatish va sozlash, zamonaviy radioaloqa vositalaridan foydalanish va ularga servis xizmat ko'rsatish, maishiy va maxsus audio va video apparaturalarni ta'mirlash va ishlatish hamda radiotexnik sistemalar tarkibiga kiruvchi radiotelemetrik, radiolokasiya va radionavigasion

⁶⁰ Тошкент Давлат Техника университети жорий архиви.

qurilmalarni boshqarish bo'yicha yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallashlariga ahamiyat berildi. Mutaxassislar respublikamiz xalq xo'jaligining "O'zaeronavigasiya", "O'ztele-radio", "Zangori ekran" kabi sohalarida, maxsus aloqa tarmoqlari va kasb-xunar kollejlari faoliyat ko'rsatdi.

Университетда Республиканинг турли корхоналари учун гидроэнергетика соҳаси бўйича ҳам мутахассислар тайёрланди. Бу соҳа кадрлари университетнинг «Gidravlika va gidroenergetika» kafedrasida тайёрлаб келинган. Бу кафедра birinchi bo'lib «Gidravlika» nomi bilan TurDUning muxandis-meliorativ fakultetida 1925 - yilda taniqli olim professor V.D. Jurin tomonidan tashkil etilgan. Кафедра 2000 - yildan boshlab "Gidroenergetika va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" nomi bilan faoliyat yuritdi. Ўйналиш очилганидан буён 1000 dan ortiq gidroenergetik muxandislar тайёрланиб, улар Markaziy Osiyoda va MDH mamlakatlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Professor R.X. Jurayev – O'zR Xalq talimi vaziri, T.Yu. Yunusov-O'zbekenergotamir direktori, M.Shamayramov – O'zR Q va SXV energetika va aloqa bo'yicha NS bo'limi boshlig'ining muovini, R.R. Shagaliyov – Krosnoyarskiy GES direktorining muovini, M.E. Belinson – Toshgidroproyekt bo'lim boshlig'i, Ya. L. Duxovniy – Toshgidroproyekt bosh muxandisi, i.f.n. S. Soatov – Qashqadaryo viloyati hokimiyati tashkiliy bo'lim boshlig'i, A.G. Kalashnikov – USAID yetakchi mutaxassisi, L. Motarigina – O'zR MB yetakchi mutaxassisi, I.B. Tureskiy – RF Moskva Gidroproyekt institutining yetakchi mutaxassisi va boshqalar шулар жумласидандир. Kafedrada Gidroelektrik stansiyalar va gidroenergetik qurilmalar, Qayta tiklanuvchan energiya manbalari va ular asosidagi qurilmalar mavzusida Ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.⁶¹ Ilmiy-texnologik muammolar bazasidagi mavzular asosida bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalar mavzulari shakllantirildi.

⁶¹ Тошкент Давлат Техника университети жорий архиви.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun barcha umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan zaruriy o'quv-uslubiy majmualar yaratilgan. Kafedrada o'qitiladigan fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. 2013 йили Muhammadiev M.M. va Urishev B.U. "Gidroenergetik qurilmalar" fanidan darslik, 2012 йили Tursunova E.A., Mukolyans A.A. «Suyuglik va gas mexanikasi» fanidan ў'quv qo'llanma, Muxammadiyev M.M., Tashmatov X.K. "Энергия йикувчи курилмалар" fanidan darslik yaratib, nashr ettirdi.

To'shkent texnika universitetida issiqlik energetikasi йўналиши бўйича ҳам мутахассислар тайёрлаб келинмоқда. 2005 yil sentyabr oyida «Sanoat issiqlik energetikasi», «Issiqlik elektr stansiyalari» va «Suv va yoqilg'i texnologiyalari» kafedralari birlashib «Issiqlik energetikasi» kafedrasini tashkil etildi. 2007 yilda «Issiqlik energetikasi» kafedrasiga «Issiqlik texnikasining nazariy asoslari» kafedrasini qo'shildi.⁶²

Университетнинг «Elektr ta'minoti» kafedrasini 1971 yilda professor T.M.Qodirov tomonidan tashkil etilgan бўлиб, ўз faoliyati davomida 4300 dan ortiq mutaxassislar tayyorladi va ular Respublika sanoat korxonalari, ilmiy-tekshirish va loyihalash tashkilotlarida elektrenergiyani uzatib berish va taqsimlash, loyihalash va ishlab chiqishda faol ishtirok etib bordi. Kafedrada «Elektroenergetika» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar va «Elektr ta'minoti (Sanoat korxonalari va shaharlar)» mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlandi. Kafedra bitiruvchilari xalq xo'jaligining turli sohalaridagi elektr energetika ob'ektlari, elektr stansiya va podstansiyalar, elektr uzatuv liniyalari, elektr energetika tizimlari, elektr ta'minot tizimlari, sanoat korxonalari, hamda boshqa korxonalarining elektr energetika uskunalari va jihozlari, elektr energetika ob'ektlarini avtomatlashtirish va avtomatik boshqarish, noan'aviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalarining elektr energetika qismi,

⁶² Ўша жойда

energetikadagi energiya tejamlovchi texnologiyalar b'uyicha faoliyat olib bormoqda. Kafedra professor-ўqituvchilari Moskva energetika instituti, Germaniya Gelmolt Schmidt universiteti, Germaniya Hannover universiteti, Germaniya Darmstadt texnika universiteti, Berlin texnika universiteti, Malayziya Mara universiteti bilan hamkorlik qildi.

Kafedra Respublikadagi yetakchi energetika va sanoat korxonalarini bilan o'zaro ilmiy va o'quv ishlari bo'yicha yaqin aloqalar olib bordi.

«Energiosozlash», «DavEnergonazorat», «Toshkent Elektr Tarmoqlari», Toshkent va Yangi-Angren IES lari, O'rta Chirchiq va Toshkent GES kaskadlari, «O'zbekneftegaz» korxonalarini, Navoiy va Olmaliq MK lari, «Bekobod metallurgiya zavodi», «Selenergoproekt», «Tashselmash», «Kompressor», «Pod'yomnik», «O'zbekkabel», «Toshkent traktor zavodi», «Ranglimetalloyiha» korxonasi shular jumlasidandir. «Elektr ta'minoti» kafedrasini professor-o'qituvchilaridan A.D. Taslimov, D.A.Rismuxamedov, F.C.Mamarasulovlarning hammuallifida nashr ettirgan "Rele himoyasi" fanidan o'quv qo'llanmasi 2010 yili, G.P.Rafiqova, E.G. Usmonov, A.H. Rasulovlarning "Elektr ta'minoti asoslari" fanidan o'quv qo'llanmasi 2012 yili, F.A. Xoshimov, A.D. Taslimovlarning "Energiya tejamkorligi asoslari" fanidan o'quv qo'llanmasi 2014 yili, A.G.Saidxodjaevning "Elektr yoritish" fanidan o'quv qo'llanmasi 2014 yili nashr ettili.⁶³

Universitetda elektr energetika sohasining boshqa ixtisosliklari b'uyicha ham mutaxassaslarni tayyorlab kelmoqda. Masalan, Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotehnologiya «EEE» kafedrasini. Mazkur kafedra 2005 yilda «Elektr yuritma va sanoat qurilmalarini avtomatlashtirish» kafedrasining bazasida tashkil topdi. Kafedra talabalarining amaliyoti O'zbekiston Respublikasining yetuk korxonalarini –

⁶³ Toshkent Davlat Texnika universiteti joriy arxivini.

«Uzbekenergo» DAK, «NTMK» AJ, «OTMK» AJ, «Andijankabel», «Uzkabel» QK OAJ, «Uzmetkombinat» AIB, «Rotor» IB, «Uzelektroapparat» va boshqalarda olib boriladi. Kafedra zamonaviy o'quv – metodik qo'llanmalar bilan ta'minlangan. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar qo'llanilib dars ўтилади. Talabalarning kurs va bitiruv ishlarining mavzusi ishlab chiqarish korxonalari muammolari bilan uzviy bog'langan бўлиб, ўзаро ҳамкорлик яхши йўлга қўйилган.

Kafedra professor-ўқитувчиларидан prof. A. A. Xoshimov, dots. M.M.Xamudxanov, dots. A.T. Imamnazarov A.U. dots.Mirisaev, dots. Tulyaganov M.M. va boshqalar avtomatlashtirilgan elektr yuritma bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Bu tadqiqotlar elektr va resurs tejamkorligi, elektr qurilmalarining mustahkamligi va uzoq muddat ishlashiga bag'ishlangan. Ilmiy tadqiqotlarning natijalari «Uzmetkombinat» AJ, «Andijankabel», NTKMK, OTMK va boshqalarda amalda qo'llash йўлга қўйилган.

«Elektr mashinalari» kafedrasini ToshDTUning ilk kafedralaridan biri bo'lib, O'rta Osiyo Energetika institutidagi «Umumiy elektrotexnika» kafedrasining bo'linishidan 1933 yilda tuzilgan. Ushbu kafedra **2012 yilda «Elektr mexanika va kabel texnikasi» kafedrasini** deb qayta nomlandi. Kafedraning asoschisi professor *Grushkin Georgiy Fyodorovich* edi. 1999-2000 yillarda kafedrani dotsent Odilov G., 1993-1999 professor Bozorov N.X. бошқарди. 1996 yildan kafedra «Elektromexanika», 2005 yildan esa kafedra «Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari» deb nomlandi. 2001-2005 yillarda dotsent Pirmatov N.B., 2005-2010 yillarda Xoshimov O.O. 2010-2011 yillarda dotsent Mirisaev A.U., 2013 yildan kafedrani professor Pirmatov N.B. бошқарди.⁶⁴

ToshDTUning «Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi» kafedrasining tashkil bo'lganiga 2014 yil sentyabr oyida 90 yil to'ldi. 1924 yilning sentyabrida O'rta Osiyo Davlat Universiteti (UODU)ning fizika-

⁶⁴ Тошкент Давлат Техника университети жорий архиви.

matematika fakultetining geologiya bo'linmasi tarkibida prof. O.K.Lange tomonidan «Dinamik geologiya» kafedrasini tuziladi. 1926 yili bu kafedra «Gidrogeologiya va dinamik geologiyasi» kafedrasini, 1930 yildan esa «Gidrogeologiya va injenerlik geologiya» kafedrasini nomi bilan atalgan.

Мустақиллик йилларида ҳам кафедра ўз фаолиятини самарали ташкил этиб, кафедранинг 1998-2000 yillari prof. YA.S.Sodiqov, 2000-2003 yilningi prof. K.P.Pulatov, 2003-2004 yillarda dotsent N.M.Qayumova, 2004-2005 yillarda katta o'qituvchi I.A.Agzamova бошқарди.⁶⁵

2005 yildan «Gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi, geofizika usullari» deb yuritildi va kafedraga akademik Q.N.Abdullabekov rahbarlik qildi. Кафедра ўзининг узок йиллик фаолияти давомида O.K.Lange, M.A.Shmidt, G.O.Mavlonov, V.L.Dmitriev, T.I.Arhangelskiy, A.A.Volodina, T.V.Trifonova, M.Z.Nazarov, O.M.Galkin, E.V.Qodirov, K.P.Pulatov, A.A.Adilov, M.U.Mirsaidova, N.M.Qayumova, B.Axmedov, M.G.Avganova, Ya.S.Sodiqov, R.M.Mirzaxodjaev, M.Sh.Shermatov, Yu.I.Irgashev, K.V.Kernosova, Z.Ubaydullaev, V.I.Laert, O.K.Qosimov, M.Turdibekov, V.D.Yunusov, D.N.Kruglov, Djumagulov A.To'xtaev, R.B.Nabiev, R.E.Eshboev, A.D.Qayumov, I.A.Agzamova, D.Q.Begimqulov каби етук мутахассисларни тайёрлади. Bugungi kungacha kafedra talabalaridan ko'plab olimlar etishib chiqdi. Bular ichida UzRFA akademiklari G.O.Mavlonov va A.N.Sultoixodjaevlar, Qozog'iston FA akademigi A.Axmedsafin, Tojikiston FA akademigi P.A.Pankratov, UzRFA muxbir a'zosi N.A.Kenesarin; geologiya-mineralogiya fanlari doktorlari: M.M.Krilov, I.M.Mirxodjiev, N.N.Xodjibaev, N.A.Plotnikov, S.SH.Mirzaev, X.T.Tulyaganov, E.V.Qodirov, K.P.Pulatov, YA.S.Sodiqov, YU.I.Irgashev, M.A.Shermatov, A.M.Xudoybergenov, M.F.Ochilov, X.Tuychiev, A.D.Kayumov, N.Mavlonova va boshkdlardir. Fan nomzodlari: M.A.SHmidt, V.L.Dmitriev, K.V.Kernosova, I.Ismoilov, M.Z.Nazarov, R.B.Nabiev, U.Juraev, N.Zaxritdinov, A.Islamov, M.Tuychieva, B.A.Axmedov, R.Mirzaxodjaev, M.U.Mirsaidova, N.M.Kayumova, A.A.Adilov, N.G.Mavlyanov, N.N.Umarov, A.Tuxtaev,

⁶⁵ Ўша жойда

R.E.Eshboev, K.P.Pulatov, X.L.Raxmatullaev va boshqalar shular jumlasidandir.⁶⁶

Navoiy Davlat konchilik instituti istiqloqlarning ilk yillarida O'zbekiston konmetallurgiya majmuining ustuvor rivojlanishi va foydali qazilmalarni qazib olish hamda qayta ishlash sanoati uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berish maqsadida tashkil etildi. Institut jamoasi mineral xom ashyo bazalariga ega bo'lgan hududlarda yer osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash borasida yirik ixtisoslashgan gidrometallurgiya korxonalarida konchilik sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, energetika, kimyo sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'nalishida katta ishlarни amalga oshirdi.

«Konchilik ishi», «Kon elektromexanikasi» va «Nodir va radioaktiv metall rudalarini qazib olish va qayta ishlash texnika va texnologiyasi», «Elektr energetikasi», "Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarish jihozlari va ularni avtomatlashtirish», «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqaruv», "Metallurgiya", "Kimyoviy texnologiya" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, «Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish», «Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish», «Nodir va radioaktiv metall rudalarini qazib olish va qayta ishlash texnika va texnologiyasi», «Nodir va radioaktiv metall rudalarini qayta ishlash va boyitish texnologiyasi» kabi mutaxassisliklari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlandi.⁶⁷

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish orasidagi integratsiyani rivojlantirish maqsadida tegishli tashkilotlar qoshida qator kafedralar filiallari tashkil etildi. Jumladan, Navoiy gidrometallurgiya zavodida "Metallurgiya", "Noyob va radiaktiv metallar rudalarini qazib olish va qayta ishlash texnika va texnologiyasi", Navoiy mashinasozlik zavodi ishlab chiqarish birlashmasida «Mashinasozlik texnologiyasi va mashinasozlik ishlab chiqarishlarini avtomatlashtirish», "Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari", Navoiy elektr tarmoqlari korxonasi va Navoiy davlat issiqlik elektr stantsiyasida «Elektr energetika»,

⁶⁶ Тошкент Давлат Техника Университети жорий архиви.

⁶⁷ www.nggi.uz.

Navoiy azot OAJda va Navoiy elektrokimyo zavodida "Kimyo va kimyoviy texnologiya" Toshkent viloyatidagi qalmohir kon boshqarmasida Olmaliq kon-metallurgiya fakultetining «Konchilik ishi» va Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari» kafedralari filiallari shular jumlasidandir.⁶⁸

Mustaqillikka tengdosh Toshkent kimyo-texnologiya instituti(TKTI) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 6 maydagi 203-sonli Farmoniga binoan sobiq Toshkent politexnika instituti tarkibidagi kimyoviy texnologiya va muhandislik texnologiyasi fakultetlari negizida tashkil topdi. Institut o'tgan davr ichida kimyo, oziq-ovqat, neft-gaz, qurilish materiallari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga 10 mingdan ziyod yuqori malakali muhandis texnologlar, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mingdan ortiq bakalavr va 30 ga yaqin mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlab berdi. Shuningdek, kafedra va ilmiy- tadqiqot laboratoriyalarida bajarilgan katta hajmdagi izlanishlar natijalariga ko'ra 40 dan ortiq fan doktorlari va 138 nafar fan nomzodlari tayyorlandi. Institutda tahsil olgan mutaxassislar respublikamizning hamda ayrim MDH davlatlarining ko'plab hukumat tashkilotlarida va ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida mas'uliyatli lavozimlarda samarali faoliyat ko'rsatib kelyaptilar. Hozirgi kunda TKTI Respublikamiz oliy talim tizimida malakali kadrlar tayyorlab beruvchi yirik tayanch oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya va boshqa ishlarda erishgan yutuqlari tufayli yuqori reyting ko'rsatkichlari bilan oliy o'quv yurtlari orasida munosib etakchi o'rinni egallab turibdi.⁶⁹

Institut tarixi O'zbekistonda kimyo, qurilish materiallari, neft-gaz, oziq-ovqat va shu kabi turdosh tarmoqlar sanoat korxonalarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Sobiq O'rta Osiyo davlat universitetining kimyo fakultetiga qarashli bo'lgan kimyo texnologiya bo'limida 1934 yili birinchi marotaba "Silikatlar texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha 5 nafar, "Yog'lar texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha 7 nafar, "Charm-dubil ekstraktlari texnologiyasi "

⁶⁸ www.nggi.uz.

⁶⁹ Tkti.uz (Toshkent kimyo tex.uni)

mutaxassisligi bo'yicha 3 nafar, 1939 yilgacha 192 nafar injener texnologlar tayyorlandi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti tarixi 1940 yilda kimyo texnologiya fakultetini tashkil etish bo'yicha e'lon qilingan xukumat qaroridan boshlanadi. Institutda tahsil olganlardan 5 nafari O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining akademigidir. Kadrlar tayyorlash dastlab 3 ta mutaxassislikda olib borilgan bo'lsa, hozirgi kunda 10 ta ta'lim yo'nalishida bakalavrlar, 27 ta mutaxassislik bo'yicha raqobatbardosh magistrlar etkazib berilmoqda. Institut tarkibida 5 ta fakultet, 2 ta o'quv – uslubiy markaz, 26 kafedra, ixtisoslashtirilgan litsey, 12 ta ilmiy – tadqiqot laboratoriyalari va «Kimyogar» ilmiy – texnologik parki faoliyat olib boradi.⁷⁰

Institutda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqori ko'rsatkichlar bilan o'qiyotgan talabalar Prezident va mashhur olimlarimiz Beruniy, Ulug'bek kabi respublika tanlovlarida faol qatnashib kelmoqdalar va sovrinli o'rinlarni egallamoqdalar. Institutimizda faoliyat ko'rsatgan ulug' olimlarimiz, akademiklar Axmedov K.S., Nabiev M.N., Rustamov X.R, professorlar Niyazov M.I. va Markman A.L. nomidagi hamda tarmoq stipendiyalari ham ta'sis etildi. Institutda tayyorlangan kadrlar “O'zkimyosanoat”DAK, “O'zneftgaz”MXK, “O'zmevasabzavotuzumsanoat” xolding, “O'zyog'moytamakisanoat”, “O'zdonmahsulot”, “O'zqurilishmateriallari” kompaniyalari va “Sho'rtangazkimyo” kompleksida etakchi mutaxassis bo'lib samarali faoliyat ko'rsatmoqda.⁷¹

Республика жанубий вилоятлари нефт ва газ соҳасини кадрлар билан таъминлашда Қарши Муҳандислик Иқтисодиёт институтининг алоҳида ўрни бор. 1990 йили Тошкент политехника институтининг Қарши филиали ташкил этилиб, саноат соҳаси мутахассис кадрларини тайёрлаш бошланди. 1995 йили Қарши аграр иқтисодиёт институти ва Тошкент давлат техника университетининг Қарши филиали негизида Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти ташкил этилди. 2010 йили мазкур институтда нефт ва

⁷⁰ Tkti.uz (Toshkent kimyo tex.uni)

⁷¹ Tkti.uz (Toshkent kimyo tex.uni)

газ факультети ташкил этилди. Факультетда Технологик машиналар ва жихозлар, Нефт-газ конлари геологияси ва разведкаси, Нефт-газ конларини ишга тушириш ва улардан фойдаланиш каби кафедралар фаолияти йўлга қўйилди. Факультет асосан йирик ишлаб чиқариш корхоналаридан “Шуртаннефтгаз” УШК, “Ҳисоролди нефт ва газ қидирув экспедицияси” УШК, “Қашқадарё пармалаш ишлари” ОАЖ, “Косон нефт ва газ қидирув экспедицияси” УШК, “Муборакнефтгаз” УШК, Муборак газни қайта ишлаш заводи, Шуртан газ-кимё мажмуаси, Дехқонобод калий ўғитлари завоидига кадрлар тайёрлаб берди.⁷²

Институтнинг “Кимёвий технология” кафедраси ҳам саноат соҳаси учун кадрлар тайёрлаш ишига ўзиларининг ҳиссасини қўшиб келмоқда. 2011-2012 ўқув йилида “Кимёвий технология” йўналиши бўйича 75 нафар, Табиий энергия ташувчилар ва углеродли материалларни қайта ишлаш кимёвий технологияси таълим йўналиши бўйича 18 нафар талаба. Минерал ўғитлар кимёвий технологияси магистратурав мутахассислиги бўйича 4 нафар талаба муваффақиятли тугатди. Кафедрада турли фанлар бўйича ўқув-услубий мажмуалар тайёрлаш иши яхши йўлга қўйилган. Масалан, “Йўналишга кириш” фанидан С.Лутфуллаев, “Умумий кимёвий технология” фанидан З.Рўзиева, “Полиолефинлар технологияси” фанидан Б.И.Фармонов, “Ишлаб чиқариш корхоналарини лойиҳалаш асослари” фанидан Ф.Х.Норматовлар ўқув-услубий мажмуаларни тайёрладилар.⁷³

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Кимёвий технология” таълим йўналиши учун ўтиладиган мутахассислик фанларидан 21 та фандан 170 номдан ортиқ лаборатория ишлари бажарилади. Вилоятнинг саноат йўналишларидаги касб-хунар коллежларида кафедранинг филиаллари ташкил этилган. Масалан, Қарши саноат КХК ва Қарши туман Хилол агросаноат КХК да кафедра филиаллари очилган.⁷⁴ Кафедра Муборак газни

⁷².Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти жорий архиви.

⁷³ Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Кимёвий технология” кафедраси жорий архиви.

⁷⁴ Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Кимёвий технология” кафедраси жорий архиви.

кайта ишлаш заводи билан кадрлар малакасини ошириш бўйича 8 млн. сўмлик хўжалик шартномасини имзолади.

Шунингдек, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Автоматика ва АТ” кафедрасида ҳам саноатнинг турли ихтисосликлари учун кадрлар тайёрлаш ишларини мунтазам олиб бормоқда. Айниқса кафедра касб-хунар коллежлари билан яқиндан алоқа олиб бормоқда. Бунда кафедра аъзоларидан А.Маллаев, Б.Махмадиев, Ф.Жўраев, М.Очилов, С.Эшқобилов, М.Турсунов, Х.Қахрамонова, Н.Ҳамраев кабилар жонбозлик кўрсатиб келмоқда.⁷⁵ Кафедра Қарши АТ КХК, Қарши политехника КХК, Китоб агробизнес КХК, Қарши саноат КХК, Қамашини саноат КХК, Чироқчи тумани саноат КХК билан доимий алоқалар йўлга қуйилган.⁷⁶

Ўзбекистонда саноат соҳаси кадрларини тайёрлашда Бухоро озиқ-овқат ва енгил саноат технология институтининг ҳам ўзига хос ўрни бор. Ушбу таълим муассаси 1977 йили ташкил этилган бўлиб институтда асосан муҳандис-технологлар тайёрланади. Институтда 6 та факультет фаолият кўрсатиб, уларда 31 та кафедра мавжуд. Институт ўз фаолияти давомида 12 мингдан ортиқ мутахассисни тайёрлаб чиқарган. Масалан, биргина 2000 йили 15 та ихтисослик бўйича 477 мутахассис институтни тугатди. 2001 йил мазкур институтда 282 нафар профессор-ўқитувчи фаолият кўрсатиб, шундан 20 нафари фан доктори, 178 нафари фан номзоди эди.⁷⁷

Бухоро озиқ-овқат ва енгил саноат технология институти филиали Навоийда фаолият олиб бориб, 1994-1995 ўқув йилида Тошкент техника университети таркибига ўтди.⁷⁸

Республикадаги яна шундай таълим муассаси Жиззах Politexnika institutidir. Бу институт 1977-yilda ташкил этилган. Xuddi shu yili Jizzax shahrida Toshkent Politexnika institutining "Umumtexnika" fakulteti tashkil etildi. 1980-yilda ushbu fakultet Toshkent Politexnika institutining Jizzax filialiga

⁷⁵ Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Автоматика ва АТ” кафедраси жорий архиви.

⁷⁶ Ўша жойда.

⁷⁷ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2 жилд, Тошкент, 2001. Б.296.

⁷⁸ www.navsmi...

aylantirildi. Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgandan keyin kimyoviy texnologiya, elektroenergetika, iqtisod, qurilish, transport sohalaridagi milliy kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar inobatga olingan holda Toshkent Politexnika institutining Jizzax filiali, Toshkent Arxitektura va qurilish institutining Jizzax filiali, Toshkent Kimyo-texnologiya hamda Toshkent Avtomobil yo'llari institutlarining Jizzaxdagi "Umumtexnika" fakultetlari bazasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 11-martdagi qaroriga asosan Jizzax Politexnika instituti tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan fakultetga viloyat маъмурияти tomonidan "Jizzaxcho'lqurilish" tresti homiy sifatida tayinlandi. Trest boshlig'i P.X. Kan fakultetning oyoqqa turishida yaqindan yordam berdi. 1980-yilda "Umumtexnika" fakulteti Toshkent Politexnika institutining Jizzax filialiga aylantirilgan davrda 20 dan ziyod yoshlar aspirantura va stajirovkaga jo'natildi. Ularning ko'pchiligi ilmiy ishlarini himoya qilib, institutda faoliyat ko'rsata бошлади. Fakultet va filialga dastlabki yillarda dotsent N.Yu. Tashlanov(1977-1983), professor F.H. Qurbonov(1983-1986), texnika fanlari nomzodi S.I. Ikromov(1986-1988), dotsent U.Yu. Yuldashev(1988-1990), dotsent A.Yu. Salimov(1991)lar rahbarlik qildi. Filial mustaqil institutga aylantirilgan dastlabki vaqtda institut rektori vazifasini bajaruvchi etib texnika fanlari nomzodi, dotsent M.T. Turopov tayinlandi. 1980-yilda hozirgi institut binosi qurilishi uchun 23 gektar er ajratilib, 1000 talabaga mo'ljallangan o'quv binosi va 800 talabaga mo'ljallangan yotoqxona qurilishi rejalashtirildi. Institut o'quv va yotoqxona binolari qurilishining oxiriga etkazilishida U.Yu. Yuldashev astoydil harakat hildi va filial qoshida "Beruniy" nomli firma tashkil etdi. Bu ishlarning nihoyasiga etkazilishida filial direktori U.Yu. Yuldashev bilan birgalikda dotsent K.T. Tagmatov, yoshlar etakchisi X. Meliev, qurilish shtabi boshlig'i dotsent M. Turopovlar rahbarligida jamoa a'zolari jonbozlik ko'rsatди. Filial tashkil etilgan dastlabki yillarda rahbarlik qilgan dotsent N.Yu. Tashlanov tashabbusi bilan Jizzax tumanidagi Qorasoy qishlog'ida talabalarning yozgi amaliyot o'tkazishlari uchun 3 gektar er ajratildi va u erda

talabalarning amaliyot o'tashlari va dam olishlari uchun binolar qurildi. hozirgi kunda bu joy institut jamoasining sevimli dam olish maskaniga aylandi. 1983-1986-yillarda filialga professor Q.Q. Qurbonov rahbarlik qilgan yillarda o'quv-laboratoriya xonalari o'quv jihozlari bilan yanada boyitildi. Sobiq Ittifoq va respublikadagi yirik oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy-uslubiy aloqalar o'rnatildi, ilmiy ishlar salmog'i ortdi, xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy ishlanmalar yaratish ishlari boshlandi. O'zbekistonda ilk bor elektrokimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ushbu oliy o'quv maskanida yo'lga qo'yildi. Институт жамоаси "O'zEksayd" O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi, Navoiy, Chirchiq elektrokimyoviy kombinatlari, Toshkent zargarlik buyumlari zavodi, "Mikond" zavodi va respublikamizdagi boshqa ko'plab korxonalariga elektrokimyoviy texnologiya mutaxassisligi bo'yicha malakali kadrlar etkazib berilmoqda.⁷⁹

Мустақиллик davrida institutda yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yilganligi munosabati bilan yangi yo'nalishdagi kafedralar va fakultetlar tashkil etildi. O'quv maskanida zamonaviy o'quv-laboratoriya xonalari va kompyuter sinflari yangitdan jihozlandi. Институт раҳбари akademik N.R. Rashidovning bevosita yordami bilan U.Yu. Yuldashev, I.T. Tirkashev, T. Muqumovlar fan doktori ilmiy darajasiga erishdi. 20 dan ortiq yoshlar nomzodlik ilmiy ishlarini himoya qildi. Bular orasida institutni bitirib, shu dargohda ilmiy-pedagogik faoliyatini boshlagan O. Burhonov, K. Jo'raev, B. Matniyazov, B. Meliev, I. Ganiev, B. Muxtorov, X. Asatullaev kabi iqtidorli yosh ilmiy kadrlar ham bor edi. 2002-yil aprel oyidan 2003-yil iyuligacha dotsent B.I. Matniyazov institut rektori vazifasini bajaruvchi bo'lib ishladi. Bu vaqtda institut o'quv jarayoniga boshqa oliy o'quv yurtlaridan muhandis-pedagog olimlar jalb qilinishi evaziga fan doktorlari soni 4 nafardan 15 nafarga ko'paydi. 2003-yil iyulidan Jizzax Politexnika institutiga texnika fanlari doktori, professor Ibrohim Solihovich Sodiqov rektor etib tayinlandi.⁸⁰

Мустақиллик йилларида oliy ta'limda innovatsion dasturlar va investitsion loyihalar asosida ta'lim va o'qitish sifati oshirilmoqda. Jumladan, Jizzax politexnika institutida ham ma'naviy va ma'rifiy, o'quv va o'quv-uslubiy ishlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash ishlari, moddiy-texnik baza va moliyaviy ahvolni yaxshilash, viloyatdagi mavjud akademik litsey va kasb-xunar kollejlariga uslubiy yordamlar, ularning professor-o'qituvchilarini shartnoma asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ma'lum bir ishlar amalga oshirildi

Institutning kunduzgi bo'limda 13 ta yo'nalish bo'yicha bakalavrlar, 4 ta mutaxassislik bo'yicha magistrlar tayyorlandi. 2000/2001 o'quv yilida 1900 dan ortiq talaba ta'lim oldi. 18 ta kafedra va 4 ta ilmiy laboratoriya bo'lib, unda 143 prof.o'qituvchi, jumladan 1 akad., 13 fan doktori va prof., 49 fan nomzodi, 20 dotsent ishladi. Institutda aspirantura, 40 o'quvchiga mo'ljallangan tayyorlov kursi faoliyat olib boradi.

Тошкент тўқмачилик ва енгил саноат институти Республикада саноат соҳаси кадрларини тайёрлаш бўйича етакчи олий таълим муассасаларидан бири ҳисобланади. Институт Ўзбекистоннинг пахта тозалаш, тўқмачилик ва енгил саноат корхоналари учун юқори малакали, етук мутахассис кадрлар тайёрлаб беради. Шунингдек, институт турли корхоналарда ишлаб чиқаришни ташкил этиш, режалаштириш ва бошқариш, маҳсулот сифатини ошириш, техник ва технологик асбоб- ускуналарни янгилаш ишларига ҳам ўз ҳиссаларини қўшиб келмоқда.

Тошкент тўқмачилик институти ўз тарихига эга. Институт 1932 йили ташкил этилган. 1937 йили институтда аспирантура бўлими очилди. 1940 йили эса Институт қошида фан номзоди илмий даражасини берувчи Ихтисослашган Кенгаш очилди. Институтда М.А.Ҳожина, Х.А.Рахматуллин, Б.И.Рогов, Б.А.Азимов, П.И.Тютин, Ш.Р.Марасулов, Қ.Э.Эргашев, Д.А.Котов, С.Н.Кнгурцева, М.Т.Ўрозбоев, П.М.Конюков, Б.А.Левкович, Л.Ю.Юнусов, С.З.Ўсмонов, Ю.Қ.Қирғизбоев, З.А.Абдуллаев, С.С.Ибрагимов. Ҳ.Х.Ўсмонхўжаев, Ю.Т.Тошпўлатов, С.Х.Ҳусниддинов,

И.И.Соловьёв, М.Я.Громов, А.А.Алимов, П.Е.Мельникова каби таниқли олимлар ижод қилди.⁸¹

Тошкент тўқмачилик ва енгил саноат институтида мустақиллик йилларида “Осиё рамзи” модельерлар уюшмаси тузилган бўлиб, унинг аъзолари турли халқаро танловларда фаол иштирок этиб келмоқда. Ёш модельерлар 2007 Чехиянинг Брно шаҳрида ўтказилган халқаро ёшлар мода фестивалида, Хитойда ўтказилган “Буюк ипак йўли” фестивалида, шунингдек, Москва, Париж ва Лондон шаҳарларида бўлиб ўтган мода кўргазмаларида муваффақиятли иштирок этди. Мазкур уюшма ташаббуси билан 2008 йили эса Тошкент шаҳрида “Подיום-2008” халқаро танлови бўлиб ўтди.⁸²

Институтдаги ёш дизайнерлар ва модельерлар Республикада ўтказилган “Асрлар садоси”, “Келажак овози”, ART WEEK “Style. uz”, “Хон атлас” каби халқаро анжуманларда фаол иштирок этди.

XX аsrning 60 yillarida Respublikamizda, ayniqsa, Farg'ona vodiysida sanoat korxonalarining rivojlanishi, ishlab chiqarish quvvatlarining ko'payishi hududda milliy muhandis kadrlarga bo'lgan talabning keskin oshishiga sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan 1967 yilda Toshkent politexnika institutining Farg'ona filiali bazasida mustaqil Farg'ona politexnika instituti tashkil etildi.

Dastlab institutda 70 o'qituvchi-xodimlar ishlagan bo'lib, shundan 3 nafari fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan. Institutga Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi, "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi, 8-qurilish trestiga qarashli binolardan ajratib berildi. Qisqa vaqt ichida bu binolar o'quv mashg'ulotlari olib borish uchun moslashtirildi. 1967 yil avgust oyida institutga birinchi marta "Sanoat va fuqaro qurilishi", "Mashinasozlik texnologiyasi" va "Energetika" mutaxassisliklari bo'yicha qabul amalga oshirildi.⁸³ Institutda ishlash uchun butun mamlakatdan

⁸¹ Жуманиязов Қ., Абдуғаффоров А., Ҳайитов И., Институт олимлари. Тошкент, Давр нашриёти, 2012, Б.3-6.

⁸² Жуманиязов Қ., Абдуғаффоров А., Ҳайитов И., Институт олимлари. Тошкент, Давр нашриёти, 2012, Б.3-6.

⁸³ <http://ferpi.uz/> Ferpi.uz(Fargona politex)

ilmiy-pedagogik xodimlar, Toshkent politexnika institutini bitirgan qobiliyatli yosh mutaxassislar ishga taklif qilindi.

Yildan-yilga institut kengayib, yangi kafedralar, fakultetlar ochila bordi. Hozirgi kunda institut Farg'ona shahrining xushmanzara joyini makon etgan, uning o'quv binolari, yotoqxonalari, sport inshootlari, axborot resurs markazi, dam olish, sifatgoh, madaniyat saroyi - hammasi jamul jam bo'lib, o'ziga xos talabalar shaharchasini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida institut yanada kamol topdi, vodiya yagona texnika oliy o'quv yurti bo'lib, zamon talablariga javob bera oladigan, jahon andozalariga mos muhandis mutaxassislar yetishtiruvchi o'quv maskaniga aylandi. Institut zamonaviy moddiy- texnika bazasiga ega bo'lib, yuqori darajada o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy- ma'rifiy faoliyat olib borish imkoniyatiga ega. Farg'ona politexnika instituti o'tgan davr mobaynida 40 mingdan ortiq yuqori malakali mutaxassislar yetishtirdi. Institut o'zining 30 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan sobiq talabalari bilan faxrlanadi.⁸⁴

Ўзбекистон Республикаси Президентining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1533-sonli qarori эълон қилингандан сўнг, саноат кадрлари тайёрлайдиган ўқув муассасалари моддий техника базасини мустаҳкамлаш юзасида қатор ишлар олиб борилди. Масалан, Farg’ona politexnika institutida qator tizimli ishlar yo’lga qo’yilib, 2013-2016 yillar mobaynida institutning 9 ta o’quv binosi, 4 ta talabalar turar joylari, 2 ta sport zali, Axborot resurs markazi, bosmaxona, 2 ta talabalar oshxonasi, 6 ta xo’jalik va yordamchi binolarini kapital ta’mir qilish, 1 ta sport zalini qurish rejalashtirildi. 2013 yilda institut bosh binosi hamda galereya o’quv binolarida kapital rekonstruksiya ishlari yakunlandi.⁸⁵

2011 йил 20 майда Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини

⁸⁴ Ўша жойда.

⁸⁵ <http://ferpi.uz/> Ferpi.uz(Fargona politex)

мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1533 сонли қарорини бажариш юзасидан бозор иқтисодиётининг замонавий талабларига жавоб берадиган юқори малакали мутахассислар тайёрлашни янада такомиллаштириш, шунингдек, республика, шу жумладан тўқмачилик ва енгил саноат ишлаб чиқариш тармоқларининг кадрлар ресурс базасини мустаҳкамлаш мақсадида 2011 йил 25 июлда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Наманган муҳандислик-иқтисодиёт институтини Наманган муҳандислик технология институтига айлантириш тўғрисидаги” қарори эълон қилинди.⁸⁶ Институтда муҳандислик-технология, технология, тўқмачилик ва енгил саноат технологияси факультетлари фаолият олиб борди.

Хуллас, Ўзбекистонда саноат кадрларини тайёрлаш борасида ўзига хос тажриба шаклланган бўлиб, Республикадаги қатор ўқув муассасалари бу соҳада катта муваффақиятларни қўлга киритди. Мазкур таълим масканлари ўқув жараёнларини ишлаб чиқариш билан биргаликда олиб борди. Соҳа ишини такомиллаштириш мақсадида доимий равишда хорижий мамлакатларнинг ўқув муассасалари билан ҳамкорлик қилиб келди.

3.2. Таълим муассасаларида саноатнинг турли йўналишлари бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари ва унинг кадрлар тайёрлаш ишига таъсири

Республика олий ўқув юртларида талабалар билим олиш билан бирга илмий-тадқиқот ишларини ҳам олиб борилди. Талабалар ўқув юрти илмий тўғаракларида, талабалар конструкторлик бюроларида, кафедралар қошида илмий ишлар билан шуғулланди. Талабаларнинг курс ва диплом ишларини тайёрлашлари ҳам талабалар илмий-тадқиқот ишларининг муҳим

⁸⁶ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2011 йил, 30 сон, 313-модда.

шаклларида бири. Илмий мавзулар кўпинча талабаларнинг ихтисослиги бўйича тегишли ишлаб чиқариш корхоналари, илмий-тадқиқот муассасалари ва бошқарма билан боғлиқ ҳолда ҳам амалга оширилди.

1999 йил 9 декабрда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг “Вазирлик олий ўқув юртлари ва илмий муассасаларининг илмий-тадқиқот фаолиятини комплекс баҳолашни йўлга қўйиш ҳақида” ги буйруғи эълон қилинди. Унга биноан олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот институтларини илмий-тадқиқот ва истеъдодли ёшларни тайёрлаш фаолиятини баҳолаш қуйидаги кўрсаткичлар асосида амалга оширилиши белгилаб қўйилди:

- республика фанининг жаҳон илм-фанига интеграциялаш фаоллиги кўрсаткичлари;

- илмий-тадқиқот натижаларини амалиётга тадбиқ этиш ҳамда олий ўқув юртининг фан ва технологияси соҳасида ривожланган мамлакатлар билан халқаро ҳамкорлигини чуқурлаштириш кўрсаткичлари;

- олий малакали илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш ҳамда ёшларнинг илмий ижодиётини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш фаолиятидаги кўрсаткичлари;

- иқтидорли талабаларни аниқлаш ва уларни тайёрлаш услубиятини, педагогик ва психологик шароитларини яратиш ҳамда амалга ошириш кўрсаткичлари.⁸⁷

Мазкур кўрсатма Олий таълим тизимида илмий-тадқиқот ишларини олиб боришни маълум тартибга солди. Илмий-тадқиқот ишларида устувор йўналишларни аниқлаш, илм-фанда халқаро интеграциялашув, янги ихтиро, кашфиётлар яратишга йўналтирилганлик - буларнинг бари олий таълим муассасаларида соҳа бўйича иш самарадорлигини оширишга кенг имкониятлар яратди.

Олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг илмий-тадқиқотларини мунтазам ёритиб бориш мақсадида вазирлик қошида

⁸⁷ Олий таълим. Меъёрий - ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Истқлол, 2004. - Б.511.

фанларнинг турли соҳаларига оид «Ахборот» илмий-тадқиқот тўпламлари ташкил этилди.

Toshkent davlat texnika universiteti mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun nafaqat texnik va iqtisodiyot yo`nalishlari bo`yicha kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi yetakchi oliy o`quv yurti bo`lib qolmasdan, balki ta`lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirishda ham yirik ilmiy-tadqiqot markazi hisoblanadi. Toshkent davlat texnika universitetida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari xo`jalik shartnomalari asosida «O`zbekneftgaz» MXK, «Sho`rtangaz» OAJ, «O`zkimyosanoat» IChB, «O`zbekko`mir» OAJ, «O`zbekenergo» DAK, «O`zqishloqxo`jalikmashxolding» XK, O`zbekiston qiyin eriydigan o`tga chidamli materiallar kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati OAJ, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «O`zmetkombinat» AChB, «Muborakneftgaz» UK, «O`ztransgaz» AK, «O`zkimyomash» OAJ, «O`zbekgeofizika» OAJ, «O`zbekkabel» AJ kabi korxonalar bilan hamkorlikda amalga oshirildi.⁸⁸

Ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ilmiy jihatdan hajmdor texnologiyalar to`g`ridan-to`g`ri sanoat korxonalari, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo`mitasi ishtirokida uch tomonlama innovatsion loyihalar orqali ishlab chiqarishga tadbiiq qilindi. Universitet bo`yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari korxonalar bilan uzviy hamkorlik qilishga real integratsion imkoniyat beradi. Hozirgi zamon sharoitida oliy ta`lim faqatgina inson va jamiyatning intellektual hamda ma`naviy-axloqiy taraqqiyot omili bo`libgina qolmasdan, balki har qanday davlatning ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ko`rsatkichidir. So`nggi yillar mobaynida universitetda davlat byudjeti, shuningdek, sanoat korxonalari tomonidan moliyalashtirilgan ikki yuzdan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ularning natijalari monografiya, darslik, o`quv qo`llanma va ko`rsatmalar tarzida ishlab chiqarishga hamda o`quv jarayoniga tadbiiq etildi.⁸⁹

⁸⁸ <http://www.tdtu.uz/>

⁸⁹ <http://www.tdtu.uz/>

Muntazam ravishda Toshkent davlat texnika universitetida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo`mitasi tomonidan moliyalashtiriladigan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar hamda xo`jalik shartnomalari asosida sanoat korxonalarini buyurtmalari yo`nalishlari muammolari, sanoat, yoqilg`i-energetika, tog`-kon, mashinasozlik, agrar komplekslar rivojiga bag`ishlangan xalqaro va respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalari o`tkazilib kelinmoqda. Konferensiyalar yakuniga bag`ishlangan to`plamlar nashr qilindi. Konferensiyalar doirasida Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari yutuqlarining ko`rgazmalari tashkil etilgan. Ularda tadqiqotlarni amalga oshirish yo`nalishlari bo`yicha to`plangan keng ko`lamli materiallar namoyish qilinadi. Toshkent davlat texnika universitetida «Eng yaxshi fundamental loyiha», «Eng yaxshi innovatsion loyiha», «Eng yaxshi amaliy loyiha», «Eng yaxshi yosh olim loyihasi», «Eng yaxshi talaba loyihasi» nominatsiyalari bo`yicha tanlovlar o`tkazilib kelinmoqda.

Shu bilan bir qatorda ToshDTUda 6 ta ilmiy jurnal chop etiladi. Bular,

- ilmiy-texnikaviy «ToshDTU xabarlarini»;
- ilmiy metodologik va ilmiy-uslubiy «Ta`lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar»;
- ilmiy-ishlab chiqarish «Energiya va resurs tejash muammolari»;
- ilmiy-texnikaviy «Kimyoviy texnologiya, nazorat va boshqaruv»;
- «Kompozitsion materiallar»;
- «Texnika Yulduzlari» jurnallaridir.⁹⁰

Ushbu jurnallar bir yilda 4 martadan, «Kimyoviy texnologiya. Nazorat va boshqaruv» ilmiy-texnikaviy jurnali esa 6 marta nashr etiladi. Universitetda 2008-2015 yillar uchun ilmiy-tadqiqotlar ko`lamini kengaytirish, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash faoliyatini takomillashtirish, talabalarni olib

⁹⁰ <http://www.tdtu.uz/>

borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga tizimli asosda jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Университетнинг “Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш” kafedраси professor-o‘qituvchilari tomonidan «Kimyoviy texnologiyaning jarayonlari va apparatlari», «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish», «Asboblار. O‘lchash va nazorat qilish usullari» kabi ustuvor ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha doktorlik ilmiy-tadqiqot ishlari pavişhda bajarilib kelmoqda. Shuningdek kafedrada Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2012-2016 yillarga mo‘ljallangan 2 ta fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Биринчиси, «Murakkab texnologik ob’ektlarning intellektual boshqarish sistemalarini qat’iymas to‘plamlarni tasvirlash asosida strukturali parametrik sintezlashning nazariy asoslarini va usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi bajarilmoqda (2014 yilga 36,0 mln. so‘m ajratilgan). Loyihaga akademik Н.Р. Yusupbekov раҳбарлик қилди.⁹¹

Иккинчиси, «Ko‘p komponentli aralashmalarni ajratish jarayonlarining nazariy asoslari» mavzusida бўлиб, 2014 йили ilmiy-tadqiqot loyihasiga 32 млн. 16 минг ажратилди. Лойиҳага профессор Ш.М. Gulyamov раҳбарлик қилди.

Kafedra xodimlari ilmiy-tadqiqot ishlari va ishlanmalarining natijalari bo'yicha 50 dan ortiq monografiyalar, preprintlar va boshqa nashrlar, 500 dan ortiq ilmiy maqolalar mamlakatimiz va yetakchi xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda ixtiro va dasturiy mahsulotlar uchun 200 dan ortiq patentlar, mualliflik guvohnomalari va boshqa himoya hujjatlari olingan. Kafedra ilmiy maktabi xodimlari tomonidan 20 dan ortiq doktorlik va 100 dan ortiq nomzodlik dissertasiyalari himoya qilingan.⁹² Kafedra doimiy ravishda fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqotlar va davlat grantlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat ilmiy-texnik dasturlarini bajarib kelди. Университетнинг “Радиотехник қўрилмалар ва тизимлар” кафедраси ilmiy ishlar бўйича O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Elektronika instituti va

⁹¹ Тошкент Давлат Техника Университети жорий архиви.

⁹² Ўша жойда.

Akademiasbob ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent temir yo'l transporti injenerlari instituti bilan uzviy aloqada izlanish olib borilmoqda. Hamkorlikda kafedra a'zolari tomonidan shu kungacha yuzlab ilmiy maqolalar, monografiyalar, ixtiro patentlari hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari, amaliy va tajriba ishlariga uslubiy ko'rsatmalar chop etildi. Kafedra magistratura o'quv dasturlarini takomillashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqining «PROMENG» dasturida va O'rta Osiyoda kasbiy ta'limni rivojlantirish «GIZ» loyihasida ishtirok etdi.

Kafedra katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti asosida katta ilmiy xodim-izlanuvchilar faoliyat olib borildi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchilarga ilmiy maslahatchilar sifatida kafedra professor-o'qituvchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalaridan fan doktorlari jalb qilindi. Kafedraning professor-o'qituvchilari Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovasion loyihalarda muntazam qatnashib, 2014 yilda ular jami 2 ta ilmiy loyihani tanlovga tayyorlashda ishtirok etdi. Tadqiqot ishlarini rivojlantirishning strategiyasi ishlab chiqarish korxonalarining muammolarini o'rgangan holda mavjud ilmiy muammolarni hal etish uchun dolzarb ilmiy tadqiqot ishlarini olib borildi. Shu bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan birgalikda yosh kadrlarni tayyorlash ishiga ham katta ahamiyat berilgan. Ilmiy tadqiqot ishlarini korporativ hamkorlik asosida olib borish uchun quyidagi ilmiy-texnologik muammolar mavzulari ustida izlanish olib borildi: Radioelektron qurilmalarni testdan o'tkazish va sertifikatlash; «Unicon.uz» DUK, uyali telefonlar akkumulyator batareyalarini quyoshdan samarali zaryadlash qurilmalari; «Zangori ekran» MCHJ, televizion qabul qilgichlar uchun DVB-T standarti bilan DVB-2 standartlarini moslashtirish muammosi, «Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye» markazi kabilar shular jumlasidandir.⁹³

“Радиотехник қўрилмалар ва тизимлар” кафедраси хорижий давлат oliy

⁹³ Toshkent Davlat Texnika Universiteti joriy arxivi.

ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Moskva radiotexnika, elektronika va avtomatika instituti (MIREA), Sankt-Peterburg davlat politenika universiteti, Donesk davlat universiteti, M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston Davlat Universiteti, Gollandiyaning "TVENTI" universitetlari шулар жумласидандир.

Кафедрада кейинги уйларда 2 та ixtiro patenti olinib, 30 dan ortiq xalqaro va 50 dan ortiq respublika ilmiy anjumanlarda maqolalar эълон қилинди. Kafedra профессор-ўқитувчилари 2011yil oktyabridan 2013 oktyabrigacha «Tempus Promeng» nomli va O'rta Osiyoda kasbiy ta'limni rivojlantirish "GIZ" xalqaro ta'lim loyihalarida ishtirok etib, 10 ta xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritdi.

Yevropa Ittifoqining "PROMENG" dasturi bo'yicha ilmiy uslubiy ishlar doirasida TDTUning aviasiya, elektronika va avtomatika, mexanika fakultetlari magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalari va fan dasturlariga zamonaviy avtomatlashtirilgan CAD,CAM, CAI dasturiy maxsulotlarini tatbiq qilish mo'ljallandi. Bu borada Berlin texnika universitetidan kompyuter sinfi va ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish stansiyasi olib kelindi. Yuqorida eslatib o'tilgan kompyuter dasturlarini Yevropaning yetakchi universitetlarida o'rganish trening kurslariga iste'dodli yosh o'qituvchilar yuborildi. Jihozlangan kompyuter sinfiga maxsuslashtirilgan «Altium» va «Creo» kompyuter dasturlari o'rnatildi.⁹⁴

Университетнинг “Электр таъминоати” kafedrasi Energiya ta'minoti tizimida o'zgartirish texnikasi vositalari va yangi elektr motorlar yordamida energiya ta'minotining ilmiy asoslarini, prinsiplarini va yo'llarini rivojlantirish, energiya ta'minoti rejimlarini va elektr energiya sifatini yaxshilash, Sanoat korxonalarini va shaxarlar enegiya ta'minoti tizimida energiyadan samarali foydalanish, ishlab chiqarishning asosiy jarayonlarida energiya sarf-harajatlarini kamaytirish va elektr ta'minoti tizimini optimallashtirishning yangi uslublarini yaratish

⁹⁴ Тошкент Давлат Техника Университети жорий архиви.

устида илмий-тадқиқот ишларини олиб борди. Т.ф.н., dotsent Rismuxamedov D.A., т.ф.д. Bobojonov M.Q., ass.Mavlonov J.M, ass.Tuychiev F.N., т.ф.н. dots. Rasulov A.N, т.ф.д. Xoshimov F.A., kat.o'q.Rafikova G.R., ass.Rahmonov I.U. кабилар тадқиқот ишларида фаол иштирок этди. Kafedraning ilmiy-tadqiqot ishlarida 14 ta xodim qatnashadi. Ulardan 1 nafar т.ф.д., professor., 5 nafar т.ф.н., dotsentlar,3 ta katta o'qituvchilar va 5 ta assistant эди.

Университетнинг «Gidravlika va gidroenergetika» kafedrasida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari Respublika va Xalqaro nashrlarda chop etildi. Kafedra a'zolari tomonidan so'nggi yillarda куйидаги ishlar uchun mualliflik guvohnomalari va patentlar olindi. P.K.Azimov, X.K. Tashmatov, Д.А.Маматкулов, Мухаммадиев М.М., Уришев Б.У., Жураев С.Р., Иргашев Э. каби муаллифлар бунга сазовар бўлди.

Бухоро озиқ-овқат ва енгил саноат институтида ҳам илмий-тадқиқотлар борасида ижобий ютуқларга эришди. Институт профессор-ўқитувчилари қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлашда ноанъанавий усулларни қўллаб, замонавий технологиялар ҳамда уларни амалга ошириш учун техник жиҳозлар яратиб, амалиётга тадбиқ этди. Тадқиқотчилар томонидан тавсия этилаётган технологиялар юқори самарадорликка эга бўлиб, уларда энергиянинг тежалиши билан бир қаторда қуритилган маҳсулотларнинг таркибидаги витаминлар ва ташқи кўринишининг асл ҳолати сақланишини таъминлади. Бу маҳсулотларнинг қуқунини олишга мўлжалланган янги технология ҳам жорий этилган бўлиб, қуқунлар қондитер маҳсулотларида, қонсерва саноатида, ҳар хил овқатлар ва яхна ичимликлар тайёрлашда табиий қўшимча сифатида қўлланилди.⁹⁵

⁹⁵ Туркистон, 2003. 22 май.

Мустақиллик йилларида Тошкент тўқмачилик ва енгил саноат институтида илмий-тадқиқот ишлари жонлантирилиб, катта ютуқлар қўлга киритилди. 1995 йили институт Халқаро тўқмачилик академияси, 1996 йили матбаачи олий ўқув юртлари Халқаро Ассоциацияси, 1997 йили Халқаро ипак уюшмасига аъзо бўлди. Институт олимлари Греция, Бельгия, Корея, Хитой, Россия, Германия, Англия каби давлатларнинг нуфузли олий ўқув юртлари билан фаннинг турли соҳалари бўйича ҳамкорлик қилиб келди. Истиқлол йилларида институтдан 400 дан ортиқ профессор-ўқитувчилари ва иқтидорли талабалари хорижий давлатларда ўз малакасини оширди.⁹⁶

Институтда олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари асосан буюртмалар асосида бажарилди. Илмий изланишларда хом ашё сарфини тежашнинг янги техника ва технологиялари, тўқмачилик материаллари ва маҳсулотлари янги ассортиментини яратиш, кийим ва пойафзал тайёрлашда иқлим шароитини, миллийликни, гигиена талабларини ҳисобга олишга эътибор қаратилди. Бу борада 1000 дан ортиқ буюртмалар бажарилди. Институт профессорларидан К.Эргашев, Ҳ.Алимова, Ж.Акбаров, М.Абдукаримова, А.Лугачев кабилар томонидан йирик лойиҳадаги илмий-тадқиқот ишлари бажарилиб, амалиётга тадбиқ этилди. Ж.Н.Акбаров томонидан электр ўтказувчан тола ва унинг асосида махсус тўқмалар олиш технологияси яратилди. К.Э.Эргашев эса пахта ва нитрон аралашмали импорт ўрнини босувчи янги тўқмалар олиш бўйича ихтиро қилинди.⁹⁷

Институтда илмий-тадқиқот ишларини жонлантиришда илий анжуманларнинг ўзига хос ўрни бўлди. Мустақиллик йилларида таълим муассасасида турли мавзуларда 25 дан зиёд илмий конференциялар ўтказилди. Шу йилларда 30 дан ортиқ фан докторлари, 200 га яқин фан номзодлари тайёрланди.

Институтда 2011 йили асосан 28 та мавзу бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб борилиб, шундан, 7таси фундаментал, 15 таси амалий, 4 та

⁹⁶ Жуманиязов Қ., Абдуғафоров А., Ҳайитов И., Институт олимлари. Тошкент, Давр нашриёти, 2012, Б.3-6

⁹⁷ Жуманиязов Қ., Абдуғафоров А., Ҳайитов И., Институт олимлари. Тошкент, Давр нашриёти, 2012, Б.3-6.

инновацион лойиҳалар доирасида бўлди. Ушбу илмий ишларни амлга оширишда 110 та профессор-ўқитувчи, 34 нафар илмий ходим, 28 нафар муҳандис-техник ходим ва 64 нафар иқтидорли талаба иштирок этди. 2012 йили институтда 847 млн.400 минг сўмлик илмий-тадқиқот ишлари олиб борилди.⁹⁸

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институтининг қатор кафедраларида саноатнинг турли йўналишлари бўйича илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда. Масалан, институтнинг “Кимёвий технология” кафедраси профессор-ўқитувчилари “Кимёвий технологиянинг долзарб муаммолари” мавзусида тадқиқотлар олиб бормоқда. Кафедра аъзолари 2014-2015 ўқув йилида Erasmus mundus дастури “MAT@CHES-Ўзбекистонда олий таълим муассасаларини модернизациялаш сари” мавзусидаги лойиҳасини бажаришда, Жаҳон банки, Ўзбекистон Республикаси Фонд Форум жамғармаси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Фан ва Технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси томонидан эълон қилинган амалий ва илмий тадқиқотлар лойиҳалари танловида, У111 Республика “Инновация ғоялари, технологиялар ва ишланмалар ярмаркаси”да фаол иштирок этди.⁹⁹ Кафедра доценти О.Х.Панжиев “Китоб табиий оҳақтошидан фойдаланиб калций цианамид олиш технологияси”, доцент З.Рўзиева “Маҳаллий хом-ашёдан фойдаланиб натрий нитрат ва натрий нитрат тузини олиш”, доцент С.Лутфуллаев “Полимер композицион материаллар яратиш технологияси”, т.ф.н. Ю.Хидирова “Цемент чангидан калий нитрат олиш технологияси” мавзусида илмий-тадқиқотларни олиб борди.¹⁰⁰

Шунингдек, кафедра вилоятдаги 5 та корхона билан инновацион ҳамкорлик ҳақида шартномалар имзолаган. Муборак газни қайта ишлаш заводи, Шўртангазкимё мажмуаси, Шўртаннефтгаз унитар шўъба корхонаси, Деҳқонобод калийли ўғитлар заводи, Қарши “Cotton Road” Ўзбекистон-

⁹⁸ Жуманиязов Қ., Абдуғаффоров А., Ҳайитов И., Институт олимлари. Тошкент, Давр нашриёти, 2012, Б.3-6.

⁹⁹ Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Кимёвий технология” кафедраси жорий архиви.

¹⁰⁰ Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Кимёвий технология” кафедраси жорий архиви.

Америка қўшма корхонаси шулар жумласидандир.¹⁰¹ Шу билан бирга бу ишлаб чиқариш корхоналарида Кимёвий технология кафедраси талабалари малакавий амалиётни ўтайди.

Ўзбекистонда саноат соҳаси учун кадрлар тайёрлашда университетлар ҳам катта роль уйнаб келмоқда. Масалан, ҳозирги Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети нуфузи нафақат мамлакатимизда балки жаҳонда ҳам машҳурдир. Мазкур илмий масканда иқтисодиётнинг турли тармоқларига оид илмий-тадқиқот ишлари йилдан-йилга жонлантирилиб борилди.

Мустақиллик йиллари 2000 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони билан ушбу олий ўқув юртига “Миллий университет” мақоми берилди¹⁰². Бу эса ушбу олий даргоҳнинг янада кўплаб ютуқларга эришишида муҳим роль ўйнади. Хусусан, таълим муассасасида давлат бюджетидан маблағ билан таъминланган мавзулар сони 61 та бўлиб, уларга 40 млн. сўм ажратилди. Жумладан, давлат фан ва техника дастури бўйича олиб борилаётган изланишларга 27 та грант ажратилди, уларнинг умумий қиймати 17 млн. сўм қилиб белгиланди. Инновацион грантлар эса 10 та мавзу бўйича олиб борилди ва улар ҳажми 14,8 млн. сўмдан иборат бўлди. 2001 йилда университетда 20 та хўжалик шартномаси имзоланди. Ушбу шартномаларнинг умумий миқдори 61,1 млн. сўм этиб белгиланди.¹⁰³ Жумладан “Ўзбекистоннинг Марказий ва Ғарбий қисми бўйича гравиомагнетика ва сейсмика усуллари билан олинган геофизик маълумотларни умумлаштириш”, “Минераллар ва жинсларнинг иккиламчи ион массасини спектрокопия қилиш”, “Ғарбий Ўзбекистон ва Фарғона ботиқлигидаги геофизик майдонларда геологик асосда нефт ва газ қалқонларининг моделларини аниқлаш” каби муҳим мавзуларда иш олиб борилди.

¹⁰¹ Ўша жойда.

¹⁰² С.Фуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедовларнинг “Мустақил Ўзбекистон” Тошкент. ”Ислон университети”.2003,-Б.86.

¹⁰³ Ўша жойда.

Ўзбекистон Миллий университетида 2008 йилда эса 305 млн. сўмлик хўжалик шартномалари асосида фойда кўрилди, 13 та патент олинди ва 7 та халқаро, 15 та республика миқёсидаги конференциялар ўтказилди. Профессор-ўқитувчилар ва илмий ходимлар ҳамда иқтидорли талабалар томонидан 11 та халқаро, 271 та республика, 571 та олий таълим муассасаси миқёсидаги конференцияларда маърузалар қилинди. Барча грантлар сони 115 та бўлиб, чет эл грантлари эвазига 327905 АҚШ доллари ҳажмида маблағ тушди.

Самарқанд Давлат университети ҳам Республика саноат корхоналарига кадрлар етказиб бериш ишига ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. 1992 йили университетда 1198 нафар профессор-ўқитувчи меҳнат қилган бўлса, уларнинг 69 нафари, яъни 5,7 фоизини фан докторлари, умумий салоҳиятнинг 47,8 фоизини фан номзодлари ташкил этди. Таъкидлаш лозимки, Самарқанд давлат университетида 5 нафар фан доктори 50 ёшгача бўлиб, бу кўрсаткич бўйича таълим муассасаси республикадаги энг олдинги ўринлардан бирини эгаллади.

Университетда мустақилликнинг илк даврларида саноатнинг турли ихтисосликларига оид илмий изланишлар олиб борилиб, муҳим илмий кашфиётлар қўлга киритилди. Айниқса, молекулалараро ўзаро таъсирни “Реле очилиш” услуби билан тадқиқ этишда катта ютуқларга эришилди. Олиб борилган тадқиқотлар натижаси суяқ ҳолат физикасини ривожлантириш учун фундаментал замин яратди. Академик А. Отахўжаев раҳбарлигидаги оптик спектроскопияларнинг илмий мактаби жаҳон миқёсидаги тадқиқотларни бажариш ва турли ташқи шароитларда суяқлар, газлар ва эритмаларда спектроскопик тадқиқотлар бўйича халқаро дастурларни бажаришда қўл келди.

Доцент А. Насимов раҳбарлигида газоанализаторни ишлаб чиқиш бўйича олиб борилган ишлар натижасида 5 та муаллифлик гувоҳномаси ва битта патент олинди. Бу янгиликлар Ўзбекистонда газ саноатини ривожлантиришга хизмат қилди.

1994 йилда университетда давлат маблағи билан таъминланган 30 та мавзуда илмий-тадқиқот ишлари олиб борилди. Уларнинг умумий қиймати 227,8 минг сўмни ташкил этди. Шулардан 8 та мавзу эса шартнома асосида ишланди. Айниқса “Агросаноат комплексларида юқори самарадорли, ресурслар тежаладиган, экологик хавфсиз қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш” каби мавзулар мамлакат ижтимоий-иқтисодий салоҳиятининг ошишига, мавжуд муаммоларни илмий тадқиқ этишда катта аҳамиятга эга бўлди.

Университетда ишлаб чиқилган илмий янгилик, ихтироларни ишлаб чиқаришга жорий этишда ҳам муайян ютуқларга эришилди. 1994 йилда университет бўйича 247,2 минг сўмлик 16 та илмий ишланма халқ хўжалигига жорий этилди. Бир сўм харажатнинг харид нархи 3,1 сўмни, давлат бюджетдаги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ДФТҚ томонидан маблағ билан таъминланадиган илмий-тадқиқот ишлари мавзулари бўйича 3,9 сўмни ташкил этди.

Сўнгги пайтларда вилоятлардаги олий таълим муассасаларининг илмий-тадқиқот ишлардаги иштироки ҳам кучайиб бормоқда. Бу борада Фарғона Политехника институтида ҳам қатор ибратли ишлар амалга оширилди. Мазкур тадқиқот ишларини бажаришда 385 нафар професор-ўқитувчилар ва илмий ходимлар иштирок этди. Республика Фан ва технологиялар Марказининг фундаментал ва давлат илмий-техника дастурлари асосида 2003 йилда 9 та мавзу 25,3 млн. сўмлик, 2004 йилда 7 та мавзуда 22,2 млн. сўмлик илмий-тадқиқот ишлари олиб борилди.

Хўжалик шартномалари бўйича 2003 йилда 24 та мавзуда 24 млн. сўмлик, 2004 йилда 26 мавзуда 27,2 млн. сўмлик илмий-тадқиқот ва лойиҳа-конструкторлик ишлари бажарилди. 2004 йилда жами 49,5 млн. сўмлик тадқиқотлар бажарилган. Бу институтда фаолият кўрсатаётган 1 нафар профессор-ўқитувчига ўртача 142857 сўмни ташкил қилди.

Энергетика соҳаси бўйича олиб борилган илмий-тадқиқот ишлари натижаларини ишлаб чиқариш соҳасида қўллаш маҳсулот таннархини

камайтириб, меҳнат унумдорлигини оширишга, махсулот сифатини яхшилашга олиб келди. Унинг иқтисодий самарадорлиги ҳар бир ускуна учун 800 минг сўмни ташкил этди. Яъни, сарфланган 1 сўм 100 сўм фойда келтирди. “Электр энергетика” кафедрасида олиб борилган электр энергиясини истеъмолчиларга узатиш бўйича илмий-тадқиқот ишларининг иқтисодий самарадорлиги бир подстанция бўйича ўртача 300 минг сўмни ташкил этди.

Бу борада Фарғона давлат университетида ҳам катта ишлар амалга оширилди. Университетда 2009 йилда ўртача ҳар бир профессор-ўқитувчига тўғри келадиган йиллик қўшимча даромад, яъни илмий лойиҳалар ва хўжалик шартномаларидан тушган фойда 76970 сўмни ташкил этди. Илмий-ижодий фаолиятга жалб этилган талабалар салмоғи эса 24,3 фоизга етди. Биргина 2008 йилда илмий-тадқиқотлар ҳажми 36 млн. сўмни ташкил этди.

Термиз Давлат Университетида ҳам мустақиллик йилларида кўплаб ижобий ютуқларга эришилди. Мазкур олий ўқув юрти вилоятдаги ягона олий ўқув юрти сифатида алоҳида мавқе ва обрўга эга бўлиш билан бир қаторда илм ва зиё маскани ҳамдир. Термиз давлат университетининг моддий техник базасини мустаҳкамлаш учун 38 миллиард 500 миллион сўм маблағ ажратилиб, 3 минг 500 нафар талабага мўлжалланган янги ўқув бинолари, ахборот ресурс маркази, ётоқхона ва спорт зали фойдаланишга топширилди¹⁰⁴.

Университет вилоят халқ хўжалигининг турли соҳаларига ҳар йили кўплаб мутахассислар етказиб беради. Албатта, ушбу мутахассисларни тайёрлаш учун университет улкан илмий салоҳиятга эга булиб, унинг 13 та факультет, 55 та кафедрасида 450 дан ортиқ профессор-ўқитувчилар хизмат қилди¹⁰⁵. Агар истиқлол арафасида, яъни 1990-1991 ўқув йилида вилоятда 1 та олий ўқув юрти — М. Т. Ойбек номидаги Термиз Давлат педагогика институти фаолият кўрсатиб, унда жами (ҳам кундузги, ҳам сиртки

¹⁰⁴ Ўзбекистон овози.2013.21 декабр.

¹⁰⁵ Турсунов С. Қобилов Э. Муртазоев Б. Пардаев Т. Сурхондарё тарихи.Т.”Шарқ”.2004.-Б.531.

бўлимларда) 7167 талаба таҳсил олган бўлса, 1991-1992 ўқув йилига келиб ушбу олий даргоҳда таълим олаётган талабалар сони 7811 тага етди.

Мустақиллик йилларида университет олимларининг фаннинг турли соҳаларида амалга оширган тадқиқотлари самарали бўлди. Бу даврда хорижий давлатларнинг олимлари билан ҳамкорлик ҳам йўлга қўйилди. 1993 йили Голландияда Н. Тураев ҳаммуаллифлигидаги «Теория рассеяния атомов средних энергий поверхностью твердого тела» номли монография инглиз тилида чоп этилди. Профессорлардан Ж. Холмўминовнинг «Экологоправовые проблемы использования орошаемых земель в Республике Узбекистан», Э. Й. Тўраевнинг «Аморф ва суюқ ярим ўтказгичлар ҳақида», Х. Х. Тўраевнинг «Закономерности трансвлияния в комплексных соединениях кобальта» номли монография ва ўқув қўлланмалари нашр қилинди¹⁰⁶.

Юқоридагилардан шундай хулоса қилиш мумкинки, мустақиллик йилларида Олий таълим муассасаларининг илмий салоҳияти ортиб борди. Агар 1991 йилда бу рақам олий таълим муассасаларида 41 фоизни ташкил этган бўлса, 2009 йилга келиб, 50 фоизга етди. Давлат грантлари асосида ишлаш тизими такомиллашди, қатор илмий янгиликлар ишлаб чиқаришга жорий этилди.

Хуллас, мустақиллик йилларида саноат йўналишидаги олий таълим муассасалари ўқув-тарбия ишларини илмий-тадқиқот ишлари билан биргаликда олиб бориб, катта ютуқларга эришди. Техника йўналишидаги таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари илм-фан соҳасида хорижлик мутахассислар билан яқиндан ҳамкорлик қилиб, жаҳон тажрибасининг илғор ютуқларидан самарали фойдаланиб келди. Бу илмий масканлар орасида айниқса, Тошкент Давлат Техника университети профессор-ўқитувчиларининг фаолияти диққатга сазовор бўлди.

¹⁰⁶ Турсунов С. Қобилов Э. Муртазоев Б. Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. Т. "Шарқ". 2004. -Б.533.

3.3. Саноат кадрлари тайёрловчи таълим муассасаларининг хорижий давлатлар билан ҳамкорлиги

Ўзбекистон мустақиллик йилларида турли соҳаларда қўлга киритаётган ютуқларида кадрларнинг ўрни беқиёсдир. Шу боис, бу даврда Республикада кадрлар тайёрлаш иши давлат аҳамиятига молик вазифалар сарасига киритилиб, соҳа ривожини таъминлаш чора-тадбирлари узлуксиз кўриб борилди.

Ўзбекистондаги саноат корхоналари жаҳон андозаларига мос маҳсулот ишлаб чиқариш йўлида тинимсиз изланиш олиб бориб, катта ютуқларни қўлга киритилди. Ушбу омил Республикада саноат кадрларини тайёрлаш ўқув муассасалари олдига мураккаб вазифаларни кундаланг кўйди. Бу турдаги ўқув муассасалари давр талабидан келиб чиқиб, хориж технологиялари билан эркин ишлай оладиган мутахассисларни тайёрлашга кучли аҳамият бермоқда. Бунда айниқса хорижий мамлакатлар билан ҳамкорлик муҳим роль ўйнайди.

3-yo'nalish. «Yangi mahalliy reagentlarni qo'llab, rudalardan rangli metallarni ajratib olish unumdorligini oshirish».

Kafedradan ushbu yo'nalishda dots.I.K.Umarova rahbarligida ilmiy tadqiqotlar kafedra laboratoriyalarida hamda hamkorlikda "Mineral resurslar ilmiy-tadqiqot instituti" DK "Asl, rangli va qora metallarni boyitish laboratoriyasi"da laboratoriya boshlig'i dots.X.Axmedov rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu

yo'nalishda keying 3 yilda 20 dan ortiq maqolalar ilmiy jurnallarda va xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar to'plamlarida chop etilgan.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kafedra yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha fanlardan 1 ta darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, tajriba va amaliy ishlaridan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar, kurs ishi va loyihasini hamda malakaviy bitiruv ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini bajarish uchun qo'llanmalar, JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'qitish jarayoniga yangi informasion va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, EHMLardan foydalanilmoqda. «Aqliy hujum», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy, tajriba mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy anjurnallarida chop etilmoqda.

Kafedra

tarixi:

«Foydali qazilma konlarini qidirish va izlashning geofizik usullari» kafedrasi 1944 yil O'rta Osiyo industrial instituti qoshida tashkil etildi. Dotsent P.A.Shextman kafedraga rahbarlik qilib, uni oyoqqa turishida o'z xissasini qo'shgan.

Kafedraga turli yillarda mudirlik qilganlar: dotsent A.G.Karelin (1946-1958), dotsent B.U.Urazaev (1958-1960, keyin QoZPI da kaf.mud va professor), dotsent B.B.Kuznestov (1960-1963), dotsent N.F.Shevchenko (1963-1973), dotsent S.X.Xamidov (1973-1976), dotsent E.I.Surgutanov (1976-1991), dotsent A.A.Yuldashev (1991-1994), professor F.X.Zunnunov (1994-1995), g.m.f.d. X.I.Yusupxodjaev (1995-2000), dotsent T.K.Xodjaev (2000-2002), akademik Q.N.Abdullabekov (2002-2007).

Kafedra tashkil etilgandan buyon 2000 ortiq injener-geofiziklar tayyorlandi. Ular shu kungacha ilmiy –izlanish institutlarida, ishlab chiqarish korxonalarida va respublikamizda va undan tashqaridagi yaqin va uzoq chet el firmalarida ishlab kelmoqdalar.

Kafedra bitiruvchilari tomonidan rangli va nodir metallar, neft va gaz, yer osti suv konlari, radioaktiv elementlarning yirik konlari ochilgan.

Kafedra bitiruvchisi (1952) **Yu.MordvinsteV** Muruntau oltin kononi ochgani uchun Lenin mukofotiga sazovor bo'lgan.

Kafedra bitiruvchisi (1956) **Г.И.Аванесьянц** uran koni xududida nodir metallar konini ochgani uchun Beruniy davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Kafedra bitiruvchisi (1953) **Э.Ф.Уваров** O'rta Osiyoda radioaktiv elementlar konini ochgani uchun davlat mukofotiga xizmat ko'rsatgan geology unvoniga sazovor bo'lgan.

Ko'pgina bitiruvchilar raxbar lavozimida ishlaganlar va ishlab kelmoqdalar (G.I.Avanesyants, B.A.Bondarenko, Sh.A. Dolatkazin, V.A.Klichnikov, G.V.Koshlakov, N.Ya.Kunin, B.R.Yumanov, V.N. Balashev,A.N.Balashev, E.F. Uvarov V.I.Ulomov, N.G.Degtyarev, L.V.Kvasova, B.M. Urazaev, A.G.Xvalovskiy, A.A.Akramov, X.X.Inogamov, Yu.M.Kuznetsov, K.S. Kumarov, B.A.Xarikov, A.V. Kirshin, K.N.Abdullabekov, L.A.Sim, G.A.Mojina, N.K.Roz va b.)

Ko'pgina bitiruvchilar nomzodlik va doktorlik dissertastiyalarini himoya qilganlar (V.Z.Fursov, B.M.Urazaev, N.Ya.Kunin, F.X.Zunnunov, V.I.Ulomov, L.I.Kogan,

A.V.Kirshin, K.N.Abdullabekov, S.X..Maksudov, X.I.Yusupxodjaev,
O.P.Mordvintsev, R.A.Umurzakov va b).

Respublikamiz Prezidentining 2007 yil 17 yanvardagi 568 qaroriga muvofiq 2008-2009 o'quv yilidan boshlab, «Gidrogeologiya va injenerlik geologiya» yo'nalishi tiklandi va bu yo'nalishga 25 ta talaba qabul qilindi. 2012-2013 o'quv yilida "Gidrogeologiya va muxandislik geologiyasi" yo'nalishiga 40 ta talaba qabul qilindi.

Kafedraning korxonalar bilan xamkorlik aloqalari:

- ❖ "GIDROINGEO" instituti
- ❖ O'zR FA "Seysmologiya" instituti
- ❖ "Geologiya va gidromineral resurslar" IICHM DK
- ❖ "Geologik xavfli jarayonlarni kuzatish" Davlat xizmati
- ❖ "UZGASHKLITI" DUK
- ❖ "Geologiya va geofizika" instituti
- ❖ NGMK "Uran va nodir metallar" IICHM

Kafedraning ishlab chiqarish korxonalari, O'zR FA tarmoq institutlari, akademik liseylar va kollejlardan bilan aloqalar va hamkorlik shartnomalari mavjud.

Kontingent: Kafedra mudiri, 1 ta professor, 3 ta dotsent, 5 ta katta o'qituvchisi, 2 ta assistent, 7 ta o'quv yordamchi xodim, ilmiy salohiyat 50 %, o'rtacha 49 yosh.

Talabalarning umumiy soni:

2014-2015 o'quv yilida GKIF da "Gidrogeologiya va geofizika" kafedrasida 5311800 - "Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi" yo'nalishi bo'yicha 152 nafar , 5311700 – "Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv razvedkasi" yo'nalishi bo'yicha 47 nafar talaba o'qiydi. Magistratura 2 ta mutaxassislikda 7 nafar talaba tahsil oladi.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:

Kafedrada quyidagi 3 yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

❖ **yo'nalish.**

«Lyoss tog' jinslarining injener-geologik xususiyatlari» Lyoss tog' jinslarining injener-geologik xususiyatlari bo'yicha meyoriy ko'rsatgichlar ishlab chiqiladi. Qurilishdagi meyoriy hujjatlarga o'zgartirishlar taklif etiladi. 1 ta monografiya, 6 ta ilmiy maqola yozildi. (ilmiy rahbar dotsent g.m.f.n. Adilov A.A.).

❖ **yo'nalish.**

Talabalarni mustaqil ishi-munosib kadrlarni tayyorlashni zaruriy bo'lagi Mazkur yo'nalishda 1 ta o'quv qo'llanma, 15 dan ortiq ilmiy maqola tayyorlangan. (ilmiy rahbar katta o'qituvchi Antonets A.G.).

❖ **yo'nalish.**

«Yashirin konlarni qidirish maqsadida yuqori samaradorli geofizik va geoximik usullar kompleksini yangi avlodini ishlab chiqish(yaratish)» Mazkur yo'nalishda 10 dan ortiq ilmiy maqola chop etildi. (ilmiy rahbar g.m.f.n. dotsent YUusupov R.YU.).

Amaliy

loyiha

❖ **ITD-14-09. Otsenka vliyaniya vodno-solevogo rejima gruntov na osnovaniya transportnyx soorujeniy i razrabotka ix ustoychivyx konstruksiy.** Mazkur yo'nalishda 3 ta o'quv qo'llanma, 2 ta uslubiy qo'llanma, 3 ta monografiya, 20 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi, 2 ta bitiruv malakaviy ishi, 1 ta magistrlik dissertatsiyasi, 1 ta patent olindi, ikkinchi patentga

so‘rovnoma topshirildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalaniladigan texnik vositalar

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan «Injenerlik geodinamikasi» fani bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalari, ma‘ruza matnlari, tajriba va amaliy ishlaridan o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar, hisob-grafik ishlarini bajarish uchun ko‘rsatmalar, kurs loyihasini va malakaviy bitiruv ishlarini bajarish uchun qo‘llanmalar, JN, ON va YaN bosqichlarini o‘tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan.

O‘qitish jarayoniga yangi informasion va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, EHMLardan foydalanilmoqda. «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy, tajriba mashg‘ulotlarida va ma‘ruzalarda qo‘llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda.

Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o‘qituvchilari tomonidan bir necha monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, amaliy va tajriba mashg‘ulotlari uchun uslubiy ko‘rsatmalar va 50 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko‘plab manbalar, darslik, o‘quv qo‘llanmalarning elektron versiyalari kiritildi.

Takomillashgan Davlat ta‘lim standartlari talablariga asosan kafedrada

o'qitiladigan «Gruntsunoslik» fanidan namunaviy o'quv dasturlari tayyorlandi va test nazorati uchun variantlar tuzildi.

dra

tarixi:

«Konchilik elektr mexanikasi» kafedrası 1920 yildan Turkiston davlat universiteti tarkibida faoliyatini boshlagan va professor M.M.Protodyakonov ixtisoslik hamda kafedra sifatida oliy texnika ta'limi tizimiga birinchi bor kiritgan edi. O'rta Osiyo industrial instituti qoshida ham konchilik ixtisosliklari va kafedralari qatorida konchilik elektromexanikasi O'quv darsi va ixtisoslik mavjud bo'lib, faqat mustaqil kafedra sifatida hali ajratilmagandi. Mazkur mutaxassislik muhandislariga talab-ehtiyoj birmuncha oshganligini inobatga olib, 1944 yilda «Konchilik elektromexanikasi» mustaqil kafedrası tashkil etildi va Uning birinchi mudiri bo'lib Ukraina fanlar akademiyasining haqiqiy A'zosi V.S.Pak ishlay boshladi. Keyinchalik Bu lavozimni dotsent K.F.Sevryugin egalladi. 1953 yildan 1958 yilgacha mazkur kafedraga O'zbek xalqining atoqli farzandi, faxri sifatida tanilgan Iqtidorli olim, birinchi konchilik elektromexanikasi bo'yicha o'zbek mutaxassisi, konchilik fakultetining dekani Xokim Maxsudovich Maqsudov rahbarlik qilgan edi. Elu-yurt samimiy hurmat-extiromini qozongan bu hurmatli insonning bevaqt vafotidan so'ng «Konchilik elektromexanikasi» kafedrasida birin-ketin dotsentlar U.A.Isamuxamedov, O.V.Xoroshev, Ye.K.Kerri mudirlik vazifasini bajarib turishdi. 1964 yildan kafedraga «Kon ishlarini avtomatlashtirish va kon mexanikasi» nomi berildi va 1973 yilda unga dotsent Latif Shomansurovich Shoxo'jayev mudir etib saylandi. 1975 yilda u ikkiga ajratilib, biriga «Kon-transport mashinalari va kon mexanikasi» (mudir - L.SH.Shaxodjayev), ikkinchisiga esa «Kon ishlarini elektrlashtirish» (mudir - V.G'.Polvonov, 1992-1996 yillarda - Sh.G'.Nasritdinov) nomi berildi. «Kon-transport

mashinalari va kon mexanikasi» kafedrasiga 1985 yilda dots. Gayrat Miraximovich Mirsaidov mudir etib saylanadi. U mudirlik qilgan davrda (1985-1991yy.) kafedrada Ilmiy ishlar bevosita ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq boʻlib xoʻjalik shartnomalari asosida olib borilgan. Oʻquv jarayonida oʻquv uslubiy komplekslarni joriy qilish ishlari jadallashtirilgan. 1991 yildan 1996 yilgacha kafedraga dots. Abdirauf Sodiqov mudirlik qilgan. Lekin, 1996 yilning oktyabrida har ikala kafedra yana birlashtirilib, «Konchilik elektromexanikasi» kafedrasini vujudga keltirildi va dotsent Shaxobiddin Gʻiyosiddinovich Nasritdinov mudirlikka saylanib, bu lavozimni uning vafotidan soʻng 1998 yildan dotsent A.Sodiqov oʻz zimmasiga olib, kafedraga rahbarlik qildi. 2001 -2002 yillarda dotsent Gʻ.Mirsaidov, 2002-2004 yillar dots. Usmonjon Inamov, 2004-2006 yillari dots. Latif Shomansurovich Shaxodjayev, 2006-2008 yillarda professor Nurali Berdiyarovich Pirmatov, 2008-2009 yillarda dots. Gʻayrat Miraximovich Mirsaidov va 2009-2014 yillarda Toʻlqin Jovbekovich Annaqulov 2014 yildan hozirgacha kafedraga texnika fanlari nomzodi, dotsent Toshov Javoxir Buriyevich mudirlik qilib kelmoqda. Oʻtgan tarixiy davr mobaynida ushbu ixtisoslikni 3 mingdan ortiq kishi bitirib chiqqan boʻlib, ular orasida mamlakatimizda va uning tashqarisida ham tanilgan davlat va jamoat arboblari, yuqori lavozimlarda xizmat qilayotgan rahbar xodimlar, iqtidorli olimlar juda koʻp. Bu bilan kafedra jamoasi xaqi ravishda faxrlanadi. «Konchilik elektromexanikasi» kafedrasini Oʻzbekiston xalq xoʻjaligi uchun oʻta zarur boʻlgan konchilik, geologiya-qidiruv, metallurgiya sohalari va ular korxonalarini oliy malakali konchilik elektromexanikasi mutaxassislari bilan taʼminlab turadigan oliy texnika taʼlimi maskanidir. Shuning uchun ham kafedra professor-oʻqituvchilari bu soha noyob mutaxassislari tayyorlash sifatini yuksak darajaga koʻtarish maqsadida tayyorlab nashr etayotgan oʻquv-uslub qoʻllanmalari, maʼruzalar toʻplamlari,

ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan soha mutaxassisleri uchun ham zarur nazariy-amaliy kamolot manbai bo'lib hizmat qilmoqda. Kafedraning o'quv-tajriba xonalari hozirgi zamon asbob-uskunalari, texnika-texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, barcha xonalarda o'rnatilgan tajriba dastgohlari yo'nalish talabalari va professor-o'qituvchilari jamoasi tomonidan yaratilgan. Undagi zarur texnik vositalar bilan jihozlangan maxsus o'qitish xonasi va kurs ishlari, diplom ishlari xonalari Zamonaviy turdagi elektron hisoblash mashinalari ta'lim tizimida to'la foydalaniladi hamda katta samaralar keltiradi. O'zbek tilida o'quv-uslub adabiyotlarini tayyorlab chop ettirish ishiga asosiy diqqat-e'tibor qaratilgan bo'lib, shu kungacha konchilik elektr mexanikasi yo'nalishi bo'yicha maxsus o'quv qo'llanmasining uchta qismi va yana birnecha o'quv-uslub adabiyotlari o'zbek tilida bosmadan chiqarildi. «Konchilik elektromexanikasi» kafedrasining professor-o'qituvchilari muntazam tarzda davlat buyurtmasi va xo'jalik shartnomalari asoslarida muhim ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Uning asosiy yo'nalishlari konchilik korxonalarining elektromexanik qurilmalari ishonchliligini oshirishga, asosiy energetik ko'rsatgichlar samaraliligini ko'tarishga, elektromexanik qurilmalarni ishlatishga va ularga hizmat ko'rsatishda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular bo'yicha o'nlab xo'jalik shartnomalari hozirgi kunda bajarilgan va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalari ishlab chiqarishga joriy etilgandir.

Kafedraning	xalqaro	aloqalari:
❖ Moskva davlat konchilik universiteti		(Rossiya);
❖ Milliy konchilik universiteti		(Ukraina);
❖ Ural davlat konchilik universiteti		(Rossiya);

- ❖ Sankt-peterburg davlat politexnika universiteti (Rossiya);
- ❖ Turin politexnika instituti (Italiya);
- ❖ D.A. Kunayev nomidagi konchilik instituti (Qozog‘iston);
- ❖ Frayburg konchilik akademiyasi (Germaniya);
- ❖ Moskva geologiya-qidiruv akademiyasi (Rossiya);
- ❖ Qirg‘iziston davlat texnika universiteti (Qirg‘iziston);
- ❖ Xarkov politexnika instituti (Ukraina);
- ❖ Konchilik ishi va konchilik texnologiyalari instituti (Qirg‘iziston);
- ❖ O‘zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti;
- ❖ Toshkent avtomobil yo‘llari instituti;
- ❖ Toshkent temir yullari muxandislari instituti;
- ❖ Toshkent kimyo-texnologiya instituti;
- ❖ Navoiy davlat konchilik instituti;
- ❖ Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

2014 yilda "Sandvik" (Finlandiya) va "Atlas Copco" (Shvetsiya) kompaniyalarining O'zbekistondagi vakolatxonalarini bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. Natijada 2 ta ukuv auditoriyalari zamonaviy o'quv jihozlari (darslik, o'quv-uslubiy va ko'rgazmali materiallar, ma'lumotlar kataloglari, elektron prezentatsion materiallar, animatsion va videofilmlar) bilan jihozlandi.

Kafedraning ishlab chiqarish korxonalarini, O'zR FA tarmoq institutlari, akademik litseylar va kollejlari bilan aloqalar va hamkorlik shartnomalari mavjud.

Kontingent: 117 ta talaba.

Talabalarning umumiy soni: 2013-2014 O'quv yilida Bakalavriat

yo'nalishi bo'yicha 63 nafar va magistratura mutaxassisligi bo'yicha 5 nafar bitiruvchi bitirgan.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:

Kafedrada quyidagi 3 yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

❖ yo'nalish.

«Ochiq konchilik ishlarida portlatiluvchi quduqlarni Burg'ulashda sharoshkali va kombinatsiyalashgan dolotalarni konstruksiyalashning ilmiy asoslarini yaratish».

Burg'ulash qudug'i zaboyi tekisligida imitatsiya qilish sharoitida tog' jinslarining kuchlanganlik va zuriqqanlik holatini va tog' jinslarini maydalovchi asbob ishchi a'zosining o'zaro ta'sirida nazariy tadqiq qilish; Tog' jinslarini maydalovchi asboblari ishchi a'zolari ishining kinetikasini nazariy tadqiq qilish, ularning quduq zaboyi tekisligida tog' jinslariga kontakti va botib kirish parametrlarining kinetik qonuniyatlarini aniqlash; Yangi namunadagi sharoshkali va kombinatsiyalashgan dolotalarning kinetik pasportlari tuzishni ta'minlovchi tog' jinslarini maydalash asboblarining ishi algoritmi blok sxemasi yaratish; Yuqori samarali sharoshkali va kombinatsiyalashgan dolotalarni konstruksiyalash va yaratishning texnik hujjatlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga tadbiiq etish. (ilmiy rahbar t.f.n., dots. Toshov J.B.).

❖ yo'nalish.

«Daugiztau karerida Davriy - uzluksiz texnologiyani (avtomobil-konveyer transporti) qo'llash samaradorligini baholash».

Daugiztau karerining kon -.geologik va kon- texnik sharoitlarini o'rganish. Zamonaviy chuqur karerlarda davriy-uzluksiz transport tizimini qo'llashni qisqacha tahlili; Daugiztau kareri ichida va karer sathida davriy-uzluksiz

transport trassasini belgilashni texnik imkoniyatlarini tahlil qilish. Karerda maydalovchi-qayta yuklovchi kompleksning qaysi gorizontlarga oʻrnatish joyini tanlash. Davriy-uzluksiz texnologik majmua Mashina va uskunalarning turlarini tanlash va ularni hisoblash; Daugiztau konini qazib olishning davriy-uzluksiz texnologiyasining samarador tizimini qoʻllashni tavsiya qilish va texnik yechimlarini ishlab chiqish (ilmiy rahbar t.f.n., dots. Mirsaidov G'.M.).

❖ yoʻnalish.

Zarmitan yer osti koni chuqur gorizontlari Yuklash-tashish va transport mashinalrining qoʻllanilish samaradorligini asoslash. Yuklash-tashish ishlariga kon-geologik va kon texnik sharoitlarning bogʻliqligini aniqlash, yuklash-tashish mashinalarining transport mashinalar unumdorligiga bogʻliqligini aniqlash metodikasini ishlab chiqish, konning shamollatish semasiga oʻzgartirish kiritmasdan, yuk oqimlarini kon lahimlari boʻyicha taqsimotini aniqlashmetodikasini ishlab chiqish, pastki gorizontlardan foydali qazilmalarni tashishda qoʻllanitlayotgan oʻziyurar va transport mashinalarning texnik imkoniyatlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish (ilmiy rahbar t.f.n., dots. Shaxodjayev L.Sh.). 2013 yil kafedra assistenti Baratov B. "Zarmitan yer osti koni chuqur gorizontlari yuklash-tashish va transport mashinalrining qoʻllanilish samaradorligini asoslash" loyihasi bilan ishtirok etib, "Yosh olimlarning eng yaxshi innovatsion loyixasi" nominatsiyasi boʻyicha 1-oʻrinni egalladi va hukumatimizning faxriy yorliqlari va sertifikatlari hamda 2 kurs magistranti Ergashev R. faol ishtiroki uchun fan va texnologiyalarni rivojlantirish qoʻmitasining faxriy yorligʻi bilan mukofotlandi.

**Ilmiy-tadqiqot ishlarning natijalari asosida yaratilgan texnik
ishlanmalar**

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari, Ma'ruza matnlari, tajriba va amaliy ishlaridan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, kurs loyahasini va malakaviy bitiruv ishlarini bajarish uchun qo'llanmalar, JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'qitish jarayoniga yangi informasion va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, EHMLardan foydalanilmoqda. «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy, tajriba mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda. Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari, amaliy va tajriba mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalar va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko'plab manbalar, o'quv qo'llanmalarning elektron versiyalari kiritildi.

arixi:

"Marksheyderlik ishi va geodeziya kafedrası" 1972 yilda "Turkiston davlat

universitetida" "Geodeziya" kafedrasini nomi bilan asos solingan. 1930 yildan boshlab kafedra Geologiya qidiruv va konchilik industrial instituti va Politexnika institutlari tarkibida bo'lgan. Kafedra tashkil etilgandan to 1962 yilgacha unga professor N.I. Lebedinskiy rahbarlik qilgan. U kon muhandislarini tayyorlashda va kafedraning o'quv - uslubiy ishlarini bajarishda nihoyatda katta ishlarni amalga oshirgan. Konchi muxandis kadrlarini tayyorlashdagi xizmatlari uchun prof. N.I. Lebedinskiyga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni berilgan.

1963 yildan 1968 yilgacha kafedrani geodeziya sohasida katta tajribaga ega bulgan yirik mutaxassis dotsent V.A. Kolibaev boshqargan. 1968 yilda Toshkent Politexnika institutida "Marksheyderlik ishi" kafedrasini barpo etildi. Kafedrani tashkil qilish va konchi muhandis-marksheyderlarni tayyorlashda texnika fanlari doktori, akademik V.R. Rahimovning xizmatlari katta bo'lgan. U kafedra ochilgandan to 2010 yilgacha shu kafedraga rahbarlik qilgan.

Kafedra oldida O'rta Osiyoda ilk bor muhandis-marksheyderlarni tayyorlash vazifasi qo'yilgan edi. Shu bois, konchi – muhandis marksheyderlarni tayyorlashga yo'naltirilgan katta tashkiliy va o'quv - uslubiy ishlar amalga oshirilgan.

1973 – yilda konchi - muhandis marksheyderlarning 1 chi qaldirg'ochlari diplom loyihalarini himoya qildilar. Kafedra tashkil etilgandan hozirgi kungacha 1200 dan ortiq yaqin mutaxassislar tayyorlangan bo'lib, ularning hammasi ilmiy tekshirish va loyihalash institutlarida, konchilik va geologiya qidiruv sanoatining korxonalar va tashkilotlarida, metropoliten qurilishida, va boshqa yer osti inshootlarini qurilishida ishlamoqdalar. Kafedra bitiruvchilari bugungi kunda yirik korxonalar, rudnik, shaxta qurilishi tashkilotlarida rahbar va bosh mutaxassis lavozimlarida faoliyat yuritmoqdalar. Shulardan biri Navoiy kon - metallurgiya kombinati bosh marksheyderi Sh. Sadinov, Tojikiston energetika vaziri S. Rahimov, Tojikiston Respublikasi bosh vazirning o'rinbosari Azim Ibrohim KOO "MongolRostsvetmet" bosh marksheyderi M.M. Axmedov, Sredazvzrivprom korxonasi rahbari Tojiyev M., Spestroy korxonasi boshlig'i Oqilov F., O'zyo'lqurilish loyihalash va ilmiy tadqiqot instituti direktori Nosirov K.,

Evrosement kompaniyasi bosh marksheyderi Davidenko I. va boshqalar.

MDX davlatlaridagi metro qurilishi bo'yicha tashkilotlarini marksheyderlar bilan ta'minlashda ham kafedraning xissasi nihoyatda katta. jumladan Moskva va Qozon shaharlaridagi metro qurilishidagi marksheyderlarning asosiy tarkibini kafedra bitiruvchilari tashkil etadi.

Kafedrada maxsus fanlar bo'yicha o'quv va o'quv - uslubiy ishlarni bajarishda V.A. Kalibaev, L.G. Vaysberg, L.L. Kim, Sayyidqosimov S.S., F.F. Aflyatunov, O.N. Proshlyakov, L.D. Ershova, G.S Kutumova, D.I. Mingbaevlar faol ishtirok etishgan Kafedrada shuningdek uzoq muddat dotsentlar P.A. Rostonovskiy, L.S. Samoylenko, S.P Shagalov, I.I Inogamov, E.A. Mansurov va boshqalar ishlagan.

Kafedrada marksheyderlik ishi, geodeziya va asbobsozlik, fotogrammetriya, geomexanika laboratoriyalari mavjud bo'lib, ular zamonaviy asboblardan -elektron nivelir va taxeometrlar, lazer ruletkalari va "Leica"(Shveytsariya) asboblari bilan jihozlangan.

Kafedrani Respublikamizning yetakchi loyihalash va ilmiy-tadqiqot insitutlarida filliallari bo'lib, u yerda korxonada xodimlari maxsus fanlardan dars beradilar.

Kafedra o'qituvchilari tomonidan o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish bo'yicha katta ishlarni amalga oshiryaptilar. Bugungi kunda NKMK, OKMK, "O'zbekko'mir" Aksiyadorlik Jamiyatlari va boshqa korxonada tashkilotlari bilan amaliyot olib borish uchun shartnomalar tuzilgan.

Kafedrada oliy ma'lumotli bakalavrlar va magistrnlarni tayyorlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy kadrlarni tizimli tayyorlash tashkil qilingan bo'lib, 39 ta nomzodlik dissertatsiyalari va 4 ta doktorlik dissertatsiyalari kafedra tadqiqotchilari va qo'shni davlatlardan kelgan yosh olimlar tomonidan yoqlangan. So'nggi yillarda fakultet va kafedra tadqiqotchilari SH.Muxitdinov, M. Djaborov, I.Murzaykin, M.Maxmudovlar tomonidan nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan bo'lib, ularning asosini kafedra tomonidan bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot va xo'jalik shartnomalari maqomidagi ilmiy – tadqiqot ishlari natijalari tashkil

etgan.

Akademik V.R.Rahimov tomonidan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan: "Ruda konlarida kon bosimini dinamik hosil bo'lish xavfini kamaytirish va kon zarbasi xavfini baholash", "Karyer yon devori (borti) va chiqindi ombori dambasi ustuvorligini kompleks baholash uslubini yaratish (ishlab chiqish)", "Dinamik konditsiya asosida foydali qazilmalarni boyligini to'liq va sifatli qazib olinishini kvalimetrik baholash uslubini yaratish", "Qazilma boyligini yer osti va kombinatsiyalashgan usulda qazib olishda karyer ruda oqimi sifatini portlatish ishlari innovatsion texnologiyasini tadqiq etish va massiv geomexanik jarayonini tadqiq qilish asosida oshirish".

Ilmiy izlanishlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

❖ Muruntog', Qalmoqqir kabi konlarda kon ishlarini olib borishni xavfsizligini ta'minlovchi yirik karer va ag'darmalar bortini (yon devorini) ustuvorligini kompleks baholash.

Tadqiqot natijalari PROMNIITEXNOLOGIYA va GIDROTSVETMET loyihalash tashkilotlari tomonidan Qalmoqqir va Muruntau karierlarini rekonstruktsiya qilish va kengaytirish loyihasida qo'llanilgan.

❖ Dinamik konditsiyani qo'llash asosida georesurslarni kompleks va to'liq qazib olishlari yo'lga qo'yilgan.

Olingan natijalar Olmaliq ruda koni maydonidagi konlari misolida kelib chiqishi bo'yicha tabiiy va texnogen bo'lgan konlar zahirasini o'sishi va georesursdan nisbatan samarali foydalanishni ta'minlashga imkon berdi.

❖ Juft pog'onalarni qo'llash asosida portlatish bilan parchalash innovatsion texnologiyani tadqiq etish. "M" karyerda ishlab chiqilgan texnologiya maydalash bosqichida va flotatsiya oldi jarayonida energetik sarf-xarajatni kamaytirishga, shuningdek, portlatish ishlarini olib borishda zaxarli gazlarni ajralib chiqishini kamaytirish hisobiga ekologik muhitni sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

❖ OKMK AJ korxonalarini suyuq chiqindi omborlari dambasini geomexanik

holatini kompleks baholash.

Zamonaviy geodezik – marksheyderlik texnologiyalarni qo'llash asosida bajarilgan tadqiqot natijalari Rossiya Federatsiyasining MEXANOBR instituti tomonidan chiqindi omborlarini rekonstruktsiya qilish va ulardan xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan loyihalarda qo'llaniladi.

❖ Respublika ko'mir sanoati uchun qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, samarador texnologiyalarni qo'llash uchun tavsiyalar berilgan. Ularni tadqiq qilish oqibatida ko'mirni ishlab chiqarish holatini barqarorlashga erishildi. Balansdan tashqari zaxiralarni qazib olish texnologiyasini Angren koni "Naugarzan" uchastkasida tadqiq etish oqibatida, 3 mln. tonna ko'mir qazib olishga erishilib, iqtisodiy samarasi 20 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

❖ Respublikadagi 5 dan ortiq oltin konlarini geomexanik holati kompleks tadqiq olib, kon bosimini paydo bo'lish va kon zarbasini paydo bo'lish chuqurliklarini asoslashga imkon yaratildi.

❖ Konlarni aralash tizimda qazib olishda geomexanik jarayon qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. U chet el tajribalarining tahlilini o'tkazish va umumlashtirish, joydagi o'lchash ishlarini, optik - polyarizatsion uslubida fizik modellashtirish va zamonaviy kompyuter dasturlari asosida matematik modellashtirishni o'z ichiga oladi.

Kafedra hodimlari tomonidan 4 ta monografiya, 600 dan ortiq maqolalar markaziy va respublika ilmiy-texnik nashrlaridachop etilgan. Shuningdek 20 dan ortiq maxsus fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar chop etilgan. 40dan ortiq uslubiy ishlar bajarilgan. Kafedraning professor- o'qituvchilari yaqin va uzoq chet el davlatlarida o'tkazilayotgan halqaro simpozium va konferentsiyalarda doimiy ravishda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Kafedraning yosh o'qituvchilari, doktorantlari va talabalari universitetda va boshqa oliygohlarda uroshtirilayotgan xar yillik yosh olimlar konferentsiyasida faol ishtirok etib keladilar.

Kafedra imzolangan shartnomalar asosida chet eldagi turdosh kafedralar, konchilik va marksheyderlik ishi yirik ilmiy markazlar bilan, Qozog'iston milliy universiteti, Qaraganda davlat texnika universiteti, Ural konchilik akademiyasi, Frayberg konchilik akademiyasi, Moskva davlat konchilik universiteti Ekologiya va Xavfsizlik fanlari Xalqaro akademiyasi va boshqalar bilan doimiy aloqa bog'lab turadi.

Kafedraning xalqaro aloqalari:

❖ Milliy tadqiqot texnologik universiteti - Moskva konchilik instituti (Rossiya);

❖ Milliy konchilik universiteti (Ukraina);

❖ Ural davlat konchilik universiteti (Rossiya);

❖ Sankt-Peterburg davlat texnika universiteti (Rossiya);

❖ Turin politexnika instituti (Italiya);

❖ D.A. Kunayev nomidagi konchilik instituti (Qozog'iston);

❖ Moskva geologiya-qidiruv akademiyasi (Rossiya);

❖ Rossiya xalqlar do'stligi universiteti;

❖ Qirg'iziston davlat texnika universiteti (Qirg'iziston);

❖ Konchilik ishi va konchilik texnologiyalari instituti (Qirg'iziston);

❖ Navoiy davlat konchilik instituti;

❖ Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

Kontingent: Professor va o'qtuvchilar 14 ta.

Talabalarning umumiy soni: Hozirgi kunda "Marksheyderlik ishi va geodeziya" kafedrasida bakalavriat yo`nalishida 283 ta talaba, magistraturada yo`nalishida 6 ta magistr tahsil oladi.

riat:

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:

Kafedrada ilmiy-tadqiqot ishlari to'g'ri tashkil etilgan va 2018 yilgacha uning strategiyasi belgilab olingan.

Kafedrada bugungi kunda ikkita ilmiy yo'nalish shakllantirildi:

- ❖ Foydali qazilma konlaridan oqilona, kompleks foydalanish va er qa'rini muxofazalashni marksheyderlik ta'minotining ilmiy asoslari.
- ❖ Sanoat korxonalarida davlat kadastrlarini yaratish, rasmiylashtirish va amalda qo'llashni nazariy asoslash.

Kafedrada 2012-2014 yillarda Davlat ilmiy-texnika dasturi asosida 2 ta amaliy, va 4 ta xo'jalik shartnomalari bajarildi va ularning natijalari ilovada keltirilgan. Kafedra bitiruv malakaviy ishlari magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari va xo'jalik shartnomalari ana shu ilmiy yo'nalishlar miqyosida amalga oshirilmoqda va istiqbolda ushbu ishlar davom ettiriladi.

❖ Amaliy loyihalar:

ITD 13/27 "Комплексная методика наблюдения за сдвижением земной поверхности, обеспечивающая безопасность ведения горных работ" Ilmiy rahbar akad. Raximov V.R. Loyiha 3 yilga mo'ljallangan. 2012-2014 yillarda loyihaning barcha bosqichlari bajarildi.

YOA13-02 "Foydali qazilma konlarini ochiq va er osti usulida qozib olishda massivning holatini geomexanik asoslash". Ilmiy rahbar k.t.n. Muxitdinov Sh.R. Loyiha 2014-2015 yillarga mo'ljallangan. 2014 yilda loyihaning birinchi bosqichi

bo'yicha ishlar bajarildi.

Birinchi bosqich bo'yicha quyidagi natijalar olindi:

- "Muruntau" koni misolida massivning geologik, geomexanik va geodinamik jarayonlari taxlil qilindi. Muruntau kareri bortlarini geomexanik xolati baholandi.

Muruntau karerining modeli yaratildi.

- Konlarni ochiq-er osti usulida o'zlashtirish variantlari tahlil qilindi. Konlarni ochiq-yer osti usulida qazib olishda geomexanik jarayonlarni o'rganish tajribalari o'rganildi. Konlarni ochiq-er osti usulida qazib olishda kon laximlarini ustivorligini ta'minlashda asosiy tadbirlar keltirildi.

- Kon sharoitida o'lchash ishlarini olib borish joylarini tanlash uchun, Muruntau konini ochiq-er osti usulida qazib olish loyihasi tahlil qilindi. Kon sharoitida o'lchash ishlari olib borildi. Kon massivining kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holati baholandi va konga ta'sir etuvchi asosiy kuchlanganlik vektorining yo'nalishi aniqlandi.

❖ Xo'jalik

shartnomalari:

49/11 «**Zarmitan oltin qazib olish rudnigida kon zarbasi xosil bo'lish o'chog'ini tabiiy va texnogen qonuniyatini o'rganish**». 2012-2015 yillarga mo'ljallangan. Ilmiy rahbar akad. Raximov V.R. 4 etapni bajarish bo'yicha olingan natijalar quyidagilar. Zarmitan konini kompyuter texnologiyalar yordamida so'ngi-element modelini qo'llab kon lahimi atrofida kuchlanganlik deformatsiyalanganlik xolatini analitik xisoblash ishlari bajarildi. Kompleks kuzatish ishlari natijasida kon zarbasini sodir bo'lish sharoitlarini aniqlash va er osti konstruksiyalarini holatini geomexanik baholash ishlari olib borildi. Olingan natijalar buyutmachi tashkilot Navoiy kon-metallurgiya kombinati qoshidagi Zarmitan kon boshqarmasiga taqdim etildi.

37/11 "**Kon ishlarini xavfsizligini taminlashda er yuzasini siljishini kompleks usulda kuzatish**".2012-2015 yillarga mo'ljallangan. Ilmiy rahbar akad. Raximov

V.R. 4 etap bajarish natijalari quyidagilardan iborat: Massiv tog' jinslarini qazib olishda geomexanik jarayonlarni umumiy tavsifi keltirilgan. Qazib olishda geomexanik jarayonlarni marksheyderlik monitoringi olib borildi. Zarmitan konini geodinamik rayonlashtirish xaritasi, muxandis geologik, geomexanik va fizik modellari ishlab chiqildi. Kompyuter texnologiyalar yordamida so'ngi-element modelini qo'llab kon lahimi atrofida kuchlanganlik deformatsiyalanganlik xolatini analitik xisoblash ishlari bajarildi. Olingan natijalar buyutmachi tashkilot Navoiy kon-metallurgiya kombinati qoshidagi Zarmitan kon boshqarmasiga taqdim etildi.

❖ 27/10 "**Разработка и внедрение нормативно-правовых документов по маркшейдерскому обеспечению охраны недр и промышленной безопасности в угольной отрасли Республики Узбекистон**". X/sh 2010-2014 yillarga mo'ljallangan. Ilmiy rahbar t.f.n., dots. Sayyidqosimov S.S. Xo'jalik shartnoma bo'yicha hamma etap hisobotlari bajarilib ishlab chiqarishga taqdim etilgan.

❖ 28/10 "**Управление качеством добытого угля способом районирования разрезного поля по зольности угля на базе многофакторной геометризации на примере Ангренского бурогоугольного месторождения**". X/sh 2010-2014 yillarga mo'ljallangan. Ilmiy rahbar t.f.n., dots. Sayyidqosimov S.S. Xo'jalik shartnoma bo'yicha hamma etap hisobotlari bajarilib ishlab chiqarishga taqdim etilgan.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kafedra yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, tajriba va amaliy ishlaridan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar, kurs ishi va loyahasini hamda malakaviy bitiruv ishlari va magistrlik

dissertatsiyalarini bajarish uchun qo'llanmalar, JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'qitish jarayoniga yangi informasion va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, EHMLardan foydalanilmoqda. «Aqliy hujum», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy, tajriba mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy anjurnallarida chop etilmoqda.

Kafedra professor o'qituvchilari tomonidan 2011-2013 yillarda quyidagi 4 ta ixtiroga intellektual mulk agentligi tomonidan patent olingan:

- ❖ Marka;
- ❖ Qarash nishoni;
- ❖ Geodezik belgi;
- ❖ Tog' jinslarini maydalashning portlatish usuli.

Takomillashgan Davlat ta'lim standartlari talablariga asosan kafedrada o'qitiladigan fanlaridan namunaviy va o'quv ish dasturlari tayyorlandi.

Kafedra

tarixi:

"Metallurgiya" kafedrasini 1963 yili Toshkent politexnika institutining Olmaliq shahridagi kon-metallurgiya fakultetida tashkil etilgan. U vaqtda kafedra "Rangli metallar metallurgiyasi" nomi bilan yuritilgan. Kafedraning birinchi mudiri bo'lib O'rta Osiyo rangli metallar metallurgiyasi ilmiy – tekshirish institutining sobiq bosh injeneri, katta ilmiy xodim, texnika fanlari nomzodi Stepanov Boris Alekseevich tayinlandi. Kafedraning tashkil qilinishiga O'zbekiston va O'rta Osiyoda rangli va qora metallurgiyaning rivojlanishi va qurilayotgan korxonalariga yetakchi mutaxassislar yetkazib berish sabab bo'lib qoldi. O'sha paytlarda O'zbekistonda va O'rta Osiyoda quydagi yirik korxonalar tashkil kilinayotgan edi:

- ❖ Olmaliq shahridagi boyitish fabrikasi va mis zavodi;
- ❖ Zarafshon, Marjonbuloq, Angren, Chodak shaharlaridagi oltin ajratib olish zavodlari;
- ❖ Chirchiq shahridagi o'tga chidamli metallar kombinati;
- ❖ Bekobod shahridagi «O'zmetkombinat»

Simob, qalay, molibden, volfram, vismut va boshqa noyob metallar bo'yicha mutaxassis tayyorlashda "Metallurgiya" kafedrasini MDX davlatlari ichida yetakchi kafedra bo'lib tayinlangan edi. "Metallurgiya" mutaxassisligi bo'yicha kafedrada umumiy hisobda – 2500 injener, 700 dan o'rtiq bakalavr, 100 magistr va 30 ga yaqin fan nomzodlari

tayyorlangan, ulardan bir qatori fan doktori va Respublikamizdagi va MDX davlatlaridagi katta korxonalarining raxbarlari bo'lib ishlagan va ishlashmoqda.

❖ Sanaqulov Quvondiq – t.f.d., Navoi kon-metallurgiya kombinati bosh direktori.

❖ Yakubov Maxmudjon – t.f.d., prof. «Fan va Taraqqiyot» Davlat unitary korxonasi rais o'ribosari.

❖ Samadov Alisher – t.f.n., Toshkent Davlat Texnika Universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i.

❖ Xoliqulov Doniyor – t.f.n., dots., Olmaliq tog - metallurgiya kombinati yangi texnologiyalarni joriy etish markaziy laboratoriyasi boshliq o'rinbosari.

❖ Mustakimov Otabek – Novoiy kon-metallurgiya kombinati bosh muxandis o'rinbosari.

Respublikamizda metallurgiya mutaxassislarini tayyorlash asoschilaridan quyidagi olimlardir:

❖ mis va rux metallurgiyasi – **Kupryakov Yu.P.**

❖ noyob metallar metallurgiyasi – **Shupak M.I.**

❖ nodir metallar metallurgiyasi – **Svetkov L.S.**

❖ simob va qalay metallurgiyasi – **Stepanov B.A.**

❖ engil metallar metallurgiyasi – **Stepanov B.A.**

❖ qora metallar metallurgiyasi - **Yusupxodjayev A.A.**

1992 yilda kafedra Mexanika fakultetining "Quymakorchiilik sanoati" kafedrasiga qo'shiladi. 1994 yilda Mexanika fakultetida "Metallurgiya" kafedrasini tashkil qilindi va bu kafedraga "Quymakorchiilik sanoati"

kafedrasining metallurgik qismi to'liq o'tadi va kafedra raxbari qilib dots. Yusupxodjaev A.A. tayinlanadi. 2009 yildan boshlab kafedra mudiri lavozimiga t.f.n. Xudoyarov S.R. tayinlanadi. 1995 yilda kafedra Kon-geologiya (hozirgi kunda Geologiya va konchilik ishi) fakultetiga qaytadi. Kafedraning o'qituvchilari o'z malakalarini Rossiya, Olmoniya, Angliya va boshqa davlatlarning oliy o'quv yurtlarida oshirishgan.

Kafedra tarkibida quydagi laboratoriyalar mavjud:

- ❖ taxlilning fizik-kimyoviy usullari;
- ❖ pirometallurgik jarayonlar;
- ❖ gidrometallurgik jarayonlar;
- ❖ metallurgiyda issiqlik texnikasi.

Talabalarning umumiy soni: 408;

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:

Kafedrada prof. A.A. Yusupxodjaev rahbarligida "Mahalliy mineral resurslarni va ikkilamchi texnogen hosilalarni qayta ishlashning resur va energotejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish" umumiy mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borilmoqda. Umumiy mavzu 4 yo'nalishdan tashkil topgan bo'lib, har bir yo'nalishda kafedra professor-o'qituvchilar tarkibidan ma'sul ijrochi va ijrochilar belgilangan.

❖ – **yo'nalish mavzusi** "Oltin saqlovchi rudalarni qayta ishlashda resurstejamkor texnologiyalar" – ma'sul ijrochi t.f.n. Xudoyarov S.R., ijrochilar: Berdiyarov B.T., Karimova T.P.

❖ - **yo'nalish mavzusi** "Noyob va tarqoq metallarni saqlovchi mineral

resurslarni qayta ishlashning optimal texnologiyasini ishlab chiqish" – ma'sul ijrochi t.f.n., doc. Valiev X.R., ijrochilar: Abdullaeva R.S., Saidova M.S.

❖ - **yo'nalish mavzusi** "Rangli metallar ruda va boyitmalarini va rangli va qora metallurgiyaning ikkilamchi texnogen hosilalarini qayta ishshlaning energiya va resurstejamkor texnologiyalarini yaratish" – ma'sul ijrochi t.f.n. Samadov A.U., ijrochilar: Matkarimov S.T., Jovliev S.S., Sanakulov U.K.

❖ – **yo'nalish mavzusi** "Po'lat ishlab chiqarish uchun mahalliy temir saqlovchi rudalarni va ikkilamchi texnogen hosilarani qayta ishlashning optimal texnologiyalarini tadqiq qilish va yaratish" – ma'sul ijrochi Aribjonova D.E., ijrochilar: Muxametdjanova Sh.A., Mirzajonova S.B.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan «Metallurgiya» yo'nalishi va "Metallurgiya (metall turlari bo'yicha)" mutaxassisligida kafedra tomonidan o'qitiladigan fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, tajriba va amaliy ishlaridan o'quv-uslubiy ko'rsatmalar, hisob-grafik ishlarini bajarish uchun ko'rsatmalar, kurs loyihasini va malakaviy bitiruv ishlarini bajarish uchun qo'llanmalar, JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'qitish jarayoniga yangi informasion va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda, EHMLardan foydalanilmoqda. «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy, tajriba mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda.

Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari, amaliy va tajriba mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalar va 60 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko'plab manbalar, darslik, o'quv qo'llanmalarning elektron versiyalari kiritildi.

Takomillashgan Davlat ta'lim standartlari talablariga asosan kafedrada o'qitiladigan fanlardan namunaviy va ish fan dasturlari tayyorlandi.

afedra tarixi:

«Mashinosozlik texnologiyasi, metal kesish stanoklari va asboblari» kafedrasini 1941 yili tashkil etilgan bo'lib, uning birinchi mudiri dots. V.A. Krishtal bo'lgan. 1962 yilda «Mashinosozlik texnologiyasi, metal kesish stanoklari va asboblari» kafedrasini ikkita - «Mashinosozlik texnologiyasi» va «Metal kesish stanoklari va asboblari» kafedralariga bo'lingan. Bu kafedralarga mos ravishda t.f.d. prof. A.P. Sokolovskiyning shogirdlari dots. t.f.n. G.B. Fiks Margolin va dots. t.f.n. G.N. Molchanov saylangan. dots. Fiks Margolin G.B. «Mashinosozlik texnologiyasi» kafedrasini 1962 yildan 1975 yilgacha boshqargan. Bu davrda uning rahbarligida D.E. Alikulov, S.X. Muxamadiev, N.G. Ermolenko, M.A. Usmanova va boshqalar nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlaganlar. 1975 yildan 1992 yilgacha «Mashinosozlik texnologiyasi» kafedrasini t.f.n. dots. YAkuninning shogirdi t.f.d. prof. YAkubov F.YA. boshqargan.

«Metal kesish stanoklari va asboblari» kafedrasini 1962 yildan 1985 yilgacha t.f.n. prof. Molchanov G.N., soʻngra 1992 yilgacha t.f.n. dots. A.N. Xashimov va t.f.n. dots. R.A. Abidovlar boshqargan. Kafedra tashkil qilingan davrda kafedra tarkibida ettita oʻqituvchi: professor G. N. Molchanov, t.f.n. dots. G.I. YAkunin, katta oʻqituvchilar V.YA. YAkush, A.A. Grachyov, assistentlar M.T. Balabekov, A.N. Xashimov, K.B. Usmanovlar ishlagan.

Oʻquv jarayoni uchun laboratoriya bazasini yaratish asosan 1965-1966 yillarda tugallangan. Bunda mashinasozlik texnologiyasi laboratoriyasi, elektrofizik ishlov berish laboratoriyasi, kesuvchi asboblarni kabinet, ssex va zavodlarni loyihalash kabineti, moslamalar kabineti, texnik oʻlchovlar kabinetlari yaratilgan. Laboratoriya va kabinetlarni yaratishga katta oʻqituvchi I.L. Odesskiy, laboratoriya mudiri E.YA. Kutsovskiy va oʻquv ustasi G.A. Kochetovlar katta hissa qoʻshgan. Kafedraning oʻqituvchilari tarkibini toʻldirish aspiranturani bitirib, dissertatsiya ustida ishlagan kafedra bitiruvchilari hisobiga amalga oshirilgan. 1965 yilda «Texnolog» IICHB dan kafedraga dotsent L.V. Peregudov kelgan, 1967-1968 yillarda kafedrada dotsentlar N.N. Sodiqov, N.G. Molchanov, R.A. Abidov, katta oʻqituvchilar: T.U. Tashxodjaev, K.I. Smetankin, A. Baydullaevlar ishlagan.

1962 yildan 1978 yilgacha kafedra tomonidan 1400 ortiq mutaxassislar chiqarilgan va ular respublika taraqqiyotiga jumladan mashinasozlikda stanoklarni dasturli boshqarish oʻzining katta hissasini qoʻshilmoqda.

1993 yilda ikkita kafedra bazasida birlashgan «Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish» kafedrasini tashkil qilingan boʻlib, bu kafedra bakalavrlar, soʻngra magistrlar tayyorlanishi boshlandi. Birlashgan «Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish» kafedrasining birinchi mudiri qilib t.f.d. prof. D.E. Alikulov saylangan. prof. D.E. Alikulov «Mashinasozlik

texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish» kafedrasini 2005 yilgacha boshqargan. 2005 yilda kafedra mudiri qilib t.f.d. prof. Mamadjanov A.M. saylangan.

2012-2014 yillarda «Mashinosozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish» kafedrasini t.f.n. D.A. Inagamova boshqargan. Bu davrda kafedra 3 ta professor, 2 ta dotsent, 2 ta katta o'qituvchi, 5 ta assistentlardan tashkil topgan. Kafedra mudiri t.f.n. Inogamova D.A., prof. Alikulov D.E., prof. Mamadjanov A.M., prof. Umarov T.U., dots. Gafurov B.X., kat.o'q. Bobanazarov U.K., kat.o'q. Juraev M.A., ass. Abduraxmanov X.Z., ass. SHoazimova U.X., ass. Jeltuxin A.V., ass. Tursunov T.X., ass. Rafiev A.A. 2014 yildan kafedrani t.f.n. dots. N.D. Turaxodjaev boshqarmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari quyidagi tarkibda ishlayotdilar: Kafedra mudiri dots. Turaxodjaev N.D., prof. Alikulov D.E., prof. Mamadjanov A.M., prof. Umarov T.U., dots. Pulatov SH.Y., kat.o'q. Bobanazarov U.K., kat.o'q. Juraev M.A., kat.o'q. Mamajanov B.M., kat.o'q. Abduraxmanov X.Z., kat.o'q. SHoazimova U.X., ass. Jeltuxin A.V., ass. Tursunov T.X., ass. Rafiev A.A., ass. Toshtemirov K.K.

Asosiy shtatdagi professor o'qituvchilardan tashqari dars jaryoniga ilmiy salohiyatga va katta pedagogik tajribaga ega bo'lgan quyidagi olimlar jalb etilgan: prof. Muminov N.A., dots. Tajiev A.A., dots. Gafurov B.X., kat.o'q. Xidoyatov A.V.

Xozirgi kunda kafedra O'zbekiston Respublikasining OAB «Toshkent Agregat Zavodi», OAB «Tashkent Traktor Zavodi», OAB «Tashkent Truba Zavodi», YOAB «GM Uzbekistan», ICHB «Navoiy Mashinosozlik Zavodi» va shu kabi boshqa yirik korxonlari bilan yaqin aloqalarni o'rnatgan

Kontingent:

Talabalarning	umumiy	soni:
323 ta.		

1. va avtomatlashtirish;
2. O‘zaroalmashuvchanlik, standartlash va texnikaviy o‘lchov laboratoriyasi;
3. Moslanuvchn ishlab chikarish texnologik dastgoxlari;
4. Mashinasozlik texnologiyasi;
5. Tish g‘ildiraklarni anikligini tekshirish;
5. Kompьyuterlar bilan ishlash zali;
7. Robot texnikasi va texnologik moslamalar

Kafedra

tarixi:

2011 yilda «Texnologik mashinalar va jixozlar» kafedrasini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘iga asosan «Texnologik mashinalar va jixozlar» va «Payvandlash ishlab chiqarish mashinalari va texnologiyasi» kafedralarning birlashtirish natijasida tashkil etildi.

2005 yilda «Texnologik mashinalar va jixozlar» kafedrasini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘iga asosan «Kompessorli sovutish mashinalari va qurilmalari» va «Neft va gaz konlarining mashina va jixozlari» kafedralarning birlashtirish natijasida tashkil etildi.

1961 yili eng ko‘zga ko‘ringan mutaxassislar, shu jumladan akademik B.E.Paton ishtirok etgan payvandchilarning 1-O‘rta Osiyo konferensiyasida Toshkent politexnika instituti koshida "Payvandlash texnologiyasi va jixozlari" kafedrasini ochish tavsiya etildi.

Bu mutaxassislik bo‘yicha talabalarning birinchi kabuli 1962 yili bo‘ldi. SHu bilan birgalikda mexanika fakultetidan 50 nafar talaba Kiev, Moskva, Leningrad, Rostov-Don shaxarlariga o‘kishga yuborildi. Shu bilan birga bir kancha o‘kituvchilar Moskva, Kiev, Leningrad shaxarlariga ushbu ukuv yo‘nalishida aspiranturada o‘kish uchun yo‘llantirildi.

Kafedra tiklanishida va rivojlanishida E.O. Paton nomidagi ilmiy-tadkikot

institutining etakchi mutaxassislari va olimlari xamda shaxsan akademik B.E.Paton, N.E.Bauman nomidagi Moskva texnika universiteti va shaxsan akademik G.A. Nikolaev, Leningrad politexnika instituti, Kiev politexnika va boshka institutlar professor-o'qituvchilari katta yordam ko'rsatdilar. «Payvandlash ishlab chikarish mashinalari va texnologiyasi» mutaxassisligi bo'yicha kafedrada umumiy hisobda – 1500 muxandis, 300 bakalavr, 50 dan ortiq magistr, 20 dan ortiq fan nomzodlari va 3 fan doktorlari tayyorlangan.

Kafedra ta'lim yunalishi:

Bakalavr: 5320300 - Texnologik mashinalar va jihozlar

Kafedra professor-o'qituvchilari:

drada yangi konstruksion materiallarning payvandlanuvchanligini, shu jumladan alyuminiy, magniy, titan, nikel, temir kotishmalarining, yukori legirlangan austenit, austenit-ferrit va ferrit sinfidagi po'latlarning payvandlanuvchanligi takomillashtirish, yangi perspektiv yukori samarali texnologik payvand jaraenlarini yaratish, shu jumladan yangi payvandlash ashelarini yaratish ustida ilmiy tadkikot ishlari olib borilyapti. Kafedra shoshida texnologik jixozlarning eyilgan kislarni tiklash, mustaxkamligini oshirish va ximoyalovchi koplamlar xosil etish bo'yicha tadkikotlar davom etyapti.

Kafedrada yangi yo'nalish, yani ekiladigan paxta chigitini tukini gaz-alangasi yordamida texnologiyasi va qurilma konstruksiyasini loyixalash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagilarni ta'minlaydigan paxta urug'ini gaz alangasida kuydirish uchun tajribaviy moslama yaratildi: - tukli urug'lar bilan solishtirganda to'kiluvchiligini oshirish hisobiga har ekish

ashyolarining urug'lik qadashdagi sarfini gektariga 20-30 kg ga kamaytirish;

- paxta urug'ining tukliligini kamaytirish texnologik jarayoniga kimyoviy-mexanik usullarni kiritish bilan ishlov berish vaqtini qisqartirish hisobiga ishlab chiqarish unumdorligini oshirish;
- hosildorlikni 2 s/ga ga oshirish, o'simlik lar taraqqiyoti davrini qisqartirish, unib chiqish vaqtining qisqarish (ishlov berilmagan urug'larga qaraganda 1-2 kunga oldinroq unib chiqishi), o'simliklarning o'sish jarayonidagi yaxshi rivoji;
- paxta chigitining tukliligini kamaytirishning mexanik va kimyoviy-mexanik usullari uchun horijdan sotib olinadigan ishchi organlar (aylanma arralari, schetkali barabanlar) o'rniga mahalliy ashyo - propan-butandan foydalanish hisobiga valyutani tejash;
- paxta chigitini tukliligini kamaytirishning mavjud mexanik va kimyoviy-mexanik usullariga nisbatan mexanik jarohatlanuvning bo'lmasligi;
- paxta chigiti tukliligini kamaytirishning kimyoviy va kimyoviy-mexanik usullariga nisbatan atrof-mu'it ifloslanishining yo'qligi.

2001-2006 yillarda kuydirilgan paxta chigitining Namangan-77, An-Bayaut-2 va S-6524 navlari qishloq xo'jalik o'simliklarining urug'lantirish va urug'lik o'rganish Respublika birlamchi shakobchasida, Toshkent viloyati O'rta-Chirchiq tumanidagi "O'zbekiston", "Istiqlol" va «Axunboboev» jamoa xo'jaliklarida sinovlar olib borildi. Bu sinovlar ishlov berilmaganlari bilan solishtirilgandagiga qaraganda gaz-kislorod alangasida ekish oldi ishlovidan o'tgan urug'larning ancha yuqori agrotexnik xossalarga ega bo'lishligini ko'rsatdi. Ushbu ishlab chiqish dunyo ilmi va amaliyotida analoglarga ega emas: O'zbekiston Respublikasining quyidagi patentlari olingan: "Paxta urug'ini ekishdan oldin ishlov berish usuli" IAP. №04240, "Gorelka" IAP № 04341, "Paxta urug'ini ekishdan oldin ishlov berish moslamasi" IAP № 04342.

Kafedra tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar prinsipial ilmiy yangiliklari va amaliy yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Buni 60 dan ortik avtorlik guvoxonmalari respublika va chet el nashriyatlarida chop etilgan, 350 dan ortik ilmiy makolalar, 6

ta monografiya va ilmiy izlanishlarning aviatsiya, kemasozlik, energetika, mashinasozlik soxalariga tatbik etilishi ko'rsatib turibti. Kafedraning olti nafar a'zosi R.U. Abduraxmanov, A.R. Bor, A.A. Abduraximov, R.M. Saidov, YA.A. Panchenko "Konstruktion metallarni payvandlash" ilmiy izlanishlarini tatbik etkanliklari uchun 1983 yili mukofoti sovrindori bo'ldilar. (Ilmiy raxbar professor M.A. Abralov). Ilmiy raxbar, texnika fanlari doktori, professor M.A. Abralov magniy, alyuminiy, titan kotishmalarini payvandlashdagi yangi yukori samarali uslubni shshlab chikarishga joriy etganligi uchun 1988 yili Ministrlar Kengashning sovriniga sazovor bo'ldi. 2001 yilda esa O'zbekiston Respublikasida yoshlar murabbiysi unvoniga sazovor bo'ldi. Kafedra ixtirolari va izlanishlari xalk xo'jaligi yutuklari ko'rgazmasida ko'rsatilgan va diplom xamda sovrinlarga erishgan. Kafedra SNG dagi payvandlash bo'yicha etakchi ilmiy va o'quv markazlari bilan yaqin aloqada. Bular orasida akademik E.O.Paton nomidagi elektrosvarka instituti, NIITMASH, VIAM, NIAT, N.E. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika Universiteti, NIIKM "Prometey", Sankt-Peterburg davlat texnika universiteti va boshkalar. Kafedrada nafakat injener kadrlarni, balki yukori kvalifikatsiyaga ega mutaxassislarrini aspirantura orqali tayyorlash ham yo'lga qo'yilgan. Kafedra qoshida mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarni ximoyalovchi maxsus kengash faoliyat ko'rsatadi. Turli yillarda kafedraga SH.R.Rashidov, akademiklar B.E. Paton, G.A. Nikolaev, V.V. Ardentov, Germaniya, Bolgariya, Vengriya, KXR, Koreyalik mutaxassis payvandchilar tashrif buyurishgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 17.04.2010 yildagi 3/2 sonli va 25.12.2010 yildagi 13/2 sonli xay'at qarorlari bo'yicha «Texnologik mashinalar va jihozlar» kafedralarda etuk professor-o'qituvchilar, aspirant, doktorant, talabalar va ishlab chikarish korxonasi vakillari tarkibidan iborat ikkita innovatsion gurux

shakllantirildi va faoliyati yoʻlga koʻyildi. Innovatsion guruhning ishlab chikarish korxonasi bilan samarali xamkorlik taʼminlash buyicha korxonalar bilan shartnomalar tuzilgan: OAJ «Uzbekkimyomash», OAJ «Maksam-CHirchik», GAO «TAPOiCH», KK OAJ «Toshkent quvur zavodi», OAJ «Energotaʼmir», ITM OAJ «Metallokomposit», ПЧК OAJ «TV SPETS SPLAV», «Sam avto» va KK OAJ «Neo sun light». Bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari olingan natijalar DAJ «TAPOiCH», OAJ «Uzbekximash» OAJ «Uzmetkombinat», OAJ «Maksam-CHirchik», Olmalıy kon metalugik kombinati, Navoi togʻ-kon kombinati, OAJ «Podʼyomnik», OAJ «Toʻytepa metall qurilmalari», Tashkent traktor zavodi, Uzbekmontaj maxsus qurilish, Fargʻona neftni qayta ishlash zavodi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, OAO «Muzimpeks» korxonalarida joriy qilindi.

Kafedra tarixi

«Materialshunoslik va materiallar texnologiyasi» kafedrası "Metallar texnologiyasi" va «Materialshunoslik» kafedralarining 2007 yil birlashishi natijasida tashkil topgan.

«Metallar texnologiyasi» kafedrası universitetning eng keksa taxsilgoʻklaridan biridir. U 1920 yilda Turkiston xalq Universitetining texnika taxsilgohi tarkibida tashkil topgan. 1922 yildan to umrining oxirigacha (1967 yil) taxsilgohni Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan va texnika arbobi, prof. M.M.Mixaylov boshqardi.

1928 yilda texnika kafedra qoshida «Metallarni sinash laboratoriyasi» va «oʻquv ustaxonasi» tashkil qilindi.

1928 yilda universitet muxandis – miliator qulliyoti asosida, O‘rta Osiyo paxta - irrigatsiya politexnika instituti tashkil qilindi va «Metallar va yog‘och texnologiyasi» kafedrasini shu institut tarkibiga kirdi. 1933 yilda esa, O‘rta Osiyo industrial instituti tashkil qilindi, kafedra ham shu institutga o‘tdi. Bu davrga kelib, kafedra malakali o‘qituvchilar bilan ta‘minlanib katta o‘quv, uslubiy va ilmiy ishlarni olib bordi. O‘rta Osiyo sanoatini rivojlanishiga o‘z xissalarini qo‘shishdi. Ayniqsa Ulug‘ Vatan urushi yillarida kafedra o‘qituvchilari o‘zlarining metallografik va mexanikaviy tajribalari bilan korxonada mahsulotlari sifatini oshirish, braklarni sababini aniqlash va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sohasida Vatanga xizmat qildilar.

Urushdan keyingi yillarda mexanika qulliyoti qoshida «Metallar texnologiyasi» kafedrasidagi aspirantura yagona hisoblangan. Professor M.M.Mixaylov boshchiligida quyidagi ko‘zga ko‘ringan olimlar nomzodlik ishlarini ximoya qilganlar: N.P.Nizovoy, A.D.Mashkov, Ya.Z.Uspenskiy, N.P.Frolova, G.I.Yakunin, A.A.Yakunin, A.A.Muxamedov, O.X.Alaferdov, O.U.Alimov va boshqalar.

«Metallar texnologiyasi» kafedrasini asosiy kafedralardan bo‘lib o‘z vaqtida undan «Payvandlab ishlab chiqarish texnologiyasi», «Metallshunoslik» kafedralari ajralib chiqdi.

«Metallar texnologiyasi» kafedrasiga 1967-1986 yillarda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan va texnika arbobi, prof. V.A.Mirboboev, 1986-91 yillarda dotsent S.K.Qosimxodjaev, 1991 – 1995 yillarda dotsent E.O.Umarov, 1995-1997, 2002-2007 yillarda dotsent Sh.A.Karimovlar boshqardilar. 1997 yili «Metallarni bosim bilan ishlash texnologiyasi va jihozlari» kafedrasini birlashtirildi. Bu kafedralar birlashtirilgandan so‘ng «Metallar texnologiyasi va bosim bilan ishlash» kafedrasini nomi berildi va mudirligiga prof. A.S.Abdullaev tayinlandi. «Materialshunoslik» kafedrasini tashkil etilgan kundan boshlab to 2003 yilgacha kafedrani prof., t.f.d. Muxamedov A.A. boshqardi. 2003- 2009 yillar kafedrani dots. Norxudjaev boshqardi. 2009-2010 yildan kafedraga F. To‘raev rahbarlik

qildi.

Kafedra o'z faoliyati davomida 5000 dan ortiq malakali muxandis mexanik mutaxassislar, 1 ta texnika fanlari doktori, 10dan ortiq texnika fanlari nomzodi tayyorladi. 2000 dan ortiq ilmiy maqolalar, 20 ta kitob, 15 ta monografiya chop etildi.

Hozirgi kunda kafedra ilmiy-pedagogik faoliyati bilan 1 ta fan doktori, professorlar, 6 ta fan nomzodlari, dotsent, 5 ta katta o'qituvchi, 3 ta assistent va 4 doktorant, 1 injener banddir.

Kafedra

ta'lim

yo'nalishi:

3. G'ovak metallokeramik materiallarga ximikog'termik ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish va uni tadqiqot qilish.*(rahbar- kat. o'q. Shakirov Sh.M.)*

4.Qiyin eriydigan metallar o'ta disperss kukunlari asosida konstruksion materiallar ishlab chiqarishning nazariy va amaliy jixatlari, *(rahbar-dots. Nurmurodov S.D.)*

Kafedra tarixi:

O'rtta Osiyo industrial instituti mexanika fakultet tarkibida 1948 yilda "Traktorsozlik" kafedrası tashkil qilish xaqida xukumat qarori chiqdi va unda «Traktorsozlik» va «qishloq xo'jalik mashinalari» mutaxassisliklari bo'yicha injener-mexaniklar tayyorlana boshlandi. Kafedraning birinchi mudiri etib *dotsent Aleksey Nikolaevich Ninov* tayinlandi. Kafedrada shu yillarda V.I. Sverdlin, K.I.Afanasyev, L.M. Teplyakov, I.F. Lyubechanskiy, V.N.Shirokov, P.M.Gandzyura va boshqalar mehnat qilishgan. 1955-yildan boshlab kafedra "qishloq xo'jalik mashinalari" kafedrası deb atala boshlandi. 1964-77 yillarda kafedraga *t.f.n., prof. Aslam Hamidovich Hamidov* rahbarlik qildilar. Bu davrda paxtachilikni mexanizatsiyalash borasida, jumladan, chigit ekish mashinalarini takomillashtirish va paxta terish mashinalari energetikasini tadqiq qilish bo'yicha katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu yillar davomida A.Xamidov rahbarligida kafedraning 4 a'zosi -o'qituvchilar V.G. Murashkin, R. Tolipov va aspiranlar P.Jumaniyozov, E.N.Mixlinlar nomzodlik dissertatsiyalarini muvafiqiyatli yoqladilar. 1977-1983 yillarda "qishloq xo'jalik mashinalari va traktorlar" kafedrasiga *prof. Azmutdin Sadriddinovich Sadriddinov* rahbarlik qildilar. Ushbu davrda kafedraga iqtidorli yosh o'qituvchilar va ilmiy xodimlar jalb qilindi, kafedrada ko'p qirrali ilmiy-tadqiqot ishlari turli yo'nalishlarda olib borildi, yangi ilmiy maktab yaratildi. A. Sadriddinovning tashabbusi va bevosita rahbarligida qisqa muddatda kafedra uchun aloxida to'rt qavatli yangi ilmiy-o'quv laboratoriya korpusi qurib bitkazilib, ishga tushirildi. Binoda yangi o'quv xonalari va ilmiy laboratoriyalar tashkil qilindi. Ular zamonaviy ilmiy-tekshirish jihozlari va uskunalari, turli xildagi qishloq xo'jalik mashinalari va qurollari bilan jihozlandi. SHuningdek, Toshkent viloyatining Oxangaron tumani

xududida kafedraning o'quv tajriba maydoni tashkil qilindi. Keyinchalik A. Sadriddinovning yangi tashkil qilingan «Traktor va qishloq xo'jalik mashinasozligi» fakultet dekani lavozimiga saylanishi munosabati bilan kafedraga 1983-1989 yillar davomida, *t.f.n.,dots. Erkin Akbarovich Akbarov* mudirlik qildilar va kafedra o'qituvchilari bilan birgalikda yangi binoni jixozlash, o'quv-ilmiiy tajriba xonalarini yaratish, yangi o'quv rejalari va fanlarini joriy qilish kabi kafedraning rivoji borasidagi ishlarga katta xissa qo'shdi.

1988 yilda «Qishloq xo'jalik mashinalari» kafedrasidan aloxida «Traktorsozlik va ichki yonuv dvigatellari» kafedrasini tashkil qilib 1997 yilgacha ushbu kafedraga *prof. O'tkir Axmedovich.Ikromov* rahbarlik qildi. Bu vaqtda kafedra o'quv mashg'ulotlari zamonaviy o'lchov uskunalari bilan ta'minlanib kompyuter texnikalarilaridan samarali foydalanilgan.

"Qishloq h'jalik mashinasozligi" kafedrasiga 1989-2005yy.da *t.f.n.,dots. Anvar Doniyorovich Abdazimov* mudirlik qildi. Bu davrda kafedra ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli o'tdi va 2 bakalavriat yo'nalishi va 3 magistratura ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar tayyora boshlandi.

2005 yilda «Qishloq xo'jalik mashinasozligi» va «Traktorsozlik va ichki vigatellari» kafedralari birlashtirilib bakalavriat yo'nalishiga mos ravishda yangi kafedraning nomi «Er usti transport tizimlari (qishloq xo'jaligi mashinalari va traktorlar)»ga o'zgartirildi, unga *prof. Maxkamov K.X.* mudiri etib tayinlandi. 2006 yil iyun oyidan kafedra mudiri etib *dots.Abdazimov A.D.* tayinlandi.

2005-2006 yy.da kafedraning binosi «O'zqishloqmash-xolding» kompaniyasi korxonalarini xomiyligida, xususan «Toshkent traktor zavodi» OAJ yordamida tubdan ta'mirlandi. Moddiy texnika bazasini yaxshilash uchun traktor va qishloq xo'jalik texnikasini yangilash ishlari jadal olib borildi va ushbu kompaniya korxonalarida ishlab chiqarilayotgan 20 zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasi va

o'quv stendlari olib kelindi. 2007yildan kafedra Germaniyaning hozirda O'zbekistonga ko'plab don kombaynlari, traktorlar va boshqa texnika vositalarini etkazib berayotgan «SLAAS» kompaniyasi bilan yaqin xamkorlik qilib keladi. Ushbu kompaniya vakillari ishtirokida xalqaro ilmiy uslubiy seminarlar o'tkazildi, kafedraga interaktiv kompyuter doskasi, multimedia proeaktori, ko'plab «SLAAS» q.x. texnikalariga oid elektron darsliklar, plakat, mashinalar maketlari taqdim qilindi.

Xozirgi vaqtda kafedrada «Avtomobilsozlik va traktorsozlik (A vaT)» va «Er usti transport tizimlari(EUTT)» bakalavriat yo'nalishlari talabalari uchun 24 umumkasbiy va ixtisoslik fanlari va magistratura ixtisosliklari bo'yicha 14 maxsus fanlardan zamon talablari asosida jihozlangan 7 laboratoriya xonalarida va katta pavilyonda o'quv-nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda. Laboratoriya va amaliyot o'tkazilgan xonalar zamonaviy tadqiqot asbob-anjomlari, turli xil stendlar bilan jihozlangan. Hozirgi vaqtda barcha o'quv mashg'ulotlari zamonaviy o'lchov qurilma uskunalari, hamda kompyuter texnikasidan keng foydalangan xolda olib borilmoqda.

Kafedrada ta'lim olganlar

Kafedra tashkil topgandan buyon hozirgi vaqtgacha "Qishlok xo'jalik mashinalari", «Avtomobillar va traktorlar» muxandislik mutaxassisliklari va «Er usti transport tizimlari(QXM va traktorlar)» bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimizga 4 mingdan ziyod yaqin injener-mexaniklar tayyorlab berildi. Kafedraning ko'pgina bitiruvchilari yirik mashinasozlik korxonalarida, loyihalash va ilmiy muassasalarda rahbarlik lavozimlarda ishlab kelmoqdalar. Mustakil O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti **Islom Abdug'anievich Karimovning** universitetimiz(sobiq ToshPI) "Qishloq xo'jalik mashinalari" ixtissosligini 22-55 SM guruxini 1960 yilda a'lo baholar bilan tugatganliklari nafaqat kafedra ahlining balki butun texnika universiteti jamoasining faxridir.

Shuningdek, kafedramizda quyidagi taniqli olimlar va rahbarlar ta'lim olganliklaridan biz doimo iftixordamiz:

1. Matchanov R.D.- «O'zqishloq mash-xolding» kompaniyasi boshqaruvi raisi, t.f.d., professor, O'zQXFA muxbir a'zosi, AQSH Nyu-York fanlar akademiyasining akademigi.

2. Xojiev A.X.- t.f.d., prof. O'zQXFA akademigi, O'z MEI bo'lim boshlig'i.

3. Sadriddinov A.S.- t.f.d., prof. O'zQXFA muxbir a'zosi, «QXM» kafedrasida professori.

4. Rizaev A.A.- O'zFA mexanika va inshootlar mustahkamligi ilmgohi direktori, t.f.d., professor.

5. Toshboltaev M.T. – t.f.d., prof., O'zMEI raxbari o'rinbosari

6. Karimov A.I. - t.f.d., prof., ToshDTU «MLA» kafedrasida mudiri (24-66 AT guruxi)

7. Tuxtaqoziev A.T. - t.f.d., «O'zMEI» laboratoriya mudiri (25-66 SM guruxi)

8. Ishmuradov X.K. – «Uzagromashservis» uyushmasi raisi birinchi o'rinbosari va boshqalar

Kontingent:

Talabalarning umumiy soni:
396 ta.

Kafedra olib borilayotgan ilmiy – tadqiqot ishlari:

Kafedraning ITI mavzulari:

- vertikal shpindelli paxta terish mashinalari (PTM) ning texnik darajasini oshirish (*raxbar – t.f.d., prof. Sadriddinov A.S., ijrochilar: t.f.d. Abdazimov*

A.D., t.f.n. Tulaev A.R., t.f.n. Ravutov SH.T., t.f.n. Alimova F.A., Omonov N.N., Qodiraliyev A., Primqulov B., SHerqobilov S.)

- paxtachilik mashina traktor agregatlarini avtomatlashtirishning mexanikaviy-texnologik asoslarini yaratish (*raxbar – t.f.d. Abdazimov A.D., ijrochilar: t.f.n., dots. O'ljaev E., t.f.n. Ravutov SH.T., Ubaydul-laev O'.M., Omonov N.N., Saidov*

S.);

- er usti transport vositalari qismlarining eyilishbardoshligini tadqiq qilish va oshirish(raxbar – t.f.d. prof.Saidov SH.V., ijrochilar: t.f.n. dots.Vagizov M.Z., t.f.n. Babashev Q.A., Aliboev B.A.).

Kafedrada shuningdek, quyidagi davlat granti loyixalari bo‘yicha ITI olib borilmoqda:

1. ITD-5-38 «Paxta dalasi agrotexnik foni va paxta terish mashinalari agrotexnik ko‘rsatkichlarini kompyuterda tezkor aniqlash uslubi va dasturiy apparat vositalarini ishlab chiqish», loyixa raxbari - Sadriddinov A.S
2. KA5-002 «Paxtachilik mashina traktor agregati(MTA)ning asosiy rejimlari va ekspluatatsion parametrlarini avtomatlashtirilgan mikroprotessorli boshqarish va nazorat usullari, algoritmlar va qurilmalarini ishlab chiqish», loyixa raxbari - Abdazimov A.D.

Kafedra ITI natijalari quyida keltirilgan fotosur’atlarda o‘z aksini topgan

Terish apparati ish tirqishi ish jarayonida rostlanadigan XNP-1,8-10 paxta terish mashinasi

Kafedrada yaratilgan g‘o‘zani apparatga kirituvchi mexanizm(G‘KM)li ish texligi 50% oshirilgan paxta terish mashinasi dala sinovida

G‘o‘zani apparatga kirituvchi mexanizm Takomillashtirilgan paxta ajratkich (G‘KM)li shpindelli baraban.

Kafedra tarixi va o'quv ishlari:

Xozirgi kunda «**Mashinasozlik materiallariga ishlov berish**» kafedra mudiri Xalimjonov Toxir Salimovich, t. f.n., dotsent Kafedra ilgari «Quymakorlik ishlab chiqarish mashinalari va texnologiyasi» va «Metallarga bosim bilan ishlov berish» kafedralari bazasida ToshDTU rektorining 2006 yil 5 sentyabrdagi 190-sonli buyrug'iga asosan «**Mashinasozlik materiallariga ishlov berish**» kafedrasi tashkil etildi.

Kafedrada 10 ta professor – o'qituvchi ishlaydi, shu jumladan 2ta fan doktori-S.A. Rasulov, F.S. Abdullaev.

4 fan nomzodlari (Xalimjonov T.S.,Raxmatullaev V.S., Bragina V.P, Turaxodjaev N.D.),

2 ta katta o'qituvchilar (Maxmudova N.A.Zagidullin R.R.), 3 ta asisstent (Saidxodjaeva SH.N.,Normurodov U.E., YUsupov A.A.) O'quv yordamchi xodimlar 5 kishini tashkil etadi.

Kafedrada metall erituvchi induksion pechlari, quymakorlik uskunalari, metallarni bosim bilan ishlov berish uchun presslar va shtamplar mavjud.

Xozirgi kunda professor –o'qituvchilar darslarni videoproektorlarda talabalarga fanini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalar tomonidan ushbu fanni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishini va chuqur bilimlar olishini ta'minlaash maqsadida laboratoriya xonasida kompyuter orqali slaydlar bilan olib boradilar.

Birlashgan kafedralaring tarixi 1941 yili Toshkentga Kiev industrial instituti evakuatsiya qilinganda boshlangan. Kafedraga 1941 yili prof. d.t.n. Ващенко K.I. va 1944 yili Kiev industrial instituti ko'chib ketgandan keyin dots. Berezin P.G. va keyinchalik dots. Turbovskiy M.M. raxbarlik qilgan. 1948 yili kafedraga

MVTUdan kelgan t.f.n. Fuklev V.A raxbarlik qilgan «Metallarga bosim bilan ishlov berish» kafedrası zamon talabiga qarab 1979 yili tashkil topgan. O'tgan 71 yil davomida kafedrada dots. Graxov YA.K., dots. Xabarov M.A., dots. Axunov A.YU. dots. Usmanov A.I. va boshqalar ishlagan. Kafedra bitiruvchilaridan ko'plari fan doktori bo'lishdi. Bular ichida ToshDTU rektori SHoobidov SH.A., CHekurov V.V., Rasulov S.A., Bakirov R.A., Romanov O.B., Miragzamov M.M., Izmaylov V.S., Abdullaev F.S., YUsupov D.R. va boshqalar.

Xozirgi kunda kafedrani ilgari boshqargan mudiri dots. N.D. Turaxodjaev doktoranturada "Elektroshlak usulida sifatli metall eritib olish" mavzusida dissertatsiya ishlarini olib bormoqdalar.

l. t.

Kafedrada	olib	borilayotgan	ilmiy	ishlar:
<u>Kafedrada</u>	<u>olib</u>	<u>borilayotgan</u>	<u>ilmiy-uslubiy</u>	<u>ishlar</u>

Monografiyalar:

N.A.Artikov. «Pnevmotransport legkopovrejdaemix materialov» Tashkent- 1984.

Darsliklar:

Metall eritish pechi

Metallarga bosim bilan ishlov berish laboratoriyasida o'quv jarayoni

Metall eritish elektroshlak pechi

""Materiallar qarshiligi va mexanika» kafedrası"

Kafedra

tarixi:

Kafedrada o'qitiladigan fanlar "Nazariy mexanika", "Materiallar qarshiligi" va "Mexanizm va mashinalar nazariyasi" aloxida kafedralar bo'lib, 1920 yilda TurDUning texnika fakulteti qoshida tashkil qilinganlar. «Nazariy mexanika» fanidan o'qituvchi D.B. Jarkov, assistentlar N.I. Levkovich, S.V. Novokrechenovlar dars olib borishgan. Keyinchalik tashkil qilingan SAXIPI (Sredneaziatskiy xlopkovo-irrigatsionnyy politexnicheskiy institut) da kafedrani "Texnik mexanika" deb ataldi. Kafedrani prof. D.V. Jarkov boshqargan. 1933 yilda tashkil qilingan SAI (Sredneaziatskiy industrial'nyy institut)da "Nazariy mexanika" kafedrası tashkil qilindi va bu kafedrani 1934-1962 yillar dotsent N.A. Salarev boshqargan. Keyinchalik tashkil etilgan O'rta Osiyo Politexnika instituti va Toshkent Politexnika institutida "Nazariy mexanika" kafedrasiga 1962-1968 yillar dotsent V.V. Xristoforov, 1968-1973 yillar dotsent S.S. Nasretdinov mudirlik qilishdi. 1973-1987 yillar kafedrani dotsent R.J. Xudoyberdiev boshqardi.

"Mexanizm va mashinalar nazariyasi" fani professorlar A. I. Ivanov va X. F.

Ketov lar tomonidan 1920 yilda tashkil topgan. 1950 yilga qadar “Mashina detallari va amaliy mexanika” kafedrasini professor A. I. Ivanov boshqargan. 1950-1962 yillar kafedrani dotsent A. S. Aleksandrov, 1962 yildan— dotsent II. S. Myunster boshqargan. 1956 yilda “Mashina detallari va mexanizm va mashinalar nazariyasi” deb nomlangan. 1965 yilda kafedra ikkiga bo’lingan va ulardan biri “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” deb nomlangan.

“Materiallar qarshiligi” kafedrasini birinchi kunlardan o’z laboratoriyasiga ega bo’lgan. 1933 yilda O’rtaosiyo industrial institut koshida “Materiallar qarshiligi va inshootlar statikasi” kafedrasini ochilib, 1950 yilga qadar kafedrani professor S. M. Suxanov boshqargan. Tez orada kafedraning nomi “Materiallar qarshiligi”ga o’zgartirilgan. 1950-1968 yillar kafedrani dotsent N. A. Karimov, 1969—1975 yy.—t.f.n., dotsent N. X. Suyunshkaliev, 1975 -1982 y. - dotsent N. T. Tursunov.boshqargan. 1964-1970 yillarda kafedra ishlarida O’zSSR akademiki M. T. Urazbaev faol qatnashgan va u tomonidan ikki tomlik “Materiallar qarshiligi” kursi yozilib, u talabalar uchun asosiy adabiyot hisoblangan. “Amaliy mexanika” kafedrasini 1982 yilda TashPI ning texnik fakul’tetidagi “Materiallar qarshiligi”, “Mashina detallari” va Mexanizmla va mashinalar nazariyasi” kafedralari asosida tashkil topgan va kafedrada 20 ta professor-o’qituvchi faol ko’rsatgan. Kafedra mudiri qilib SHipilevskiy Boris Abramovich tayinlangan. 1982-1992 yillarda kafedrada Kovalevskiy V.I. Sultanov N.Z. Kuchkarov U.Raximov I.S. Mayzel’ P.A. Kinel’ E.E. Fel’dman P. Snegireva N.M., Maksudova N.A. Vojjin A., Abdusalyamom M., Xodjaev A., Valiev M., Turapov E. SHaolimov A., Mamedov R. S., Kurganbekov, Ergashev I. va boshqalar ishlagan. 1992 yilda TashPI dan bir qancha yo’nalish mustaqil qol ko’rsatishi, shu jumladan Toshkent Kimyo - texnologig institut barpo qilinishi sababli, kafedra bo’linib, TashPI da “Amaliy mexanika” kafedrasini o’z nomi bilan qolib, professor Karimov K.A.

boshchilik qilgan. 1996 yildan “Amaliy mexanika” va “Mexanizm va mashinalar” bir kafedra bo’lib, kafedraga Rasulov R.I. boshchilik qilgan. ToshDTU rektorining 2002 yil 26 avgustdagi 3/901-sonli buyrug’iga ko’ra «Mashina detallari» va «Nazariy mexanika» kafedralari birlashib, I.Sulaymonov nomidagi «Nazariy mexanika va mashina detallari» kafedrasida nomlandi va t.f.d. prof. SH.A. SHOobidov rahbar etib tayinlandi. ToshDTU rektorining 2006 yil 5 sentyabrdagi 190-sonli buyrug’iga ko’ra kafedra «Nazariy mexanika, mashina detallari va servis texnikasi va texnologiyasi» nomi bilan ataldi va ushbu kafedra bazasida 5811000-«Servis texnika va texnologiyasi (Er usti transport tizimlari – qishloq xo’jalik mashinalari va traktorlar)» yo’nalishi bo’yicha 2006-2007-o’quv yiliga birinchi bor bakalavriaturaga talabalar qabul qilindi. 2011 yilgacha kafedraga prof. Karimov K.A. rahbarlik qildi. 2011 yildan kafedra “Materiallar qarshiligi va mexanika” deb nomlanib prof. Karimov R.I. va dots. Begimov N. lar rahbarlik qilgan.

2013 yildan kafedraga t.f.d.Latipov V.B. rahbarlik qilmoqda

Kafedraning ilmiy salohiyati.

Xozirgi paytda kafedrada 23 ta professor-o’qituvchi xodimlar o’quv jarayoni va ilmiy faoliyat olib borishmoqda. t.f.d., prof. Latipov V.B., t.f.d., prof. Karimov R.I., t.f.d. prof. Karimov K.A., t.f.n., prof. Xasanov S.M., t.f.n.,dots. Zanutdinov N.Z., dots. Xabibullaeva X.N.,t.f.n., dots. Fayzullaeva F.J., t.f.n., dots. Baratov N.B., t.f.n., dots. Abduvaliev U.A., t.f.n., k.o’q. Maxmudova N., k.o’q. Maksudova N.A., k.o’q. Qurbonova Z.M., k.o’q. Kusherov X.K., k.o’q.Turaxodjaev F.R., k.o’q. Bariev M.B., k.o’q Axmedjanov YU.A., k.o’q Rasulov A.P., k.o’q SHakov V.M., ass. Axmedov D.A., ass. Xudoynazarov D.X. va lab. mudiri SHoumarov R.A. lar shular jumlasidandir.

Kafedraning ilmiy pedogogik aloqalari.

1. Farg'ona politexnika instituti. 28.03.2014 y. Xamkorlik shartnomasi
2. O'zbekiston milliy universiteti. 2014 y. Xamkorlik shartnomasi
3. Toshkent avtomobil-yo'llar instituti. 25.04.2014 y. Xamkorlik shartnomasi

Toshkent iqtisodiyot va servis kasb-xunar kolleji. 2013 y. Xamkorlik shartnomasi

r:

Kafedrada davlat byujetidan loyihalashtirilgan ikkita loyiha bo'yicha ishlar olib borilayapti:

1. ITD – 3-53 “Ixtiyoriy diametrlagi sharlarni prokatka qilish maqsadida vintli kolibrlarni qirqish uchun kulachokli mexanizmni loyihalash va yaratish tizimini ishlab chiqish” (2012-1014). Loyiha rahbari - t.f.d. prof. Karimov Rasul Isxakovich
2. F-2-29 “Parametrlari va bog'lanishlari boshqariladigan mexanizmlarning yangi avlodini ishlab chiqarish uchun ularning nazariy asoslarini yaratish” (2012-2016). Loyiha rahbari - t.f.d. prof. Karimov Kamolxon Abbasovich

Kafedra professor-o'qituvchilari 2013/14 o'quv yilida olib boradigan ilmiy - tadqiqot ishlarni mavzulari:

1. “Mahsulot sifat ko'rsatkichlarining o'lchash natijalarining noaniqligini baholash “(“Metodologiya otsenovaniya neopredelennosti izmereniy sostava i svoystv veyestv i materialov)

ilmiy rahbar prof. Latipov V. B.

2. “Parametrlari va bog'lanishlari boshqariladigan planetar friktsion

mexanizmlarning nazariyasi va qurilmalari”. Ilmiy rahbar prof. Karimov K.A.

3. “Modelirovanie kinematiki i dina miki kulachkovо-tychajnogo mexanizma s dvuxpovodkovoy gruppoy 2-go vida”. Ilmiy rahbar prof. Karimov R.I

4. “Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallarning mustahkamligi magnit maydoni yordamida oshirish” Ilmiy rahbar prof. Xasanov S.M.

1. “Issledovanie i razrabotka shpindilьных vertikalьno-shpindelьных xlopkouborochных mashin s neuprugimi barabanami”. Ilmiy rahbar dots.Turovov A.T.

“Ko’p fazoli muhitning harakati” larning ilmiy yo’nalishlarni tasdiqlash. Ilmiy rahbar dots. Fayzullaeva F.D.

Kafedra olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:

1. “Nazariy mexanika” fanidan kinematika bo’limining ma’ruzalarini animatsion matnlari. Karimov K.A.

2. “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” fanidan yangi laboratoriya ishini tayyorlash. Karimov R.I.

3. “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” fanidan o’quv qo’llanma. Karimov R.I.

4. “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” fanidan amaliyot darslarni o’tish uchun uslubiy qo’llanma. Zaynutdinov N.Z.

5. “Materiallar qarshiligi” fanidan masalalar echish o’quv qo’llanmani nashrga tayyorlash. Xasanov S.M.

5. “Materiallar qarshiligi” fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatma. Xasanov S.M., Xaytalieva R., Kuserov X.

7. “Mexanizm va mashinalar nazariyasi” fanidan olti zvenoli mexanizmni loyihalashga o’quv qo’llanma. Abduvaliev U.A.

3. Tasmali uzatmani xisoblash. Uslubiy ko'rsatma.. Baratov N.B.
9. Metodicheskoe posobie po raschyotu chervyachnoy peredachi. Maksudova N.A.
10. Metodicheskoe ukazanie po vyrolneniyu RGR (S-1 i K-7) po predmetu "Prikladnaya mexanika"
11. "Amaliy mexanika" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma". Maxmudova N.X.
12. "Nazariy mexanika" fanidan statikadagi masalalarni echish. Bariev M.

""Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasini

Kafedra

tarixi:

Kafedra 1920-yili Turkiston Davlat universitetining texnika fakulteti tarkibida "Chizma geometriya va texnika chizmachiligi" nomi bilan tashkil topgan. Kafedraning asosiy yo'nalishi darslik va o'quv qo'llanmalarni lotin alifbosidagi yangi avlodini va elektron adabiyotlarni yaratish ustida faol ish olib borishga qaratilgan. Xozirgi kunda kafedra "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" nomi bilan yuritiladi. Kafedrada bitta professor, to'rtta dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ni izchil amalga oshirish borasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari ilmiy - pedagogik xodimlarining "Chizma geometriya, chizmachilik va muxandislik grafikasi" fanlari bo'yicha malakalarini oshirish kurs bitiruv ishlariga ilmiy- amaliy rahbarlik qilish amalga oshirilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirligi qo'shma buyruqi asosida respublika maktab o'quvchilari va kasb-xunar kollejlari talabalarining Respublika bosqichi olimpiadasini o'tkazishga rahbarlik qilinmoqda. Respublikamiz oliy texnika o'quv yurtlari, kasb-xunar kolleji va o'rta maktab "Chizma geometriya, chizmachilik va muhandislik grafikasi" fanlari professor-o'qituvchilari kafedra mudirlari bilan ilmiy-amaliy, uslubiy va tashkiliy masalalar bo'yicha hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Kontingent:

Talabalarning umumiy soni 2460 ta

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:
1-yo'nalish. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Chizma geometriya va muhandislik grafikasi) ixtisosligi bo'yicha ilmiy ish olib boriladi. (Ilmiy raxbarlar Azimov T.D., Xoldorov X.A.)

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:
2-yo'nalish. Oliy maktab muammolari bo'yicha ilmiy ishlar olib borish. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlaridan texnika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish va o'qitishning uzviyligini ta'minlash muammolari. (Ilmiy raxbar Azimov T.D.)

Kafedra

tarixi:

"Neft va gaz geologiyasi va razvedkasi" kafedrasini 1963 yili tashkil qilingan. Unga geologiya-mineralogiya fanlari doktorlari professorlar O.G.Rijkov, O.M.Akramxodjaev, M.S.Saydalieva, Z.S.Ibrogimov bosqichma-bosqich mudirlik qilishgan, so'ng geologiya-mineralogiya fanlari nomzodlari, dotsentlar A.E.Abetov, I.Xolismatov kafedrani boshqarishgan. 2005 yili bu kafedra va 1976 yili tashkil qilingan "Neft va gaz konlarini izlash va razvedkasining geofizik metodlari" (keyinchalik neft va gaz geofizikasi) kafedrasini birlashtirib, ularning asosida hozirda faoliyatdagi "Neft va gaz konlari geologiyasi va geofizikasi" kafedrasini tashkil qilingan. "Neft va gaz geofizikasi" kafedrasiga geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, dotsent S.X.Xamidov, so'ng geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor F.X.Zunnunov mudirlik qilishgan. Yangi tashkil bo'lgan kafedraga 2005-2010 yy. geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, dotsent I.Xolismatov mudirlik qilgan. 2011 yildan esa to hozirgi kunga qadar geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor A.A.Abidov.

Professor F.X.Zunnunov va dotsent I.Xolismatov tashabbuslari bilan kafedraning filiallari "O'zbekgeofizika" AOJ, Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi institutida (IGIRNIGM OAJ), 2012 yili esa professor A.A.Abidov tashabbusi bilan "Yerni distantsion zondlash va GIS-texnologiyalari Markazi"da tashkil qilindi va bu filiallarda talabalar amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarini o'taydilar. 2013-2014 o'quv yilida kafedra qoshida tashkil qilingan Tayanch O'quv-metodik tadqiqot markazi (Surxondaryo viloyati, Boysun tumani) o'z faoliyatini boshladi va birinchi 25 talaba "Strukturalar geologiyasi va geologik s'yemka" hamda "Geofizik metodlar" fanlaridan u yerda yozgi o'quv, malakaviy amaliyotlarini o'tdilar. Yer ilmidagi XX asr so'ngida sodir bo'lgan tub ilmiy-texnik inqilobiy o'zgarishlarni, ya'ni plitalar tektonikasi nazariyasi va geodinamika konsepsiyasi erishgan yutuqlar asosida zamonaviy bilimlarga yo'g'irilgan yangi o'quv adabiyotlari kafedra professorlari tomonidan yaratilib, talabalarga ular asosida bilim berilmoqda. O'quv jarayoniga 2014 yili tasdiqdan o'tgan yangi davlat ta'lim standarti asosida yangi zamonaviy fanlar joriy qilindi.

Kontingent:

- professor-o'qituvchilar, laboratoriya xodimlari, bakalavriyatlar, magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Talabalarning	umumiy	soni
- 313		

Kafedrada	olib	borilayotgan	ilmiy	ishlar:
Kafedrada	olib	borilayotgan	ilmiy-tadqiqot	ishlari:
1. Neft va gaz prognozi va izlashning zamonaviy nazariy asoslarini ishlab chiqish.				
2. O'zbekiston neftgazli hududlarida uglevodorod to'plamlarini izlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish.				
3. Neftgazli cho'kindi havzalari shakllanishining geodinamik-tektonik modellashtirish printsiplarini takomillashtirish.				

Kafedrada	olib	borilayotgan	ilmiy-uslubiy	ishlar:
" Foydali qazilma konlari geologiyasi, va razvedkasi (neft va gaz konlari)" yo'nalishida va mutaxassisligida ta'lim olayotgan talabalar va magistrnlarni o'qitish jarayonida ularga tabiiy geologik sharoitlarda neftgazli qatlamlarni namoyish qilish orqali bilim berishni tashkillashtirish maqsadida kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan so'nggi yillarda O'zbekistonning turli tektonik hududlarida yer yuziga chiqqan cho'kindi jinslarining tarqalganlik qonuniyatlari taxlil qilinib, Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida kafedraning Tayanch O'quv-metodik tadqiqot markazi tashkil qilindi.				
Markaz 2013-2014 o'quv yilida ishga tushirilib, u yerda professor A.A.Abidov rahbarligida 2-kurs talabalarining yozgi o'quv amaliyoti "Strukturalar geologiyasi va geologik s'yemka" va "Geofizik metodlar" fanlaridan tashkil qilindi.				
Kafedrada o'qitiladigan mutaxassislik fanlaridan o'quv-uslubiy majmualar yaratilib, o'quv jarayoniga tadbiiq qilingan. Qator fanlardan ("Neft va gaz geologiyasi", "Geotektonika", "Neft va gaz uchun izlov-qidiruv quduqlarini loyihalash" va b.) yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari yaratilib, nashrdan chiqarildi.				
2012 yili kafedra tashabbusi bilan ToshDUda "Zamin neftgazliliigi potentsialini o'zlashtirishning zamonaviy muammolari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tashkil qilinib, uning materiallari 2013 yili 2 jild va ToshDTU xabarlari jurnalining maxsus 1-sonida chop etildi. Konferentsiya ishida kafedra va fakultetning professor-o'qituvchilari va yuqori kurs talabalari hamda magistrantlari o'z ma'ruzalari bilan keng miqyosda ishtirok etishlari ta'minlandi.				

Kafedra tarixi:

«Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasini Toshkent davlat texnika universiteti rektori buyrug'iga asosan iyul oyida, 1993 yilda tashkil qilingan. «Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» mutaxassisligi bo'yicha muxandis – texnologlar birinchi bor 1996 yili tayyorlangan. «Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasini 1996 yili «Kimyo, kimyoviy texnologiya va sanat ekologiyasi» nomli birlashgan kafedra asosida zamon talablaridan kelib chiqqan xolda tashkil etildi. O'z davrida kafedraga akademik Mirkomilov T.M., prof. P'yadichev E.V., prof. Turobjonov S.M., dots. Obidov B.O., Mizaraximov M.S. mudirlik qilganlar. 2012 yildan boshlab texnika fanlari nomzodi, dotsent Bozorov Otabek Nashvandovich kafedraga rahbarlik qilib kelmoqda. Kafedrada asosiy shtat va o'rindoshlik asosida 26 ta professor-o'qituvchilar faoliyat olib bormoqdalar. Kafedra o'qish jarayonini to'liq ta'minlash uchun professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda texnik xodimlar xam faoliyat olib bormoqdalar jumladan: 1 ta laboratoriya mudiri, 1 ta katta laborant, 5 ta laborant va 1 ta steklo duv. « Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasining professor-o'qituvchilari xalqaro, Respublika miqyosida, universitetda o'tkaziladigan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konfrensiyalarda faol qatnashib kelmoqdalar. Kafedrada o'qitishning normativ davomiyligi kunduzgi shaklida 4 yil. Akademik daraja «bakalavr». Bakalavrlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tayyorlanadilar.

- Oliy ma'lumotli yuqori lavozimda ishlovchi mutaxassislarni o'rnida mustaqil ishlashga;
- Bakalavryatning munosib yo'nalishlari chegarasida tanlab olingan mutaxassislik bo'yicha magistraturada o'qishga;
- Malakka oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasb olishga
- Neft va gazni qayta ishlash sanoat korxonalarida
- ilmiy – tadqiqot institutlarida konstruktorklik byurolarida neft va gazni qayta ishlash texnologik qurilmalarida kasbiy faoliyat ko'rsatadilar.

Kontingent:

Talabalar kontingenti bakalavr yo'nalishi bo'yicha 386 ta talabani va magistr mutaxassisligi bo'yicha 14 ta talabani tashkil etadi.

Talabalarning umumiy soni
Kafedra talabalari umumiy soni 400 ta talabani tashkil etadi.

Kafedra magistratura mutaxassisliklari:
Magistrlar quyidagi vazifalarni bajarish bo'yicha tayyorlanadilar:

Kafedra professor-o'qituvchilari:
Kafedrada asosiy shtat va o'rindoshlik asosida 26 ta professor-o'qituvchilar faoliyat olib bormoqdalar.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:	olib borilayotgan ilmiy ishlar:	olib borilayotgan ilmiy ishlar:	olib borilayotgan ilmiy ishlar:
ITD – 3 - 55 «Benzin fraksiyalarini boyitishning qo'shaloq jarayonli texnologiyasini ishlab chiqish» (raxbar t.f.n.dots. Obidov B.O.)	ITD – 12 -28 «Tabiiy va ikkilamchi ashyoviy materiallarni qo'shaloq qayta ishlar suyuuq va mineral o'g'it va tovar alyumini gidrat oksidni olish texnologiyasini ishlab chiqish» (raxbar k.f.n. , dots. Eshmuxamedov M.A.).	ITD – 12 – 28 «Energiya – ekologik, kattalik usulini qo'llab gaz tashmalari tarkibidagi to'liq oksidlanish texnologiyasini ishlab chiqish» (raxbar t.f.n., prof. Mirzaraximov M. S.)	ITD – 12 – 29 «Nanoulchamli Angren kaolinlari bilan termoreaktiv polimerlar asosida kuyma materiallar va ulardan antikorroziyon eyilishbardosh koplamlar olish texnologiyasini ishlab chiqarish» (raxbar t.f.n., dots. Ziyamuxamedova U.A.).
Bekobod metallurgiya zavodi bilan hamkorlikda 24/12 – raqami bilan ro'yxatdan o'tgan «Temir konsentratlarini uglerod monooksidi ishtirokida kokssiz qaytarib temir olish texnologik imkoniyatlarini izlash» (raxbar k.f.n., dots. Eshmuxamedov M.A)			

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:
Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan kafedra fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar JN, ON va YAN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test

topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan.
O'qitish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy maqolalariga rahbarlik qilinmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda. Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha monografiya va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatmalar va ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko'plab manbalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining elektron versiyalari kiritildi.

Kafedra

tarixi:

«Neft-gaz ob'ektlarini loyihalash» kafedrasida 2008 yilda tashkil topgan bo'lib, kafedramizda 14 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatishmoqda. To'rt nafar o'qituvchilarimiz iqtidorli yoshlardir. Kafedrada ilmiy – tadqiqot faoliyatini ustuvor yo'nalishi asosan, neft va gaz ob'ektlarini loyihalash, istiqbolli maydonlarni aniqlash va burg'lashga tavsiya etish, razvedka qilish va qazib olishga bag'ishlangan. Ilmiy - tadqiqot mavzulari «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasining hozirgi kungi dolzarb muammolarini hal etish buyurtmalari asosida bajariladi. Bajarilgan ilmiy – tadqiqot ishlarining natijalari to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etiladi.

«Neft - gaz ob'ektlarini loyihalash» kafedrasida professor-o'qituvchilari AK "UzLITineftgaz", AK «Uztransgaz», Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universitetining Toshkentdagi filiali bilan ilmiy aloqa o'rnatilgan.

Bundan tashqari Moskvadagi akad.I.M.Gubkin nomidagi «Neft va gaz» universiteti, Tyumen «Neft va gaz» universiteti, Ukraina Respublikasi "Ivano-Frankovskiy" neft va gaz instituti, Qozog'iston Respublikasi Atyrau shahridagi «Neft va gaz» universiteti bilan doimiy ilmiy aloqalar olib borilmoqda.

Kafedra tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar prinsipial ilmiy yangiliklari va amaliy yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Buni Respublika nashriyotlarida chop etilgan 10 dan ortiq avtorlik guvohnomalari, 200 dan ortiq ilmiy maqolalar, 2 ta monografiya va ilmiy izlanishlarning neft va gaz sohalariga tadbiq etilishi ko'rsatib turibdi.

Ilmiy-pedagog kadrlarning dissertatsiyalarini o'z vaqtida muvaffaqiyatli himoya qilishlarida faol ishtirok etayotgan olimlardan t.f.d., prof. A.B.Aliev, k.f.d. prof. N. YODgorov, dots. T. Rizaev va dots. N.S. Amirqulovlar o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shmoqdalar. Ilmiy – o'quv laboratoriyalari va "YOsh loyixachi" to'garagi kafedra jamoasiga ilmiy – tadqiqot ishlarini o'quv-uslubiy faoliyati bilan uzviy bog'lash imkoniyatlarini keng ochib bermoqda.

Kafedra negizida professor Aliev B.A. tashabbusi bilan "YOsh loyixachi" to'garagi tashkil etilgan. Hozirgi kunda ham katta o'qituvchi Bozorov J.T. rahbarligida "YOsh loyixachi" deb nomlangan to'garak faoliyat ko'rsatmoqda. To'garakda kafedramizda tahsil olayotgan iqtidorli bakalavr va magistr talabalar faol ishtirok etishmoqda.

Bu to'garakda ishlab chiqarishdagi mavjud muammolarning echimini topishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlar olib borilmoqda, ya'ni kafedradagi tajribaxonalarda mahalliy xom-ashyolardan olinadigan yangi kimyoviy reagent va moddalar ixtiro qilinib, ular ishlab chiqarishga keng taqdim qilib borilmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarish korxonalarida katta miqdordagi iqtisodiy samara keltirilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati quyidagi muhim va yirik muammolarni hal qilish yo'nalishlarida olib borilmoqda:

1) Neft-gaz quvurlari, qayta ishlash ob'ektlarini loyihalashni yangi va istiqbolli usullarini yaratish;

2) Loyihalash jarayonlarini jadallashtirish;

3) Loyihalash jarayonida ishlatiladigan yangi texnologiya turlarini yaratish, sinash va amaliyotda qo'llash;

4) O'zbekistonda neft va gaz ob'ektlarini loyihalash texnologiyasini chet el tajribalarini o'rgangan holda ishlab chiqish;

5) O'quv laboratoriya sharoitida ishlab chiqarishdagi muammoli masalalarni echimini izlab topish va uning natijalarini amaliyotga tadbiq etish.

Mazkur yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlar "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasiga tegishli bo'lgan quyidagi ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda olib borilayapti: AK

“UzLITineftgaz”, AK «Uztransgaz» lar bilan doimiy hamkorlik qilib kelamiz. Bu korxonalar bilan uzoq muddatli istiqbolli shartnomalar imzolani b kelinadi. Kafedramizda tahsil olayotgan magistr va bakalavr talabalari malakaviy, ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotini shu korxonalarda o'tashadilar. dots. Amikulov N.S. rahbarligida Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy hayotda bevosita faol qatnashmoqda, vatanimiz uchun yuksak malakali, kadrlarni tayorlashda munosib hissa qo'shmoqda.

Kontingent:

386-talaba

Talabalarning

umumiy

soni

Talabalarning umumiy soni 386 ta

L.

Kafedrada

olib

borilayotgan

ilmiy

ishlar:

Kafedrada quyidagi yo'nalish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi: Mazkur yilda «Innovatsion g'oyalari va ishlanmalar» Respublika innovatsion yarmarkasida kafedra faol ishtirok etdi. Bu yarmarkada kafedra dotsenti A.M. Qudratov «Mahalliy culfoko'mir» nomli innovatsion loyiha.

Kafedrada

olib

borilayotgan

ilmiy-uslubiy

ishlar:

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'qitish jarayoniga professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonig yangi pedagogik texnologiyalari joriy etilmoqda. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Iqtidorli talabalar ilmiy maqolalariga rahbarlik qilinmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalari bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda. Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha monografiya va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatmalar va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko'plab manbalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining elektron versiyalari kiritildi.

Kafedra

tarixi:

"Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" kafedrasini 1991 yil may oyida tashkil etilgan. Unga texnika fanlari nomzodi, dotsent A.M. Aminov rahbar etib tayinlangan va kafedraga 2012 yil oxiriga qadar boshchilik qilgan. Uning rahbarligida "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" kafedrasini shakllangan, rivojlangan, texnika fanlari nomzodlari tayyorlangan. 2012 yilning 1 fevralidan hozirgi kunga qadar "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" kafedrasiga texnika fanlari nomzodi, dotsent A.M.Murtazayev mudirlik qilmoqda. Ushbu yo'nalish bo'yicha A.M.Murtazayev 25 dan ortiq ilmiy maqolalar, shundan 2 ta maqola MDH davlatlari nashrlarida chop etilgan. Bundan tashqari, kasb-hunar kollejlari va Oliy o'quv yurti talabalari uchun 3 ta darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlangan. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi tayyorlanmoqda. Neft va gaz quduqlarini burg'ilash yo'nalishi bo'yicha professor A.Aminov tomonidan 150 dan oshiq maqolalar, shundan 32 ta maqola MDH davlatlari va Janubiy Koreya Respublikasi nashrlarida chop etilgan, mualliflik guvohnomalari va patentlar olingan. Professor A.Aminov tomonidan 14 ta darslik, o'quv-metodik qo'llanma, ma'lumotnoma hamda ruscha-o'zbekcha izohli lug'at yozilgan. Shuningdek, ohirgi 15 yil davomida 05.15.04 – Quduqlarni burg'ilash va o'zlashtirish texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha 5 ta nomzodlik dissertatsiyasi ishlariga rahbarlik qilgan. Chop etilgan ilmiy ishlanmalar natijasida A.Aminovning «Murakkab sharoitlarda neft va gaz quduqlari tanasini qazib o'tishning ilmiy asoslari tartibini ishlab chiqish» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi himoyaga tayyorlangan. "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" kafedrasida R.S. Mo'minov, S.B. G'oibnazarov, Sh.A. Karimov, A.Q. G'ulomova, D.X. Xikmatova, M.B. Aripxodjayeva, B.B. Axrorov va U.A. Ro'ziyevlar faoliyat olib bormoqdalar. Ularning ilmiy-pedagogik faoliyatlari davomida kasb-hunar kollejlari va Oliy o'quv yurti talabalari uchun bir qator darslik va o'quv-metodik

qo'llanmalar tayyorlanib chop etilgan.
Kafedra qoshida neft va gaz quduqlarini burg'ilashdagi muammolar yuzasidan "Burg'ichi biznes" va "Quduqlarni burg'ilash jarayonidagi asoratlarga qarshi kurash" ilmiy markazlari faoliyat olib bormoqda. Bu ilmiy markazlarda talabalar quduqlarni burg'ilash muammolari bilan tanishadilar.

Kafedrada "O'zbekneftgaz" MXK boshqaruv raisi o'rinbosari t.f.d., professor A.K. Raximov, "O'zbekneftgaz" MXK yangi texnika va texnologiyalar bo'limi boshlig'i t.f.n. S. Berdiyev, E.Elmuurodov, "O'zLITineftgaz" AK direktori t.f.d., professor O'. D. Mamadjonov, institutning ilmiy xodimlari t.f.d., professor B.L. Steklyanov, t.f.n. R.J. Po'latov, t.f.n. V.Yakshibarov, t.f.n. M.Yu. Matyakubov, t.f.n. E.U. Mamajonov, t.f.n. R.Raximov, "O'zneftgazqazibchiqarish" AK burg'ilash bo'limi boshlig'i t.f.n. A.A. Raximov, jixozlash bo'limi boshlig'i t.f.n. T.P. Eshpo'latov, "O'zLITineftgaz" AK instituti qoshidagi TMM boshlig'i t.f.n. T.Q. Qarabayev, "NGKGQTI" institute ilmiy xodimi O.S. Amanov, "O'ztransgaz" AK er osti gaz omborlari bo'limi boshlig'i A.A. Raupov va boshqalar faoliyat olib borganlar. Kafedra professor-o'qituvchilarining diqqat markazida doimo talabalarning ta'lim-tarbiyasi muammolari bo'lgan, hamda shu maqsadda fakultetlarda, yotoqhonalarda uchrashuvlar, davra suhbatlari, bahslar o'tkazilmoqda. Respublika prezidenti I.A.Karimovning asarlari, nutqlari Prezidentimiz, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi tomonidan e'lon qilingan farmoyishlar mazmuni bilan talabalar muntazam ravishda tanishtirib borilmoqda. Hozirgi vaqtda "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" kafedrasida respublika miqyosida salmoqli, nufuzli, bilim va tarbiya dargohiga aylangan. U dots. A.M. Murtazayev rahbarligida Respublikamizda vatanimiz uchun yuksak malakali kadrlarni tayorlashda munosib hissa qo'shmoqda.

afedrada olib borilayotgan ilmiy ishlar:
Kafedrada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi: Neft va gaz quduqlarini burg'ilash texnologiyasi; burg'ilash va tamponaj qorishmalari; tog' jinslarini fizik-mexanik xossalari va xususiyatlari; burg'ilashda gidroaeromexanika; burg'ilash jarayonida avariya va asoratlar.

Kafedrada olib borilayotgan ilmiy-uslubiy ishlar:
Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan bakalavr talabalari uchun "Neft va gaz quduqlarini qurish asoslari" hamda magistrlar uchun "Neft va gaz quduqlarini burg'ilash" fanklari bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar JN, ON va YaN bosqichlarini o'tkazishga savolnoma va test topshiriqlari tayyorlanib chop etilgan. O'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» usuli (klaster) zamonaviy pedagogik omillari professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. Kafedrada "Qora oltin" nomli to'garak mavjud bo'lib, uni t.f.n., katta ilmiy xodim R.S. Mo'minov boshqarib kelmoqda. Ushbu to'garakda fakultetning bakalavr va magistrleri quduqlarni burg'ilash muammolari bo'yicha ilmiy seminarlarida ishtirok etadilar. Kafedraning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, ilmiy yutuqlarni amaliy mashg'ulotlarida va ma'ruzalarda qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Kafedra a'zolari iqtidorli talabalar ilmiy maqolalariga rahbarlik qilinmoqda, ular talabalarning ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar bilan ishtirok etmoqdalar, olingan ilmiy natijalar Respublika ilmiy jurnallarida chop etilmoqda. Keyingi yillar davomida kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha monografiya va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatmalar va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi. "Ziyonet" saytiga ko'plab manbalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarning elektron versiyalari kiritildi.

O'quv va laboratoriya xonalari to'g'risida qisqacha ma'lumot:

Kafedra manzili:

2000/01 o'quv yilida viloyatda 528 umumiy ta'lim maktabi bo'lib, 325,2 ming o'quvchi, 25 gimnaziyada 5700 o'quvchi ta'lim oldi. 1998—2001-yillarda 14 kasbhunar kolleji va 5 akademik litsey qurib topshirildi. 14 kasbhunar kollejida 2400 o'quvchi o'qiydi. 2001—2003-yillarda viloyatdagi mavjud 10 texnikum va 24 hunartexnika bilim yurtlari kasbhunar kollejlari va akademik litseylarga aylantiriladi (O'zR Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 12 iyun qarori). Viloyatda 3 oliy o'quv yurti bor: Buxoro universiteti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyam instituti, Buxoro tibbiyot instituti. Ularda 9800 talaba ta'lim oladi (2001). Buxoro shahrida O'zbekiston paxtachilik i.t. institutining Buxoro filiali (1928—94-yillarda Buxoro paxtachilik tajriba stansiyasi) faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatda Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzeyqo'riqxonasi (uning 6 filiali bor), 450 ommaviy kutubxona, 148 klub, 210 madaniyat uyi, 7 madaniyat va istirohat bog'i, 15 badiiy havaskorlik jamoalari bor. Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasi (1921) respublikadagi nufuzli kutubxonalardan sanalib, unda noyob qo'lyozmalar mavjud. Buxoro viloyati da 2 ta teatr bor. Sadridin Ayniy nomidagi musiqali drama va komediya teatri to'ng'ich o'zbek professional teatrlardan biri. 1921-yil xavaskorlar guruhi asosida tashkil qilingan. Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri 1982-yil tashkil qilingan. Buxoro viloyati dan Olim Xo'jayev, Hikmat Latipov, Sa'dixon Tabibullayev, Lutfulla Nazrullayev, Nazokat Ne'matova, Aminjon Akobirov, Razzoq Hamroyev kabi yirik san'atkorlar; Domla Halim Ibodov, [Ota Jalol Nosirov](#), Ota G'iyos Abdug'aniyev, Levina Hofiz, Sattor Yarashev, O'lmas Rasulov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Mustafo Bafoyev singari xalq hofizlari va kompozitorlari. [Maryam Yosubova](#), [Tesda Mo'minov](#), [Baxtiyor Ixtiyorov](#), Ahmadjon Shukurov singari xalq artistlari yetishib chiqqan. Sog'liqni saqlash. Viloyatda 6700 o'rinli kasalxonada 4343 vrach va 16100 o'rta tibbiy xodim ishlab turibdi. 22 ayollar konsultatsiyasi, 281 qishloq vrachlik punkti, 68 feldsherakusherlik punkti, 28 qishloq uchastka kasalxonasi bor. 17 poliklinikada jarrohlik markazlari, 9 ambulatoriyada ixtisoslashtirilgan davolash markazlari tashkil etilgan. Viloyatda 3 sanatoriy, jumladan Sitorai Moxi Xosa sanatoriysi mavjud. Buxoro shahridan 25 km narida To'dako'l dam olish maskani joylashgan. 2001-yilgacha o'z kasbi bo'yicha xususiy ish faoliyati yuritish uchun viloyatda 150 mutaxassisga litsenziya berildi. Sport. Buxoro viloyati sportchilarisportning ko'plab turlari bo'yicha turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etmoqda (kurash, chim ustida xokkey, voleybol, futbol, tennis, boks va boshqalar). Buxoro viloyati da shakllangan va o'z tarixiy ildiziga ega buxorocha kurash bugungi kunda o'zbekcha kurash sifatida jahon sport olamida o'ziga xos o'rin e gall ad i. Buxorodan sambo bo'yicha jahon va Yevropa chempioni Sobir Qurbonov, 2 marta jahon chempioni Shuhrat Xo'jayev, jahon chempionlari Shuhrat Ochilov, Botir Turdiyev, Ra uf Boltayev, Botir Xujayev, kurash bo'yicha 1-jahon chempionlari Akobir Qurbonov, Kamol Murodov, 1Osiyo chempioni Farhod Turayev, Shuhrat Sa'diyev (yunonrum kurashi), Narimon Otayev (boks) kabi mashhur sportchilar yetishib chiqqan. „Sitora“ ayollar jamoasi chim ustida xokkey bo'yicha Osiyo chempionlari kubogi sohibidir (2000). O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sport turlari Buxoro shahri va viloyatida ommalashdi. Zamonaviy sport inshootlaridan „Buxoro“ futbol klubining 25000 tomoshabinga mo'ljallangan „Buxoro“ stadioni, „Semurg“ suv havzasi, „Olimpiya“ sport majmui, turli darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkaziladigan „Xumo“ tennis korti mavjud. Buxoro viloyati da 44 bolalar va o'smirlar sport maktabida 27 mingdan ziyod o'quvchi ta'lim oladi (2001). Adabiyoti. Buxoro qadimdan shoir va ulamolar to'plangan eng yirik shaharlardan biridir. Unga „Qubbat ulislom“, „Buxoroyi tarif“ unvonlari berilgan. Buxoroda „malik ulkalom“ Abu

Abdulloh Ja'far Rudakiy yashab, ijod qildi. Narshaxiyshtt „Buxoro tarixi“ asarida go'zal she'riy parchalar mavjud. Bal'amiy Tabariyning „Ta'rix...“ asarini Buxoroda fors tilida qaytadan yozgan. Ibn Sino buyuk qomusiy olim bo'lish bilan birga arab va forstojik tillarida shs'riy asarlar yozgan. Buxorolik Daqiqiy Abu Mansur Muhammad Firdavsiyning ustoz bo'lib, „Shohnoma“ dostonini dastlab u yoza boshlagan. Abu Mansur Saolibiy „Yatimat ud-dahr“ tazkirasida 10-asrda poytaxt Buxoroda yashab arab tilida ijod qilgan 25 shoir haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Uning yozishicha, „Buxoro Somoniylar hukmronligi davrida shonshuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarning yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan joy edi“. Avfiy Buxoriy adib, tarjimon va tazkiranavis olim edi. U Turon adabiyotida tazkiranavislik janriga asos solgan. Sharofiddin Buxoriy (13—14-asrlar) mashhur „Chor kitob“ni tuzgan shofirkonlik ulug' mutasavvuf shoirdir. Temuriylar sulolasi davrida Buxoroda Nosir Buxoriy, Ismat Buxoriy (1365—1426), Burunduq Buxoriy, Tohir Buxoriy, Xayoliy Buxoriy, Sayfiy Buxoriy (15-asr) kabi shoirlar yashab, devon tuzishgan. Ismat Buxoriy o'zbek, fors va arab tillarida she'r yozish an'anasini Buxoroda boshlab berdi. „Ibrohim Adham“ dostonini o'zbekchada bitdi. U temuriy shahzoda Xalil Sultonning murabbiysi edi. Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonta bag'ishlangan o'zbekcha „Shayboniynoma“ dostonini yezdi. Shayboniylar sulolasining vakillari bo'lgan Buxoro xonlari Muhammad Shayboniyxon „Shayboniy“, Ubaydullaxon ibn Mahmud Sulton „Ubaydiy“, Abdul laxon II „Xon“ ta xalluslari bilan she'r va dostonlar yozishdi, devon tuzishdi. Xususan, Ubaydullaxonning ijodi sermahsul bo'lib, u o'zbek, fors, arab tillarida lirik g'azallar, masnaviy yo'lida so'fiyona mazmun bilan sug'orilgan risolalar yozgan. Hasanxo'ja Nisoriy „Muzakkiri ahbob“ tazkirasida 16-asrda faqat Buxoroning o'zida yashab, ijod qilgan 110 nafar shoir va tarixchilarning nomlarini keltiradi. Ular orasida Mavloni Abdurahmon Mushfiqiy, Mavloni Majlisiy, Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoniy („Mehmonnomayi Buxoro“ tarixiy asari va o'zbekcha she'rlari bor), Mavloni Naxliy (1549—1636; u Hofiz Tanish Buxoriy bo'lib, „Abdullanoma“ — „Sharafnomai shohiy“ tarixiy asarining muallifidir), Mavloni Xoja Muhammad Sadr (Afzaliy), Mavloni Foni, Mavloni Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy (Husomiy Qorako'liy; 1442—1505), Sayd Podshohxo'ja bin Abdulvahhobxo'ja (Xoja), Mavloni Kasiriy, Mavloni Afsariy, Sayfiy Aruziy, Saqqo Buxoriy kabi mashhur shoirlar bor. Turdi Farog'iy, Buxoriy Naxliy, Shavkat Buxoriy (17-asr), Mulham Buxoriy, Voras, Saidkamol Fitrat (17—18-asrlar), Imlo Buxoriy, Abdullatif Kirom Buxoriy (18-asr) ashtarxoniylar davridagi eng taniqli shoirlar edi. Buxoro viloyati da mashhur shoir Sayido Nasafiy (17-asr) yashab ijod qildi. Yirik faylasuf olim Muhammad Sharif Buxoriy (vafoti 1697) „Favoidi Hoqoniyya“ (1643), Muhammad Yusuf Munshiy „Tarixi Muqimxoniy“, Mir Muhammad Amir Buxoriy „Ubaydullanoma“, Muhammad Amin ibn Muhammad Zamon Buxoriy „Muhit attavorix“ tarixiy asarlarini yozishdi. Mir Muhammad Amin Buxoriy Subxonqulixon (hukmronligi 1681 — 1702) va Ubaydullaxon II ibn Subxonqulixon (hukmronligi 1702— 1711) saroyida bosh munshiylik lavozimida xizmat qildi. Buxoro xoni Subxonqulixon „Nishoniy“ taxallusi bilan she'rlar yezdi. Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685—1769) „Tuhfat ulXoniy“ („Xon tuhfasi“) kitobining muallifidir. Shoir, tarixchi va munajjim Abdurahmon Tole' (18-asr) „Tarixi Abulfayzxon“ asarini yaratdi. Muhammad Sharif Buxoro amirligi tarixiga oid „Toj uttavorix“ (1800) asarini yezdi. Buxoroda mang'itlar sulolasi davrida Mirzo Sodiq Munshiy, Mirzo Ato, Muhammad Nishotiy, Mujrim Obid, So'fixo'ja So'fiy, Bebok, Vozeh, Savdo (1824—73), Muztarib, Iso Maxdum Buxoriy (1827—88), Muhammad Siddiq Hayrat (1876—1902), Abdurahmon Tamkin (1851—1915), Mirzo Hayit Sahbo, Ahmad Donish, Ya'qub ibn Doniyol Buxoriy (1771-1831), Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif (18— 19-asrlar), Muhammad Olim Buxoriy (19-asr), Mirzo

Abdulazim Somiy Bo'stoniy kabi shoir va tarixchilar ijod qilishgan. Sadr Ziyo — Sharifjon Maxdum (1867—1932), Mirzo Sirojiddin Hakim (1877-1912), Mulla Ikrom (Ikromcha domla) ham ularning munosib izdoshlari edi. Buxorolik Afzali Pirmastiy (vafoti 1915) „Afzal uttazkor“ (1904) tazkirasida 19-asr oxiri — 20-asr boshida Buxoroda yashab o'tgan 135 ijodkor haqida ma'lumot beradi. Jadid adabiyotining tamal toshini qo'rganlar safida buxorolik Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy bor. Abdulvohid Burhonov „Munzim“ taxallusi bilan she'rlar yozgan. 20-asrda Buxoroda o'ziga xos adabiy muhit shakllandi. Sulton Jo'ra (1910—43), Muhammadjon Rahimiy (1901—67), Jalol Ikromiy, Toshpo'lat Hamid (1927—84), Sa'dulla Karomatov, Nemat Aminov, Jamol Kamol, Omon Muxtor, Oydin Hojiyeva, Toshpo'lat Ahmad kabi shoir va adiblar sho'rolar rejimi davrida ham badiiy jihatdan pishiqasarlaryaratshddi. Bugungi o'zbek adabiyotining taraqqiyotida Gulchehra Jo'rayeva, Usmon Qo'chqor, Sadriddin Salimov, Tilak Jo'ra, Norto'xta Qilich, Safar Barnoyev, Yusuf Jumayev, Halima Ahmedova, Ahad Hasan, Vafo Fayzullo, Sulaymon Rahmon, Chorsha'm Ro'zi kabi shoir va yozuvchilarning o'ziga xos hissasi bor. Mustaqillik davrida buxorolik ijodkorlar o'z salafining an'alariga sodiq qolgan holda o'zbek, tojik, rus tillarida samarali ijod qilishmoqdasr Buxoro viloyati da O'zbekiston ijodiy uyushmalari (yozuvchilar, rassomlar, me'morlar, jurnalistlar va boshqalar) ning viloyat sho'balari faoliyat ko'rsatmoqdasr Matbuoti, radnoeshittrnshn va televvsheniyesi. Buxoro viloyati da 2 viloyat gaz. („Buxoronom“, „Buharskiy vestnik“), 11 tuman gaz., 2 shahar gaz. chiqadi. Viloyatda, shuningdek 9 tarmoq gazetasi nashr etiladi. Buxoro viloyati da dastlabki radio eshittirishlari 1922-yildan boshlagan. O'sha davrdan radio ijtimoiysiyosiy hayotga doyr mazmunli eshittirishlari bilan e'tibor qozonmoqdasr Buxoro viloyati radiosi oyiga 30 soatlik hajmda eshittirishlar beradi (2001). 1924-yilda Turkistondagi dastlabki kino tashkiloti Buxoroda tuzildi (q. „Buxkino“). 1993 ylan Buxoro viloyati televideniyesi faoliyat ko'rsatmoqdasr Studiya uchun maxsus bino kurilgan. Bir oylik ko'rsatuvlar vaqqi 30 soatdan ortadi. Buxoroda „Istiqlol“ xususiy televideniyesi tashkil ztilgan (1995). Buxoro viloyati G'ijduvon shla „Ark“ xususiy televideniyesi ham bor. Me'moriy yodgorliklari. Buxoro viloyati kddimiy davr, ilk va o'rta asrlarda qurilgan me'moriy yodgorliklarga juda boy. Hozirgi vaqtda Buxoro davlat me'moriybadiiy muzeyqo'riksenasi hisobida 997 tarixiy yodgorliklar mavjud. Turondagi eng qad. yodgorliklardan biri sanalgan Buxoro hukmdorlarining qarorgohi — Buxoro arki (miloddan avvalgi 1-asr) bugungi kungacha saqlangan. Shahar yonidagi Fathobodda Sayfidin Boharziy makbarasi (13-asr), Bayonkulixon makbarasi (14-asr), Buxoro tumanidagi Sumiton qishlog'ida Chorbakr ansambli (16-asr), Hazrat bobo masjidi (18-asr), amirning yozgi qarorgohi — Sitorai Mohi Xosa saroyi (19—20-asrlar), Vobkent tumanida Vobkent minorasi (12-asr), Chashmai Ayyub hazirasi (1208), Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy maqbarasi (13-asr), Abdurahmon Vali maqbarasi (14-asr), Vobkent hammomi (16—17-asrlar), Toshmasjid (16—17-asrlar), So'fidehqon xonaqosi (17—18-asrlar), Jondor tumanida Varaxsha shahar harobalari (7-asr), Mahmud Torobiy dahmasi (13-asr), Qizbibi majmuasi (15-asr), Kogon tumanidagi Qasri Orifonda Hazrat Bahouddin majmuasi, Abdulazixon honaqosi va Dahmai Shohon (14—16-asrlar), Hazrat Mir Kulol maqbarasi (14-asr), Kogon shahrida Temiryo'Ichilar (sobiq Amir) saroyi (19—20-asrlar), Peshku tumanida Xo'jam Bandi Kushod va Xo'jam Sayd Po'lat maqbaralari (18—19-asrlar), Romitan tumanida Xoja Ali Rometaniy — Xojai Azizon va Xoja Muhammad Boboyi Samosiy maqbaralari (14-asr), Mulla Mir Hakim xonaqosi, Shofirkon tumanida Vardonze shahar yodgorligi (6—7-asrlar), Hazor Hyp daxmasi (8-asr), Xoja Orif Revgariy — Mohitobon maqbarasi (13-asr), Qorovulbozor tumanida Bo'zachi va Qorovulbozor sardobalari (17-asr), Qorako'l tumanida Poykend shahar harobalari (8-asr). Shoburxon ota maqbarasi va masjidi, G'ijduvon tumanida Hazrat Abduxoliq G'ijduvoniyy — Xojai Jahon (12-asr)

masjidi va maqbarasi, Ulug‘bek madrasasi (15-asr), Toshmasjid va Dehqonbobo xonaqosi (15—16-asrlar), Xoja Suktare masjidi (17-asr), Chorsu masjidi (18— 19-asrlar) kabi noyob me‘moriy obidalar saqlangan. Shuningdek, Buxoro vohasida Raboti Malik karvonsaroyi va Malik sardobasi (11-asr), Karmana shahrida Mirsaid Bahrom maqbarasi (10—11-asrlar), Qosim shayx xonaqosi (16-asr) mavjud. Bu tarixiy yodgorliklarda Sharq me‘morlik an‘analari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan. O‘zbek xalqi tomonidan ikki ming yil mobaynida bunyod qilingan bu obidalar ajdodlarimizning boy iste‘dodi va badiiy mahoratidan, katta yaratuvchilik kudratidan dalolat beradi.^[1]

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ

“ЖАҲОН ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИК” КАФЕДРАСИ

**“Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Олий ва Ўрта махсус
таълим тараққиёти (1991-2013 йй)” мавзусидаги**

Битирув малакавий иши

Бажарди: “Тарих” таълим йўналиши

битирувчи 4 курс талабаси

Холлиев Анвар Исакович.

ИЛМИЙ РАҲБАР:

т.ф.н.доц.в.б.Ф.Ёрматов

Битирув малакавий иши кафедрадан дастлабки ҳимоядан ўтди.

_____сонли баённомаси “ _____ ” _____ 2014 йил

ТЕРМИЗ-2014

МУНДАРИЖА

Кириш.....	3
Адабиётлар таҳлили.....	6
 Асосий қисм:	
I.Боб.Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Олий таълим тараққиёти.....	8
1-§. Ўзбекистонда Олий таълим тизимидаги ўзгаришлар.	
2-§.Олий таълим тизимининг ривожланиши ва эришилган ютуқлар.	
II.Боб.Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Ўрта махсус таълим тараққиёти.....	40
1-§.Ўзбекистонда мустақиллик йилларида касб-ҳунар таълимига бўлган эътибор.	
2-§.Касб-ҳунар коллежлари ва академик лицейларнинг қурилиши ва моддий техник жиҳатдан таъминланиши.	
Хулоса.....	69
Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати.....	72
Иловалар.....	74

I. Кириш

Мавзунинг долзарблиги: Ўзбекистон мустақилликка эришган дастлабки кунлардан бошлаб, ёшларни ҳар томонлама етук ва баркамол қилиб тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилиб, бу масала давлат сиёсатининг асосий йўналишларидан бири сифатида белгилаб қўйилди.

Ҳар қандай жамиятнинг истиқболли цивилизацияси унинг таълим-тарбия мақомига, янгича тизими, таркиби ва моҳиятига, теран маърифий маданиятига боғлиқ. Зотан, таълим маърифати даражасигина давлат ва миллатнинг, жамиятнинг қиёфасини, унинг комил келажагини таъминлайдиган, дунё узра дунёвий нуфузини белгилайдиган ягона омил ҳисобланади. Ўз мақоми ва мундарижаси билан у муқобили йўқ тақдириломон қадриятдир.

Ўзбекистон ана шу мутлақ ҳақиқатни ўз мустақил тараққиёт йўлининг ягона нажоти, истиқболи, деб билди. Жамият ҳаётининг барча жабҳаларидаги аҳвол, аввало, миллий камолотнинг ўзимизга хос ва ўзимизга мос андозалари негизида амалга оширила бошланган туб ислоҳий янгиланишларнинг самараси, халқ маънавияти ҳамда тамаддун маърифатининг тикланиши, бой умумжаҳоний тарихий тажрибамиз ва меросимизнинг ўрганилиши, анъаналаримизнинг цивилизация дунёсининг замонавий илғор усуллари билан боғлиқ ҳолда бойитилиши, фан ҳамда таълим ривожини билан узвий боғлиқлигини теран ҳис қилиш, теран англаш фаолиятнинг бош ҳал қилувчи мақсад- моҳиятига айланди.

Мустақиллик йилларида олий ва ўрта махсус тизимида ҳам кўплаб ижобий ўғаришлар амалга оширила бошланди.

Бизга маълумки, ушбу соҳаларни ривожлантирмай туриб кадрлар тайёрлаш сифатини замон талаблари даражасида тайёрлаб бўлмайди. Кадрлар масаласига юртбошимиз қанчалик катта аҳамият бераётганлигини унинг айтган қуйидаги гапларидан тўла тушуниш мумкин: “Биз олдимизга қандай вазифа қўймайлик, қандай муаммони ечиш зарурати туғилмасин, гап оҳир-оқибат, барибир кадрларга ва яна кадрларга бориб тақалаверади. Муболағасиз айтиш мумкинки, бизнинг келажагимиз, мамлакатимиз келажаги ўрнимизда ким келишига ёки бошқачароқ айтганда, қандай кадрлар тайёрлашимизга боғлиқ”¹²⁶. Ана шу сабаб улароқ Ўзбекистон куч — билим ва тафаккурдалигини англаган ҳолда, энг аввало, онгни ўзгартириш, замонавий жаҳоний тафаккурни тарбиялаб, шакллантириш орқали озод ва обод жамиятни, келажаги буюк давлатни барпо этишдек олий мақсадни давлат сиёсатининг устувор йўналиши қилиб белгилади. Зотан, миллий тикланиш ғояларини ақлан комил, замонавий жаҳоний интеллектга, фикрга, дунёқарашга эга авлодгина ҳаётга теран тадбиқ эта олади.

Мавжуд бўлган таълим тизими доимо ўзгарувчан, глобаллашув жараёни тезлашган мураккаб дунёнинг талаб-эҳтиёжларига жавоб бера оладиган профессионал, ахлоқий-руҳий йўсинда баркамол авлодни тарбиялашдек оғир, масъулиятли вазифани тўлиқ бажаришга қодир бўлмай қолган эди. Истиқлолнинг янги дунёси, табиий ҳолда, мутлақо янгича таълим-тарбия тизимига муҳтожлик ҳис қилди. Ана шу қонуний, мантиқий эҳтиёж улароқ, Ўзбекистон президенти ташаббуси билан миллий ва жаҳоний маърифат кадриятларига асосланган моҳиятан буткул янгича таълим-тарбия тизимини, мақомини кашф этди. Халқимизнинг қон-қонига синган маърифат қонуниятининг узвий давоми сифатида Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури яхлит концепция тарзида ишлаб чиқилди. Давлат ўз ислохотчилик мақомидан келиб чиққани ҳолда, таълим-тарбиянинг янги сиёсатини, ҳаракат дастурини, унинг конституциявий-ҳуқуқий ҳамда услубий асосларини яратди. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва унинг негизида ишлаб чиқилган «Таълим тўғрисида»ги ҳамда «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида»ги қонунлари қабул қилинди.

¹²⁶ Ғуломов С. Убайдуллаева Р. Аҳмедов Э. Мустақил Ўзбекистон. Т. “Меҳнат”. 1999.-Б.57.

Конституцияда ифодасини топган фуқароларнинг илм олиши билан боғлиқ қоидалар, иккала қонуннинг асосий мезонлари аслида Илом Каримовнинг шаклланган сиёсий ва маърифий таълимоти маҳсуллари дир.

Миллий дастурда таълим-тарбия тизими ислоҳоти босқичлари илмий-амалий ва вақт жиҳатидан аниқ белгилаб берилди. 1997-2001 йилларга мўлжалланган биринчи ислоҳий босқич тўлиқ ҳолда ниҳоясига етди. 2001-2005 йилларга мўлжалланган иккинчи сифат босқичи ҳам ўз ижодий натижаларини кўрсатди. 2005 йилдан то ҳозирги кунгача ҳам таълим тизимида олиб борилган ислоҳотлар натижасида кўплаб ютуқлар қўлга киритилди.

Хуллас мустақиллик йилларида олий ва ўрта махсус таълим тизимининг шакл ланиши ва ривожланишини илмий жиҳатдан ўрганиш ҳамда эришилган натижалар ва ютуқларни таҳлил қилиш мавзунинг долзарблигини ташкил этади.

Мавзунинг мақсад ва вазифалари: Мустақиллик йилларида 1992 йилда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун ва кейинчалик 1997 йил 29 августда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш Миллий Дастури ва ундан кўзланган мақсад, олий ва ўрта махсус таълим тизимида амалга оширилган ўзгаришлар, жаҳон талабларига мос келадиган кадрлар тайёрлаш масаласидаги муваффақиятларни чуқур ўрганиш ва ёритиб бериш ушбу битирув малакавий ишининг мақсад ва вазифалари ҳисобланади.

Мавзунинг илмий янгилиги ва аҳамияти : Мустақиллик йилларида Олий ва Ўрта махсус таълим тизимида бўлган ўзгаришлар ва бу соҳалардаги амалга оширилган ислоҳотлар ва уларнинг натижаларини ҳар томонлама мукамал ўрганиш ҳамда унинг мазмун моҳиятини тўлақонли равишда билиш, кўплаб янги манбалар ва адабиётларга таянган ҳолда биринчи бор тадқиқот иши сифатида илмий муомалага олиб чиқилганлиги мавзунинг илмий янгилиги ҳисобланади.

Мазкур Битирув малакавий ишидан Олий ўқув юртлари талабалари, профессор-ўқитувчилари, ўрта умумтаълим мактаблари, коллеж ва лицейларнинг ўқитувчилари, ўқувчилари шунингдек, ўз билимини мустақил оширувчилар ҳам

фойдаланишлари мумкин. БМИнинг ўрганишнинг аҳамияти шундаки, ёшлар мустақиллик йилларида олий ва ўрта махсус таълим соҳасида эришилган ютуқларни ва жамиятнинг тараққиёти қонунларини тушуниб оладилар.

БМИнинг тузилиши: Битирув малакавий иши Кириш, адабиётлар таҳлили, икки боб, тўрт параграф, хулоса, фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати ва иловалардан иборат.

II. Адабиётлар таҳлили

Мавзуга оид адабиётлар ва манбалар ҳақида қуйидаги маълумотларни келтириш мумкин.

Ушбу мавзу бўйича адабиётлар таҳлил қилинганда биринчи ўринда Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Тошкент: Ўзбекистон, 1992, Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент: "Ўзбекистон", 1995, Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. Ўзбекистон -1996, Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Тошкент: "Ўзбекистон", 1996, Тарихий хотирасиз келажак йук. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: "Ўзбекистон", 1998, Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999, Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999, Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2001, Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002, Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2009,¹²⁷ асарларида келтирилган маълумотлардан фойдаланилди.

¹²⁷ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- 1992.- б.78,

Тошкент: Ўзбекистон,

Бундан ташқари 1992 йилда қабул қилинган “таълим тўғрисида”ги қонун, 1997 йил 29 августда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”дан Ўзбекистон тарихининг мустақиллик даврига оид маълумотлардан ҳам фойдаланилди. Мавзуга оид бўлган кўплаб монография, дарслик, ўқув кўлланма, журналлар ва газетларда эълон қилинган мақолалар ҳам мавзунини ёритишда методологик асос бўлиб хизмат қилди. Жумладан, “Ўзбекистон Республикаси” Энциклопедия. Тошкент. “Қомуслар бош таҳририяти”.1997. С.Ғуломовнинг Куч-билим ва тафаккурда” Тошкент.”ЎАЖБНТ”.2002, С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедовларнинг “Мустақил Ўзбекистон” Тошкент.”Меҳнат”.1999, С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедовларнинг “Мустақил Ўзбекистон” Тошкент.”Ислом университети”.2003, М.С. Гафарли, А.Ч. Касаевларнинг “Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси” Тошкент.”Ўзбекистон” .2001. ”Буюк ва муқаддасан мустақил ватан” .Тошкент.”Ўқитувчи”.2011.”Жамият ва бошқарув” 2001.№4.2010.№2. “Фалсафа ва ҳуқуқ” 2010.№1.”Фан ва турмуш” - Тошкент, 1997.- № 5. “Халқ сўзи”1995-2013, “Ўзбекистон овози”1995-2013¹²⁸ каби газетларда берилган маълумотлар атрофлича таҳлил қилинганлиги БМИда ўз ифодасини топган.

Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент:”Ўзбекистон”,1995. Т.1.- б. 364, Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. Ўзбекистон -1996. Т.2.- б.380, Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. Т.3. - б.366, Тарихий хотирасиз келажак йук. - Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- б. 31, Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998.- 686 б. Ўзбекистон XXI асрга интиломда.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999.- б.48, Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999. Т. 7. - б. 410,Озод ва обод Ватан эркин ва фаровон ҳаёт –пиروард мақсадимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2001. Т.8.- б.528 , Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дуне билан ҳамкорлик йўли. -Тошкент: Ўзбекистон, 2003. Т.11. - б. 320 ,Тинчлик ва хавфсизлик ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ.-Тошкент: Ўзбекистон, 2004. Т.12. - б.400 .Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2009.-Б.172.

¹²⁸ “Ўзбекистон Республикаси” Энциклопедия. Тошкент. “Қомуслар бош таҳририяти”.1997. С.Ғуломов. “Куч-билим ва тафаккурда” Тошкент.”ЎАЖБНТ”.2002, С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедов. “Мустақил Ўзбекистон” Тошкент.”Меҳнат”.1999, С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедов. “Мустақил Ўзбекистон” Тошкент.”Ислом университети”.2003, М.С. Гафарли, А.Ч. Касаев. “Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси” Тошкент.”Ўзбекистон” .2001. ”Буюк ва муқаддасан мустақил ватан” .Тошкент.”Ўқитувчи”.2011.”Жамият ва бошқарув” 2001.№4.2010.№2. “Фалсафа ва ҳуқуқ” 2010.№1.”Фан ва турмуш” - Тошкент, 1997.- № 5. “Халқ сўзи”, “Ўзбекистон овози”.

I.Боб.Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда Олий таълим тараққиёти.

1-§. Мустақиллик йилларида Олий таълим тизимидаги ўзгаришлар.

ХУЛОСА

Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган ислохотларнинг ижобий натижаларидан энг муҳими сифатида давлат томонидан ёш авлодга таълим бериш ва тарбиялаш борасида қилинаётган ишларни алоҳида таъкидлаш лозим.

Мамлакатимиз Президенти Ислам Каримовнинг раҳнамолиги ва бевосита иштирокида ишлаб чиқилган Кадрлар тайёрлаш Миллий модели ва дастури Ўзбекистон мустақиллигининг самараси ва ютуғи эканлиги, шубҳасиздир. Мустақиллик шароитидагина бундай кенг миқёсли ижтимоий лойиҳаларни ҳал этиш имкони туғилди.

Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурини амалга оширишнинг биринчи ва иккинчи босқичи яқунланди. Мазкур босқичлар натижаларини таҳлил қилиб, мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг янги устувор йўналишларини эътиборга оладиган бўлсак, назаримизда, қуйидагиларни таъкидлаш лозим бўлади.

Бириичидан. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурида белгиланган яхлит, узлуксиз ва изчил таълим тизимини жорий этиш борасидаги макровазифалар бажарилди.

Ўзбекистон Республикасида кадрлар тайёрлашнинг таркибий тузилмаси ва мазмуни тубдан янгиланди. Ҳозирги пайтда янги узлуксиз таълим тизимини ташкил этган барча таълим босқичлари: мактабгача таълимдан тортиб то малака ошириш ва кадрларни қайта тайёрлашгача бўлган барча таълим турлари фаолият кўрсатмоқда.

Иккинчидан. Миллий моделнинг компонент ва параметрларининг фаолият кўрсатишига меъёрий-ҳуқуқий база яратилди. Таълим, илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг самарали интеграциялашуви ҳуқуқий асослар билан таъминланди, давлат ва жамиятнинг кадрларга бўлган эҳтиёжини таъминлаш механизмлари йўлга қўйилди.

Учинчидан. Кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этиш ва бошқариш жараёни тубдан ислоҳ қилинди: зарур бошқарув тузилмалари, таълим ва кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш хизмати, маслаҳат органлари ва таълимни ривожлантиришга кўмаклашувчи жамоат ташкилотлари барпо этилди.

Тўртинчидан. Миллий моделдаги компонентлар — узлуксиз таълим, илм-фан, ишлаб чиқариш, давлат ва жамоат институтларининг ўзаро ҳамкорлиги йўлга қўйилди. Таълим тизими ва кадрлар тайёрлашнинг демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш борасида жамиятда амалга оширилаётган ўзгаришлар билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ривожланишига замин яратилди.

Бешинчидан. Таълим ва касб-хунар дастурлари мазмунининг узлуксизлиги, узвийлигига асосланган давлат таълим стандартлари ва давлат талаблари ишлаб чиқилиб, амалга оширилмоқда.

Олтинчидан. Болалар ва ўқувчи-ёшларни маънавий-руҳий тарбиялаш ва миллий мустақиллик ғояси тамойилларига асосланган маърифий ишларнинг самарали шакл ва услублари ишлаб чиқилиб, жорий этилмоқда.

Еттинчидан. Кадрлар тайёрлаш тизимининг ўзгариб бораётган ижтимоий-иқтисодий шароитда фаолият кўрсатиши ва барқарор ривожланишини таъминлайдиган моддий-техник ва ахборот базаси бутунлай янги даражага кўтарилди.

Саккизинчидан. Кадрлар тайёрлаш тизими муассасаларини юксак малакали мутахассислар билан таъминлаш, педагогик фаолиятнинг нуфузи ва ижтимоий мақомини ошириш бутунлай янги талаб ва мезонлар асосида амалга оширилмоқда.

Тўққизинчидан. Ислохотлар даврида илмий-тадқиқотларнинг янги йўналиши вужудга келди, Кадрлар тайёрлаш Миллий моделини ўрганиш ва таҳлил қилиш бўйича илмий мактаб, жумладан, янги педагогик таълим мактаби шаклланди.

Шундай қилиб, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастурида белгиланган вазифалар ўзининг ижобий натижаларини берди.

Мустақиллик шарофати билан олий ва ўрта махсус таълим тизимида ўзига хос ижобий ютуқларга эришилиб таълимнинг ноёб модели яратилди. Бундай ишлар изчил давом эттирилмоқда. Жумладан, биргина 2013 йилнинг ўзида 28 та янги касб-хунар коллежи қурилгани, 381 умумтаълим мактаби, олий ўқув юртлиги тизимидаги 45 та объект, 131 касб-хунар коллежлари ва лицейлар реконструкция қилинганлиги ҳамда капитал таъминланганлиги, 113 та спорт иншооти ва сузиш ҳавзаси, 55 та болалар мусиқа ҳамда, санъат мактаби барпо этилиб, фойдаланишга топширилгани бунинг яққол тасдиғидир.

Бу эзгу ишлар “2014 йил - Соғлом бола” йилида ҳам давом эттирилади.

Ушбу йил давлат дастури доирасида 4та Академик лицей ва 35 та касб-ҳунар коллежини қуриш, 8 та Академик лицей ва 114 касб-ҳунар коллежини мукамал таъмирлаш, уларни ўқув мебеллари, компьютер синфлари, ўқув лаборатория жихозлари ва бошқа инвентарлар билан таъминлаш кўзда тутилган.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар .

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Тошкент: Ўзбекистон, 1992.- б.78,
2. Каримов И.А.Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент:”Ўзбекистон”,1995. Т.1.- б. 364,
3. Каримов И.А.Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. Ўзбекистон -1996. Т.2.- б.380,
4. Каримов И.А.Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. Т.3. - б.366,
5. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йук. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- б. 31,
6. Каримов И.А.Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998.-686 б.
7. Каримов И.А.Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999.- б.48,
8. Каримов И.А.Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 1999. Т. 7. - б .410,
9. Каримов И.А.Озод ва обод Ватан эркин ва фаровон ҳаёт –пировард мақсадимиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2001. Т.8.- б.528 ,
10. Каримов И.А.Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дуне билан ҳамкорлик йўли. -Тошкент: Ўзбекистон, 2003. Т.11. - б. 320
11. Каримов И.А.Тинчлик ва хавфсизлик ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ.-Тошкент: Ўзбекистон,

2004. Т.12. - б.400 .

12. Каримов.И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли.Т."Ўзбекистон".2004.-Б.25.
13. Каримов И.А.Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2009.-Б.172.
14. Ўзбекистон Республикаси" Энциклопедия. Тошкент. "Қомуслар бош таҳририяти".1997.
15. С.Ғуломов. "Куч-билим ва тафаккурда" "Тошкент."ЎАЖБНТ".2002,
16. С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедов. "Мустақил Ўзбекистон" Тошкент."Меҳнат".1999,
17. С.Ғуломов, Р. Убайдуллаева, Э. Аҳмедов. "Мустақил Ўзбекистон" Тошкент."Ислом университети".2003,
18. М.С. Гафарли, А.Ч. Касаев. "Ривожланишнинг ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик – тараққиёт асоси" Тошкент."Ўзбекистон" .2001.
19. Йўлдошев Ж. Таълимимиз истиқлоли йўлида.Т."Шарқ".1996.-Б.4-5.
20. Тюриков В. Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон Республикаси.Т."Ўзбекистон".1998.-Б.24.
21. Турсунов С. Қобилов Э. Муртазов Б. Пардаев Т. Сурхондарё тарихи.Т."Шарқ".2004.-Б.531.
22. "Буюк ва муқаддасан мустақил ватан" .Тошкент."Ўқитувчи".2011
23. Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йили. - Тошкент: Шарқ, 1999. - Б.168.
24. Ўзбекистон Республикаси қонунлар мажмуаси, № 15-16, –Б.104.
25. Олий таълим.Меъёрий хужжатлар тўплами.-Тошкент:"Шарқ",2001.- Б.3-4.
26. "Жамият ва бошқарув" 2001.№4.2010.№2.
27. "Фалсафа ва ҳуқуқ" 2010.№1.
28. "Фан ва турмуш" - Тошкент, 1997.- № 5.
29. Гулистон. –Тошкент, 2004. -№ 6. - Б.15.
30. Халқ сўзи. 1995.13 январ.
31. Туркистон, 2003. 22 май.


32. Маърифат, 2010. 30 сентябр.

33. Халқ сўзи, 2011 . 7 апрель.


34. Халқ сўзи.2011.1 июн.

35. Халқ сўзи.2012. 1 март.


36. Халқ сўзи.2014. 27 март.



АКАДЕМИК ЛИЦЕЙЛАР ВА КАСБ-ХУНАР КОЛЛЕЖЛАРИ



**Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури
1997 йил 29 август**



1.1. Узлуксиз таълим тизими:

		Ўрта махсус, касб-хунар таълими (3 йил)	Олий таълим		Олийдан кейинги таълим	
Мактаб- гача таълим	Умумий Ўрта таълим	Академик лицей	Бакалав- риатура (4 йил)	Магист- ратура (2 йил)	Аспиран- тура, тадқиқот- чилик (3 йил)	Докторан- тура (3 йил)
		Касб- хунар коллеж- лари				
6-7 ёш	15-16 ёш	18-19 ёш	22-25 ёш	24-28 ёш	27-31 ёш	30-34 ёш
Мактабдан ташқари таълим		Малака ошириш. Кадрларни қайта тайёрлаш				


3.1. Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори

№	Билим соҳаси	Таълим соҳаси	Таълим йўналишлари	Магистратура мутахассисликлари
I	Таълим	1)Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани	20	37
II	Гуманитар фанлар ва санъат	2)Санъат	14	80
		3)Гуманитар фанлар	5	33
III	Ижтимоий фанлар, бизнес ва ҳуқуқ	4)Ижтимоий фанлар ва ахлоқ фанлари	3	28
		5)Журналистика ва ахборот	2	12
		6)Бизнес ва бошқарув	11	76
		7)Ҳуқуқ	1	24
IV	Фан	8)Ҳаёт ҳақидаги фанлар	1	28
		9)Табиий фанлар	8	105
		10)Математика ва статистика	1	8
		11)Ахборотлаштириш	1	9
V	Муҳандислик, ишлов бериш ва қурилиш тармоқлари	12)Муҳандислик ва муҳандислик иши	29	319
		13)Ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш тармоқлари	11	107
		14) Архитектура ва қурилиш	6	52
VI	Қишлоқ хўжалиги	15) Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги	8	84
		16) Ветеринария	1	12
VII	Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот	17) Соғлиқни сақлаш	6	76
		18) Ижтимоий таъминот	1	6
VII I	Хизматлар	19) Хизмат кўрсатиш	5	25
		20) Транспорт	2	4
		21) Атроф-муҳит муҳофазаси	2	14
		22) Ҳаётий фаолият хавфсизлиги	1	6
IX	Ҳарбий таълим			
			134	1235


5.1. Ташкил этилган янги типдаги академик лицей (АЛ), касб-хунар коллежлари (КХК) (2002 йил 1 сентябргача)

Академик лицей ва касб-хунар коллежларининг республика бўйича жойлашуви:

АЛ - 46 та
КХК - 260 та




7.3. ОТМ нинг профессор-ўқитувчилар сифат таркиби




М - ЎзРФА академиклари;
Dr - профессорлар ва фан докторлари;
Nz - доцентлар ва фан номзодлари;
P - илмий даражаси йўқ ўқитувчилар

7.3. ОТМларда илмий-педагог кадрлар тайёрлаш



Охириги 3 йилда ҳимоя қилинган:
Dr3 - докторлик; Nz3 - номзодлик ишлари;
Ac1 - аспирантура ва докторантура орқали;
Ac - ҳимоя қилмаган аспирантлар ва докторантлар

**1998-2001 йилларда барпо этилган академик
лицейлар ва касб-ҳунар коллежлари
диаграммаси**



ЭСЛАТМА: АЛ — академик лицейлар, КХК — касб-ҳунар коллежлари, 20/11880-сони / ўқувчи ўрни

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ЎзЛИТТИ мутахассисларидан иборат махсус ишчи гуруҳлари тузилди. Ишчи гуруҳлар биринчи навбатда миллий таълим моделининг ўзаги бўлган мазмунан янги, мустақил ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизимини жорий этиш, янги ташкил этиладиган академик лицей ва касб-ҳунар коллежларининг моддий базасини вужудга келтириш ва уларни замон талаблари даражасида жиҳозлаш учун асосий талабларни ишлаб чиқди.

